

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

SARIBOYEVA MAQSUDA O'RINBOYEVNA

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
ta'limi yo'nalishi uchun

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI
fanidan o'quv qo'llanma

GULISTON- 2016

M.Sariboyeva

**TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI FANI BO'YICHA O'QUV
QO'LLANMA**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalar uchun «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanidan tayyorlangan bo'lib, unda auditoriyada o'tiladigan o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar), mustaqil ravishda o'rghanishga tavsiya qilingan mavzular, ulardagi ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan savollar o'rinni olgan bo'lib, tegishli adabiyotlar ro'yxatlari ham keltirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma shu yo'nalishdagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

H.Mirhaydarov

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

Taqrizchilar:

M.Mamatqulov

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

M.Ismoilova

filologiya fanlari nomzodi

Сарибоева М

**УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ ПО ПРЕДМЕТУ «ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ
ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ НАРОДОВ»**

Данное учебное пособие предназначено для студентов направления Узбекской филологии по предмету «История литературы тюркоязычных народов». В пособии даны тексты лекций, темы, рекомендованные для самостоятельного изучения, методические рекомендации по их выполнению, приведен список рекомендуемой литературы.

Рецензенти:

Маматкулов М

**кандидат филологических
наук, доцент**

Исмаилова М

**кандидат филологических
наук**

M. Sariboeva.

AN EDUCATIONAL AID ON THE HISTORY OF TURKISH LITERATURE

The present methodic aid on the history of Turkish literature is intended for the students of Uzbek philology.

The manual includes lecture texts self-study topics, methodical recommendations on their accomplishment and a list of literature.

Reviewers:

Mamatkulov M.

**candidate of philological sciences,
assistant professor.**

Ismailova M.

candidate of philological sciences

KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma amaldagi dasturlar asosida tayyorlanib, o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Zamonaviy pedagogik texnologiya tizimiga suyangan holda identiv o'quv maqsadlari, nazorat savollari, talabalar mustaqil bajarishi zarur bo'lgan topshiriqlar va mavzular uchun adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Bu fanni o'qitishdan asosiy maqsad turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, ularning ma'naviyati, madaniyatini o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda o'zaro totuvligini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Qo'llanmada turkiy xalqlar adabiyoti vakillaridan bo'lgan Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Nizomiy Ganjaviy, Chingiz Aytmatov, Abay, Maxtumquli va boshqa turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalariga ta'riflar berilib, ularning turkiy xalqlar adabiyotida tutgan muhim o'rni e'tirof etilgan va har bir turkiy xalqning yozma hamda og'zaki adabiyotining shakllanishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, turkiy xalqlar adabiyoti vakillarining asarlari tahlili berilgan bo'lib, ushbu tahlillar asnosida talabalar mustaqil ishlari, topshiriqlariga keng o'rinni berilgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixidagi mushtarak va farqli tomonlari aniqlangan.

Ma'ruza mavzularini tayyorlashda mashhur adiblar ijodi va ularning asarlaridan ayrim namunalar keltirildi hamda internet materiallardan unumli foydalanildi.

Har bir xalqni uning adabiyoti olamga tanitadi. Hozirgi kunda jahonni anglash, jumladan, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, adabiyoti, madaniyatidan bahramand bo'lish zaruriy bir ehtiyojga aylanib qolayotganini inobatga olib, ushbu o'quv qo'llanmani hukmingizga havola etamiz.

«Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi»dan qo'llanmalar yaratishga ilk urinishlardan biri bo'lgan bu ishda kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Qo'llanmada J. Rumiy va Yu.Emro ijodini yoritishda A.Alimbekovning «Turk adabiyoti tarixi» kitobidan foydalanildi. Bu haqda xolis fikr bildiruvchilarga va A.Alimbekovga o'z minnatdorchiligidizni izhor qilamiz.

I QISM

TURK ADABIYOTI

Mavzu: «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanining maqsadi va vazifalari

Reja:

1. «_Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanining maqsadi va vazifasi.
2. Barcha turkiy xalqlarga tegishli bo’lgan qadimgi folklor asarlari.
3. Qadimgi yozma yodgorliklar haqida.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanini o’rganishdan maqsad, ularning o’rtasidagi o’zaro aloqalar. Barcha turkiy xalqlarga tegishli adabiyotlar. «Manas», «Alpomish», «Go’ro’g’li» kabi dostonlardagi mushtaraklik. «O’g’uznama» haqida.

Text-book - darslik

Contrast – solishtirmoq

True-life – real, haqqoniy

Choose – tanlamoq

Read – o‘qimoq

Unit – mavzu

Reaction – ta’sirlanmoq

Book – kitob

Dars maqsadi: Turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyoti va shakllanish bosqichlari, adiblarning turkiy xalqlar adabiyotiga qo’shgan hissalari va talabalar ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati haqida ma’lumot berish hamda talabalarda milliy iftixon tuyg’usini shakllantirish.

Identiv o’quv maqsadlari:

1. «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanini o’rganishdan maqsad hamda ularning o’rtasidagi o’zaro aloqalar to’g’risida so’z yuritadi.
2. «Go’ro’g’li» turkumidagi dostonlarning mazmun mohiyati haqida ma’lumot beradi.
3. Umumturkiy yodgorliklardan biri «O’g’uznama»ni tahlil qiladi.

Turkiy xalqlar adabiyoti jahon adabiyotining mushtarak bir bo’lagidir.

Ma’lumki, kelib chiqishi bir – biriga yaqin, qarindosh bo’lgan xalqlarning tarixi, madaniyati, rivojlanishi bir ildizga borib taqaladi. Bu xalqlarning urf – odatlarida, rasm – rusumlarida, xalq og’zaki ijodida bir – biriga o’xshash holatlar

juda ko'p ko'zga tashlanadi. Albatta, tarixiy taraqqiyot tufayli, keyinroq ayrim farqlar ham vujudga kelgan.



Ma'lumki, turkiy qavmlar deganda biz o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, turk va o'ttizga yaqin millatlarni ko'zda tutamiz. Ana shu qarindosh xalqlarning adabiyotini bir butun holda yaxlit o'r ganish, ularning ijtimoiy – ma'naviy hayotini yaqindan anglashga yordam beradi. Yuqorida ko'rsatilgan xalqlarning eng qadimgi adabiy – madaniy yodgorligiga e'tibor berilsa, ularda bir–biriga o'xshash asarlarning variantlariga duch kelamiz. Masalan, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. «Alpomish», «Manas», «Qo'rqt ota kitobi» kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. Bunday holatni biz faqat doston janridagi asarlar misolida emas, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan, Nasriddin afandi haqidagi latifalar turk, ozarboyjon, turkman, o'zbek xalq ijodida ko'plab uchraydi. Qadimda kuylangan turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar haqida ham shunday holat ko'zga tashlanadi.

«Qo'rquqt ota kitobi» jahon xalqlari og'zaki ijodida «Manas», «Alpomish», «Kalevala»lar bilan bir safda turadi. Hozirgi ozarbayjon, turkman turk xalqlarining ajdodlari bo'l mish o'rtalarda o'g'uzlar hayoti, tarixi badiiy aks ettirilgan bu asarda Markaziy Osiyoning boshqa turkiy xalqlari hayotiga mushtarak bo'lgan manzaralar ham mavjud. VI-VIII asrlar mobaynida yaratilib, XV asrda tartib berilgan, o'n ikki hikoyatdan tashkil topgan mazkur asarda bu davrdan avvalgi bosqichlarga, xususan, islomgacha bo'lgan tarixga oid turkiy xalqlarning hayoti, etnik hodisalar ham o'z ifodasini topgan. Dostonning boshidan oxirigacha qahramonlik pafosi hukm suradi.

Qirg'iz xalqining butun dunyoga mashhur bo'lgan dostonlaridan biri, shubhasiz, «Manas» eposidir. Bu asarda xalqning ko'p asrlik tarixi, ularning chet el bosqinchilar zulmiga qarshi erk va ozodlik uchun olib borgan kurashi aks ettirilgan. «Manas» eposining ko'pgina variantlari yozib olingan. Albatta, har bir manaschi-baxshi bu eposni aytishda o'zidan ham biron-bir yangilik qo'shib, unga ijobiy yondashadi. Shuning uchun dostonning ayrim variantlarida Manas boshqa yurtlarni bosib oluvchi, ularga qirg'in keltiruvchi zolim sarkarda sifatida ham tasvirlanadi. Ayrim variantlarida esa Manas xalqparvar, adolatli inson sifatida tasvirlangan.

Xullas, qadimgi turk madaniyati juda boy va rang – barang bo'lib, u barcha turkiy millatlar madaniyati tarixiga bevosita taalluqlidir. Bularni bir butun holda qiyosiy o'rganish turk ellari madaniyati aloqasini mustahkamlaydi va bir – biriga yaqinlashtiradi.

Ma'lumki, VI-VII asrlarda Markaziy Osiyoda turk hoqonliklari hukmron bo'lgan. Bu hoqonliklarning boshliqlaridan bo'lgan Bilga Xoqon va uning ukasi Kulteginlar turkiy xalqlarni birlashtirish uchun katta ishlarni amalga oshirgan. Ana shu turk hoqonlarining qabr toshlariga yozilgan bitiklar bizgacha to'liq yetib kelgan. Bu yozuvlarni rus va chet el olimlari o'qish uchun qariyb 100 yil vaqt sarf qildi. Nihoyat, bu sirli yozuvni daniyalik olim V.Tomson birinchi bo'lib o'qishga muvaffaq bo'ldi. Bu yozuvlarda turkiy xalqlarning davlat qurishdagagi olib borgan kurashlari hikoya qilingan. Jumladan, turk ellarining

o'z mustaqilligi uchun Xitoy bosqinchilariga qarshi va ularning o'zaro bir –birlari bilan olib borgan urushlari tasvirlangan. Bu bitiklarda kuchli davlat qurish uchun, albatta, qardosh xalqlar birlashishi kerakligi uqtirilgan. Bu bitiklarning tarixiy asar ekanligini aytish bilan birga, uning badiiy asar ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz kerak. Eltarish xon o'g'illari Bilga Xoqon va Kulteginlarning sarkandalik faoliyati, ularning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlari bugungi kunimiz uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki bu sarkardalar turkiy xalqlarning istiqloli va mustaqilligi uchun kurash olib bordi. Mustaqillik uchun kurash masalasi esa hozirgi turkiy xalqlarning ham eng dolzarb masalalaridan biridir. Demak, O'rxun Yenisey bitiklarida tasvirlangan voqealar bugungi zamondoshlarimizga ham muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Tunyuquq bitiklarida shunday so'zlar yozilgan: «Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... O'zining xoni bilan birga bo'lmadi. Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun, tangri o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi».

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand – nasihat xarakteridagi asardir. Unda arabcha va forscha so'zlar nisbatan oz uchraydi. Bu kitob tez orada katta shuhrat qozondi. Uni «Turkiy Shohnoma» ham deb atay boshlashdi. Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» nomli didaktik asari ham umumturkiy xalqlarga tegishli deb qabul qilingan.

Umumturkiy adabiyotlardan yana biri sifatida «O'g'uznomá» eposini ko'rsatish mumkin. Bu asarda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi har bir urug'ning shajalarari ko'rsatilgan. Asarda ko'plab she'riy parchalar ham keltirilgan. O'g'uzxonning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lган rivoyatlar, uning davlatni boshqarish, el-yurt obodonchiligi, turkiy xalqlarning mustaqilligi, baxti uchun olib borgan kurashlari tasvirlangan.

Turk xalq og'zaki ijodida juda ko'plab qo'shiqlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mavjud. Eng qadimgi turk xalqi dostonlaridan biri «Yaratilish dostoni» bo'lib, unda insoniyatning yaratilishi, dastlabki turk ajdodlari haqida qiziqarli rivoyatlar berilgan. Ayniqsa, «O'g'uznomá» nomli dostonda qahramonlik motivlari

ko'tarinkи ruhda kuylangan. Bu doston bir qancha bo'limlardan iborat. Go'ro'g'li obrazi qatnashgan bir qancha dostonlar mavjud bo'lib, ular boshqa turkiy xalqlar adabiyotidagi shu tipdagi dostonlar bilan hamohangdir.

Biz bu yerda qadimgi turk eposlaridan ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdik, xolos. Shuning o'zi ham turk ellari qadimdan juda yuqori darajadagi madaniyatga ega bo'lганligidan darak beradi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'pgina turk olimlari va yozuvchilari o'z asarlarini arab va fors tillarida yaratgan.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Turkiy xalqlar folklori va yozma adabiyoti to'g'risida fikringiz qanday?
2. «Manas», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Qo'rqu ota kitobi» singari xalq dostonlaridagi qanday mushtaraklik bor?
3. Eng qadimgi og'zaki adabiyot yodgorliklari qaysi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan.?
4. «Devonu lug'atit turk» asari qanday asarlar sirasiga kiradi?
5. O'rxun-Yenisey bitiklarida tasvirlangan voqealar nima uchun bugungi zamondoshlarimizga muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi?
6. Turkiy qavmlar deganda siz qaysi millatlarni nazarda tutasiz?
7. **Turkiy qabilalar nechanchi asrlarda qarluqlar, qipchoqlar Vizantiya imperiyasiga qarshi urush olib borganlar?**
 - A. VIII-X asrlar
 - B. VII-X asrlar
 - C. VI- VII asrlar
 - D. VII- VIII asrlar
8. **Jahon adabiyoti durdonalari qatorida turadigan qaysi asar to'g'risida «IX-XI asrlar mobaynida yaratilib, XV asrda tartib berilgan» deyiladi?**
 - A. «Qo'rqu ota kitobi»
 - B. «Manas»
 - C. «Kolevala»
 - D. «Alpomish»
9. **«Qo'rqu ota kitobi» qanday shaklda yozilgan?**

A. Nasr va nazmda

B. Nasriy

C. Sa'j

D. She'riy

10. Quyidagi asarlarning qaysi birida Dirsa xonning o‘g‘liga beklik bergani, ammo uning taxtga chiqishi Dirsaxonning qirq yigitiga yoqmagani bilan bog‘liq voqiyalar bayon etiladi?

A. «Qo‘rqu ota kitobi»

B. «Alpomish»

C. «Go‘ro‘g‘li»

D. «Manas»

11. Oshiq tarzi turk adabiyotining janrlarini ko’rsating.

A. Koshma, varshagi,samoiy, doston, g’azallama, kochaklama, tashlama

B. Futuvvatnama, g’azovotnama, manoqibnama, battolnama

C. Turku, mani, ayit (yo’qlov),tekerleme, bilmeje (topishmoq), ninni (alla)

D. Masal (ertak), doston, afsona, fikra (latifa), xalq hikoyasi, ota so’zi (maqollar)

12. To’rt misralik mustaqil she’r, anonim xalq adabiyoti nazm namunasi...

A. Mani

B. Qo’shma

C. Ilohiy

D. Samoiy

9. Turk mumtoz adabiyotining go’zal namunalarini yaratgan shoirlar nechanchi asrda yashab ijod qildilar?

A. XII asrda

B. XV asrda

C. XI asrda

D. X asrda

Mavzu: Turk adabiyoti tarixi

Reja:

1. Turk adabiyotining shakllanishi.
2. XX asr Turkiyadagi tarixiy muhit.
3. Hozirgi zamon turk adabiyotining vakillari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Saljuqiyilar, donishmandiyilar, usmoniyilar, o'rxun yozuvlari, uyg'onish davri, yenisey yozuvlari. Yangi turk adabiyotining xususiyatlari, sarbast she'rlar. Ijtimoiy-siyosiy voqealarning adabiyotda asosiy mavzuga aylanishi. Turk modern adabiyoti. Sabaxittin Ali, Aziz Nesin, Nozim Hikmat, Qora Osmon o'g'li kabilarning ijodiy faoliyati. R.N.Guntekin ijodidagi o'ziga xosliklar. Erk va demokratiya uchun yozilgan asarlar.

Dars maqsadi: Turk adabiyotining shakllanishi, o'ziga xos o'rni, yangi turk adabiyotining xususiyatlari va adabiy muhit haqida talabalarga ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Turk adabiyoti boshqa turkiy xalqlar madaniyati bilan o'zaro chambarchas aloqada paydo bo'lganligini izohlaydi.
2. Turk adabiyotining shakllangan davri to'g'risida ma'lumot beradi.
3. XX asr Turkiyadagi tarixiy muhit haqida tushuncha beradi.
4. Hozirgi zamon turk adabiyotining shoir va yozuvchilari xususida fikr yuritadi.

Sharq adabiyoti o'zining boy adabiy merosi bilan jahon adabiyoti tarixida alohida o'rinni to'tadi. Turk adabiyotining o'ziga xos o'rni bor. O'zining yozuv tarixiga ega turk adabiyoti sharqda nisbatan yoshdir. Turk adabiyoti tarixi hozirgi turklarning avlodlari bo'lmish turkiy o'g'uz qabilalarining Kichik Osiyo yerlariga XI-XII asrlarda bosib kirishidan boshlanadi.

Adhambek Alimbekovning «Turk adabiyoti tarixi» kitobi turk adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan siymolari, unda hayotiy fakt va tarixiy shaxslar timsoli ifodalishini tadqiq qilishi jihatidan qimmatlidir. Olim izlanishlarida turk adabiyotining shakllanishini tarixiy manbalarga suyanib alohida e'tibor qaratgan.

Ma'lumki, o'g'uz qabilalari VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda yashaganlar va muntazam boshqa qabilalar bilan aralashish protsessi bo'lgan. VIII asrda O'rta Osiyoda, Sirdaryo bo'ylariga ko'chib kelgan o'g'uz qabilalari, asosan, dinni qabul qilgach, XI asrda Saljuqiylar sulolasini boshchiligidagi Kichik Osiyo yerlariga bostirib kiradilar. Bu paytda Kichik Osiyoda Vizantiya hukmronlik qilardi. Umuman, turkiy qabilalar VIII-X asrlardayoq Kichik Osiyo yerlarida paydo bo'lib, qarluqlar, qipchoqlar Vizantiya imperiyasiga qarshi urush olib borganlar. Qabilalardan bir qismi bosib olgan yerlarda joylashar va mahalliy aholiga qo'shilib ketardi ham. XI asrda Saljuqiylar sulolasini boshchiligidagi o'g'uzlarning Kichik Osiyo yerlariga bostirib kirishi nihoyatda kuchaydi. Shunday qilib, poytaxti Konstantinopol bo'lgan Kichik Osiyodagi Vizantiya imperiyasi o'rnida ikkita turkiy davlat, Donishmandiyalar davlati (1067-1180) poytaxti Sivaz shahri, poytaxti Konya bo'lgan Saljuqiylar davlati (1077-1307) paydo bo'ldi. Kichik Osiyoning sharqi-janubida va markaziy qismida joylashgan bu davlat XV asrning o'rtalarida Vizantiya imperiyasining tamoman yemirilishida muhim rol o'ynadi.

Turk yozma adabiyoti manbai o'g'uzlar Kichik Osiyoga kelguncha ko'chmanchi bo'lib yashagan yerlarga borib taqaladi. Turk adabiyoti boshqa turkiy xalqlar madaniyati bilan o'zaro chambarchas aloqada bo'ldi va shakllandi. Turkiy qabilalar umumturkiy bo'lgan madaniy yodgorliklarni, shu jumladan, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni yaratganlar. O'rxun-Enasoy (VI-VIII asrlar) yodnomalari bunga misoldir. Turkiy qabilalar o'rtasida o'zaro adabiy aloqalar bo'lgan. Ayrim obrazlar, syujetlar deyarli barcha turkiy xalqlar og'zaki ijodida uchraydi. Keyinchalik har bir xalq adabiyoti ma'lum ijtimoiy – tarixiy sharoitda o'ziga xos rivojlanish yo'lidan bordi. Har bir taraqqiyot bosqichlarini chuqr o'rganish adabiyotshunoslikning vazifalaridandir.

Turk adabiyotshunoslari adabiyot tarixini uch davrga bo'ladilar:

1. Turklarning islom dinini qabul qilgunigacha bo'lgan davr. X asrgacha bo'lgan bu davr adabiy merosni barcha turkiy xalqlarga tegishli deb qarashi kerak.
2. Islom dini qabul qilingandan so'nggi davr.

3. Yangi davr, ya’ni arab adabiyoti namunalari ta’siri boshlangandan keyingi davr.

Bular o’z navbatida ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, yana bir qancha nom bilan kichikroq davrlarga ajratiladi.

Islomiyatdan avvalgi adabiyotni ikkiga ajratish mumkin:

Og’zaki adabiyot va yozma adabiyot

Islom dinini qabul qilingandan so’nggi turk adabiyoti uch bosqichga bo’lib o’rganiladi.

O’tish davri adabiyoti, xalq adabiyoti, mumtoz turk adabiyoti.

Turk adabiyotining rivojlanishida fors, arab adabiyotining ta’siri katta bo’lgan. Shoirlar fors hamda turk tillarida ijod qilganlar. Turkiyaga fors saroy adabiyoti bilan birga xalq og’zaki ijodi ham kirib kelgan. «Tazkira» tuzish ham turklarga eron adabiyotidan o’tgan.

Turk adabiyotini o’rganish, o’rtta asrlardan boshlangan. Tanqidiy qarashlar ham bo’lgan. Shuningdek, antologiyalar turk adabiyoti haqida Yevropada ilmiy adabiyotlar paydo bo’lishiga asos bo’ldi. XVIII asrning 70-yillarida Venetsiyada e’lon qilingan turk adabiyoti tarixiga oid kitob va «Turkiyadagi har xil fanlar ahvoli» deb nomlangan Abbat Toderining ilmiy ishi, XX asr boshlarida e’lon qilingan Avstraliyalik sharqshunos Xammer Prugshtalining to’rt tomlik «История османского изящной словесности» («Usmonli so’z san’ati tarixi») kitoblari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan turk adabiyoti tarixi izchil o’rganilmoqda.

Adabiy merosga bo’lgan munosabatga qarab, turk adabiyotshunoslarni ikki guruhga bo’lish mumkin.

Birinchi guruh vakillari turk adabiyoti boy adabiy merosga egaligini ta’kidlab, hozirgi turk adabiyoti o’tmish adabiy an’analariga suyangan holda rivojlanayotganligini aytsalar, ikkinchi guruh vakillari o’tmish turk adabiyoti taqlid adabiyotdir, asosan, fors va arab adabiyotiga taqliddan boshqa narsa emas, bu adabiyot davr haqida ham ma’lumot berolmaydi deyishadi va hozirgi paytda

adabiyotdagi zaifliklarga ham adabiy merosning yomon tomonlarini o'zlashtirishdan deb biladilar.

Jahon adabiyoti tarixida adabiy merosga noto'g'ri munosabatda bo'lismay hol emas. Bir vaqtlar eronliklar, arablar, hindlar ham o'z adabiy merosiga shunday munosabatda bo'lganidek, hozirgi vaqtida adabiy merosga to'g'ri yondashish sezilmoqda va turk adabiyoti tarixi jiddiy o'rganilmoqda.

XIII asrda Onado'lida saljuqiylar hukmronlik qilib, sulton Oloviddin davri bu asrdagi eng porloq davrdir. Ammo 1232-yilda boshlangan mo'g'ul istilosini saljuqiylar hukmdorligiga barham berdi. Istilo davridagi zulm, qaroqchilik, har xil mazhablar o'rtasidagi kurash xalqni holdan toydirdi. 1308-yilga kelib saljuqiylar davlati turli bekliklarga parchalanib ketdi.

Onado'lida turk adabiyoti shakllana boshladi. Bu davrdagi istilolarga qaramasdan Konya, Sivas, Arzirum, Karaman kabi shaharlarda ilm, san'at, adabiyot vakillari to'plandilar. Musulmon davlatlaridan ziyolilarning Onado'liga kelishi ham bu yerdagi adabiy va madaniy muhitga ta'sir qilmay qolmadidi. Jaloliddin Rumi kabi davrining yirik allomalari ham Onado'liga kelib qoldi. Ammo ziyolilar ko'proq fors tilida so'zlashar va asarlar ham fors tilida yaratildi. Bu davrda yaratilgan yirik asarlardan Rumiyning «Masnaviy»si ham fors tilidadir. Ayni paytda turk xalq og'zaki ijodi ta'sirida va yosh ziyolilar ta'sirida turli tariqat vakillarining harakati tufayli turkiy she'rlar ham paydo bo'la boshladi. XIII asrda yashagan Xo'ja Dehqoniy «Saljuqiylar shohnomasi» ni yozgani ma'lum. Biroq bu asar hanuzgacha topilmagan. Davlatni birlashtirishga harakat qilgan saljuqiylardan Karaman o'g'illaridan Mehmet Bey 1277-yilda turk tilini qo'llash haqida farmon chiqardi. «Bundan buyon devonda, mahkamalarda, majlislarda va kishilar to'planadigan joylarda turkchadan boshqa til qo'llanilmasin» mazmunidagi buyruq o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

XIV asr boshlarida Sogut yerlaridagi kichik bir beylikka hukmdorlik qilgan usmonlilar sekin-asta kuchayib, kurashlarda g'alaba qozonib, davlatni birlashtira boshladi. Onado'lida siyosiy birlik vujudga keldi. Bursa poytaxt shahar sifatida dovruq qozondi. Shoirlar, me'morlar faylasuflar bu shaharga yig'ila bordilar,

davlat mustahkamlanib, yuksalish seziladi. XIV asr turk mumtoz adabiyotining, devon she'riyatining boshlanish asridir. Bu davrda Xo'ja Ma'sud, Ahmadiy, Qozi Burhoniddin kabi ijodkorlar yetishib chiqdi.

XV asrda usmonlilar imperiyasi yanada kengayib bordi. 1453-yil 29-mayda Istambulning fath etilishi Turkiya siyosiy hayotida juda katta voqeа bo'ldi.

Istambulning olinishi bilan turklar kichik Osiyoda hukmronlikni to'liq qo'lga kiritdila. Istambulning boshkent bo'lishi tufayli shaharga butun usmonlilar qo'l ostida bo'lgan yerlardan shoirlar, fozillar, me'morlar oqib kela boshladи. Istambul ham siyosiy ham madaniy markazga aylandi. Ko'plab me'moriy yodgorliklar bunyod etildi. XV asr oxirlarida turk devon adabiyoti «shakllanish» davrini o'tib bo'lib, «yuksalish» davriga qadam qo'ygandi. O'rta asrlar adabiyotining asosiy turi bo'lgan she'riyatda an'anaviy yo'l davom ettirilishi bilan birga, yangi janrlarda asarlar ham yaratila boshlandi. Ayniqsa, masnaviy shaklida ko'plab asarlar yaratildi. XV asrdan nasr va tarixiy asarlar yozish, tazkiralar tuzish ko'paydi. Ammo nasriy asarlar tili juda jimjimador, majozli edi. Sinon Posho, Ashraf o'g'li Rumiy, Orif Ali, Oshiq Poshozoda asarlari bunga misol bo'la oladi. «Sulaymon shohning o'limi», «Usmon G'ozining vasiyati», «Usmon G'ozining ro'yosi» (Oshiq Poshozoda), «O'gitlar», «Ishq» (Sinon Posho), «O'g'uzxon va Qo'rqut ota kitobi», «Usmon Beyning O'g'uzlarga bey saylanishi», (Yoziji o'g'li Ali) kabi asarlar XV asr turk nasrining eng yaxshi namunalaridir. Turk adabiyotidagi ilk satirik asar ham XV asrda yaratildi. Shayxiy, Ahmad Doiy, Habibiy, Zaynab Xotun, Mehri Xotun, Masihiy, Jamoliy, Ahmad Posho, Ivaz Poshozoda Atoiy, Naqqosh Safiy, Najotiy, Visoliy kabi turk mumtoz adabiyotining go'zal namunalarini yaratgan shoirlar ham XV asrda yashab ijod qildilar.

XX asr Turk adabiyotining yirik namoyandasи Guntekin o'z asarlari bilan faqat Turkiyadagina emas, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham mashhurdir. Guntekining 24 jilddan iborat kulliyoti bosilib chiqqan. Yozuvchining 19 ta romani, ko'plab pyesalari va hikoyalari mavjud.

Rashod Nurining «Tamg'a», «Choliquushi» «Xazonrezi», «Yashil kecha» romanlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adibning «Hiylai shar'iy», «Halola»

singari dramatik asarlari ham o'zbek kitobxonlarga tanish. Guntekin asarlari betakrorligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi

Hozirgi turk adabiyotining dong'ini dunyoga taratayotgan Mustafo Sepitchi, Yemine Ishansu, Sevinch Chokum, Mustafo Qutlu, Xakim o'g'li Ismoil, Urxon Pamuk, Kurshat Bashar kabilarni ko'rsatish mumkin.

Atigi 36 yil umr ko'rgan Umar Sayfiddin ham XX asr turk adabiyotining faxri bo'lib hisoblanadi. Uning 136 hikoyadan tashkil topgan to'plami hozir ham turk o'quvchilarining eng sevimli kitobi bo'lib qolgan. Umar Sayfiddin adabiyotning ijtimoiy vazifasi haqida shunday degan edi: «Adabiyotga faqat san'at deb qarashlariga men mutlaqo qarshiman. Yozuvchining burchi inson qalbida yovuzlikka qarshi nafrat tuyg'usini uyg'otish, uni har xil pastkashliklardan asrashdir».

Xullas, hozirgi turk adabiyoti ezgulik uchun xizmat qilmoqda. Bu adabiyot turli badiiy janrlarda va rang-barang mavzularda yuksalib bormoqda.

«Fikriy hujum» metodidan foydalanib mavzuni mustahkamlash

Savollar	Fikrlar
1.Turk adabiyotshunoslari adabiyot tarixini necha davrga bo'ladilar? Bu davrlarni (adabiy merosni) barcha turkiy xalqlarga tegishli deb qaraysizmi? Nima uchun? Umumturkiy madaniy yodgorliklarni-chi?	1. Turklarning islom dinini qabul qilgunigacha bo'lgan davr, islom dini qabul qilingandan so'nggi davr, arab adabiyoti namunalari ta'siri boshlangandan keyingi davr.
2. Islom dinini qabul qilingandan so'nggi turk adabiyoti haqida qanday fikr bildirasiz?	2. O'tish davri adabiyoti, xalq adabiyoti, mumtoz turk adabiyoti.
3. Anonim turk xalq adabiyotining nazmiy va nasriy shakllarini o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bilan solishtiring, hosil bo'lgan xulosalariningizni izohlang.	3. Turku, Mani, ayit (yo'qlov), tekerleme ,bilmeje (topishmoq), ninni (alla)
4.Turk adabiyotini o'rganish qachondan boshlangan?	4. Turk adabiyotini o'rganish, o'rta asrlardan boshlangan. Tanqidiy qarashlar ham bo'lgan. Shuningdek, antologiyalar turk adabiyoti haqida Yevropada ilmiy adabiyotlar paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan turk adabiyoti tarixi qay tarzda o'rganilmoqda?
2. Turk adabiyotini o'rganish qachondan boshlandi?
3. Turk ertaklarining manbalari haqida turlicha nazariya va qarashlarga sizning fikringiz qanday?
4. XV asrda yashagan turkiy shoirlar guruhi haqida ma'lumot bering.
5. Hozirgi turk adabiyotining taniqli vakillari sifatida qaysi shoir va yozuvchilarni taniysiz?

6. Turk adibi Rashod Nuri Guntekin asarini belgilang.

- A. «Choliqushi»
- B. «Futbol qiroli»
- C. «Masnaviy ma'naviy»
- D. «Oshkora qotillik qissasi»

7. «Choliqushi» romanining asosiy g'oyasi nima?

- A. Turk jamiyatida ayol erki masalasi haqida fikr yuritiladi
- B. Tarixiy mavzu
- C. Muhabbat mavzusi.
- D. Do'stlik mavzusi
- E. «Oshkora qotillik qissasi»

9. «Choliqushi» romanining asosiy g'oyasi nima?

- A. Turk jamiyatida ayol erki masalasi haqida fikr yuritiladi
- B. Tarixiy mavzu
- C. Muhabbat mavzusi.
- D. Do'stlik mavzusi

8. Turk adibi Rashod Nuri Guntekin asarini belgilang.

- A. «Choliqushi»
- B. «Futbol qiroli»
- C. «Masnaviy ma'naviy»



Mavzu: Jaloliddin Rumiy

Reja:

1. Jaloliddin Rumiyning hayot yo'li.
2. Shoirning ijodiy merosi.

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari: Sulton ul-ulamo, «Masnaviyi ma'naviy», shamsul haqoyiq, devoni kabir.

Read – o'qimoq

Large – katta

Life – hayot

A text – matn

Good – yaxshi

Herigate – meros

Dars maqsadi: Yirik alloma Jaloliddin Rumiy hayoti va faoliyati, uning adabiy- falsafiy merosi to'g'risida ma'lumot berish orqali talabalarda Rumiy ta'limoti haqida tushuncha hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Rumiyning yoshlik yillari va ilm olishi to'g'risida so'zlaydi.
2. Insoniyatning ma'naviy kamolotga yetishuvida Rumiyning ijodi katta ahamiyatga ega ekanligini izohlaydi.
3. Jaloliddin Rumiy va Shams Tabriziyning munosabatlari haqida so'zlaydi.
4. «Masnaviyi ma'naviy» asari haqida fikr yuritadi.
5. Jaloliddin Rumiyning umumbashariy g'oyalarini tushuntiradi.

O'rta asr sharqining eng yirik allomalaridan Jaloliddin Rumiy Xurosonning Balx shahrida tug'ilgan bo'lib, asl ismi Muhammaddir. Uning otasi Bahouddin Valad o'z davrining yirik ulamolaridan biri edi. Muhammad Xorazmshoh bilan ixtilof tufayli zamonasining «Sultonul ulamo»si bo'lgan Bahouddin Valad o'z oilasini olib Balxdan chiqib ketadi. Yana bir ma'lumotlarga ko'ra B.Valad mo'g'ul istilosiga tufayli Balx taqdirini oldindan sezgani uchun, shaharni tashlab ketgani haqida fikrlar bor. Darhaqiqat, mo'g'ullar Balxni bosib olgach, to'rt yuzdan ortiq mashhur allomalarining boshi kesiladi.

Balxdan chiqqanlarida Jaloliddin 5 yoshda edi. Ularning oilasi Nishopurda, Bog'dodda, Makkada, Madinada, Damashqda, Xalabda, Oqshaharda yashaydilar. Bu mashhur shaharlarning qaysi biriga bormasin, Bahouddin Valad izzat-hurmat bilan kutib olinadi. Uni siyosat ahli ham, ilm ahli ham birdek e'zozlashadi. Oxirgi turk sultoni Qayqubod (1219-1236) ning taklifi bilan 1229 yilda Konya shahriga kelib o'rashadilar. Bu vaqtda Jaloliddin balog'atga yetgan yigit bo'lib, otasining muridlaridan, asli Samarqandlik bo'lган Sayid Burhoniddinning Gavhar ismli qiziga uylangan (1225) edi. Gavhar xotundan Jaloliddin ikki o'g'il ko'radi, kattasi Sulton Valad kelajakda shoir bo'lib yetishadi. Gavhar Xotun vafotidan so'ng, tul Kira Xotunga uylanadi. Bu oilasidan Muzaffariddin, Olim Chalabiy va Malika Xotun ismli farzandlarini ko'radi.

Rumiyning adabiy- falsafiy merosi nihoyatda boydir. «Masnaviyi ma'naviy» olti daftardan iborat bo'lib, 30 000 dan ortiq misrani o'z ichiga olgan. Bu asarni Jaloliddin Rumiy umrining so'nggi 10 yilida yaratgan. «Devoni Kabir» («Devoni shamsul haqoyiq», ya'ni «Haqiqat quyoshining kitobi» deb ham ataladi) 44 000 misradan iborat bo'lib, 2073 g'azal jamlangan. Ruboiy va to'rtliklari 4000 misradan ortiq. «Fihi mo fih» ya'ni «Nimaki undadir–undadir», (o'zbek tilida «Ichingdagi–ichingdadir») nomi bilan 1997-yil nashr qilingan. Bu asarlar asosan fors tilida bo'lib, ularning juda oz qismini shoirning o'zi yozgan. Jaloliddin Rumiyning deyarli barcha adabiy merosi kotiblari tomonidan mualliflari og'zidan yozib olingen. Bu narsa ulug' mutafakkir merosini kamsitmaydi.

«Masnaviyi ma'naviy»da Jaloliddin Rumiy o'zining ta'limotini, dunyoqarashini bayon qilgan. Hadis va oyatlar xalq og'zaki ijodidan olingen masallar, naqlar va latifalar, ibratli hikoyalarga va voqealarga o'ralgan falsafiy fikrlar asarning mohiyatini tashkil etgan. Insonlarga tushunarliroq bo'lishi va tezroq yetib borishi uchun u o'z ta'limiy fikrlarini she'riyat tili bilan so'zladi. Rumiy mutafakkir shoir sifatida murakkab so'fiyona fikrlarni, ramz bilan ishora qilingan mulohazalarni oddiy hayotiy tafsilotlari bilan tushuntirib beradi. U tiyran va hushyor ko'z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo'lsa, shunday olib o'rganadi, inson qalbi to'ridagi eng nozik, eng inj, eng yashirin sirlarni oshkor

etadi, ruhimiz iqlimlaridagi o'zimiz sezmagan qonuniyatlar, zaruriyatlarni ko'rsatib beradi (N. Komilov).

«Masnaviy»da insoning butunligi, ulug'ligi, musaffoligi ham nuqsonlar-xudbinlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar ham tahlil etiladi, bu illatlardan, nuqsonlardan qutulish, poklanish fazilatlari bayon qilinadi.

Jaloliddin Rumi y uchun insonlar dinidan, irqidan, millatidan qat'iy nazar birdir. Muhimi, u inson bo'lganligi uchun qadrlidir.

«Masnaviy» asaridagi har bir rivoyatda birop bir ibratli voqeа hikoya qilinadi va bu rivoyatlar o'quvchining ongiga ta'sir qiladigan, uzoq vaqtlar saqlanib qoladigan xususiyatlarga ega. «Podsho va kanizak haqidagi rivoyat», «Baqqol va uning to'tisi haqidagi rivoyat», «Xalifa va Layli haqida hikoyat», «Uch yo'lovchi haqida hikoya», «Eshak va darvishlar haqida rivoyat»lar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy» asarida Qur'oni Karim oyatlarining 70 foizi mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan. 270 dan ortiq hikoyani, yuzlab pand-u nasihatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu kitob o'z vaqtida va keyinchalik ham yozuvchi nomini dunyoga keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Chunki Rumi masnaviyda o'zigacha bo'lgan sharq-u g'arb donishmandlarining falsafiy qarashlarini islomiy fazilatlarini sodda bir uslubda she'riy yo'l bilan badiiy ifodalagan.

Rumiy qissa va hikoyalarida payg'ambarlar hayoti turli mo'jizalar keltirib islomiy tasavvuf g'oyalarini targ'ib etgan bo'lsa, boshqa turkum hikoyalarida bevosita insonning kundalik turmushi, ilm, ma'rifat kasb etishi, hunar o'rganishi yo'lidagi riyozatlarni badiiy tasvirlab chuqur falsafiy xulosa chiqarishga undagan. Asar 6 jilddan iborat. Asarning dastlabki qismlarini adibning shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustozи og'zidan yozib olgan. Rumiy keltirgan quyidagi masal shu o'rinda ibratlidir: «Bir tulki she'rdan qutulish uchun unga qarab: «O'rmonda sendan ham zo'r jonivor paydo bo'libdi, u seni yemoqchi»,- debdi. She'rnинг qahri kelib: «Qani o'sha maxluq»,- deb so'rabdi. Tulki she'rni quduq oldiga olib borib: «Suvga qaragin, ko'rasan» debdi. She'r suvga qaragan ekan, o'z aksini ko'ribdi va hali

senmi meni yeydigan, deya o'zini quduqqa tashlabdi va halok bo'libdi. » Rumiyning xulosasi: Suratparastlik, hovliqmalik va manmanlik taqlidchilikni yuzaga keltiradi. Oxir –oqibat insonni halokatga olib boradi.

«Ichindagi ichindadur» asari ham o'zbek o'quvchilarining ma'naviy mulkiga aylangan. Rumiyning «Ichindagi ichindadur» asarida ibratli hikoyalar keltiriladi: «Bir kuni bir yig'inda va'z o'qiladi. Musulmon-u kofir-hamma yig'lar, turli ahvolga tushardilar. Birov: «Kofirlar nega yig'lashadi, ustiga ustak tilni bilishmaydi. Musulmonlarning ham mingdan biri arang tushungan va'zdan nimani anglayaptiki, bu qadar yig'lab siqtashadi», -deb so'radi. Mavlono buyurdiki: so'zning o'zini tushunishga hojat yo'q. Ular mohiyatni madsadni anglashmoqda. Ular ham Allohning birligini e'tirof etishadi. Uni yaratuvchi, razzoq, hamma narsani o'z tasarrufida tutuvchi ekanini, nihoyat hamma unga qaytajagini, avfu jazo undan bo'lajagini anglashadi».

Jaloliddin Rumiy ijodida tasavvuf ruhida yozilgan masnaviyalar katta qismni tashkil etadi. Bular fors tilida yozilgan bo'lsa-da, turk tasavvuf adabiyotining shakllanishiga asos bo'ldi. Shoirning turk tilida yozilgan turli mavzudagi she'rlari ham anchaginadir. Jaloliddin Rumiy boshlab bergen an'analarni uning o'g'li Sulton Valad davom ettirdi. 1301- yilda uning turk tilida yozgan birinchi she'rlar to'plami chop etildi.

Tasavvufda asosiysi inson ko'nglidir, kishilar turli tillarda so'zlashadigan xalqlarga bo'linishidan qat'iy nazar ular bir-birini tushunishi, anglashi kerak. «Masnaviy»ning bosh g'oyasi «so'fiy tilni», ya'ni «tilsiz tilni» bilishga undashdir. Jaloliddin Rumiy mana shunday umumbashariy g'oyalarni targ'ib qilib yozadi:

Insonni ulug'lash sharq she'riyatida hamisha birinchi rejada bo'lган. Bu g'oya J.Rumiy she'riyatida ham, falsafiy asarlarida ham, va'zlarida ham birdek o'z ifodasini topgan.

J. Rumiy davrining buyuk notig'i ham edi. Uning va'zlarini eshitish uchun juda uzoqlardan muxlislari kelishar va bu va'zlardan olam- olam ma'no, zavq olib qaytishar edi. J. Rumiy nutqlarini eshitish uchun Tabrizdan Muhammad Shams Tabriziy degan bir darvesh keladi. 1244-yil 29-noyabrida davrining ikki ulug'

insoni uchrashadilar. Hozir ham Turkiyada J.Rumiya va Shams Tabriziy uchrashgan joy «ikki nahr uchrashgan» joy sifatida ziyorat qilinadi. Shams Tabriziy bilan suhbatlar Rumiya yanada ilhom beradi. Bu ikki do'st soatlab suhbatlashar, zohiriy va botiniy belgilar haqida bir-birining fikrlarini to'ldirardi. Ular umrining oxirigacha dili bir do'st bo'lib qoldilar. Rumiya bir umr ezgulikni, poklikni targ'ib qildi va o'zi komillikning namunasi bo'ldi. Mana hazratning shu ruhdagi ruboisi:

*Yaxshilik qil, zamon yaxshilik olsin,
Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.
Mol- dunyo barchadin, sendan ham qolur,
Yaxshi mol emas, yaxshilik qolsin.*

Asarlari fikrlashga, inson o'zligini tanishga boshlovchi J. Rumiy umr bo'yli odamlar ongini ruhoniy belgilar bilan charog'on etdi. U tushunchalarni she'riyat, musiqa orqali anglashga o'rgatdi. Rumiy ijodi o'zidan keyingi avlodlarga bir maktab bo'ldi. Ma'naviyatning yuksak cho'qqilarini egallashga chorladi. Sharqning Rumiyan so'ng yashab o'tgan deyarli barcha shoirlari uni o'ziga ustoz deb bildilar. Abdurahmon Jomiy «Masnaviyi ma'naviy»ni benazir kitob, forsiydag'i qur'on deb ulug'lasa, hazrat Alishe'r Navoiy o'zining «Nasoyim ul- muhabbat» asarida Rumiyni yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladi.

Mashhur sharqshunos Bertel's «Jalolidin lirikasi bu sohada bashariyat erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u g'arbda kengroq ma'lum bo'lganida, uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi gigantlari qatoriga o'tishi shubhasiz edi» -deb Rumiy ijodini juda yuksak baholagan edi. J.Rumiya ijodi bugungi kunda ham insonni ma'naviy kamolotga yetishuvida xizmat qilmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Har bir inson «Toji odam» bo'lishiga intilishi darkorligini so'zda ham isbot qilgan turk shoirini belgilang.

- A. Jaloliddin Rumiyni
- B. Yunus Emroni
- S. Sulton Valad

D. Ahmad Posho

2. Mushhur mutasavvuf olim Muhiddin Arabiy kimni havas bilan «Olloh, olloh bir daryo orqasidan ummon ketayotir» degan edi?

- A. Jaloliddin Rumiyni
- B. Ahmad Yassaviyni
- C. Yunus Emroni
- D. Mahtumqulini



«Fikriy hujum» metodidan foydalanib mavzuni mustahkamlash

Sharqning Rumiydan so'ng yashab o'tgan deyarli barcha buyuk shoirlari nima uchun uni o'ziga ustoz deb bilganlarini izohlang.	Olimlarning fikricha, u tiyran va hushyor ko'z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo'lsa, shunday olib o'rghanadi, inson qalbi to'ridagi eng nozik, eng injo, eng yashirin sirlarni oshkor etadi, ruhimiz iqlimlaridagi o'zimiz sezmagan qonuniyatlar, zaruriyatlarni ko'rsatib beradi.
Rumiy o'zining «Masnaviy ma'naviy»sida qanday ta'limotni bayon qilgan?	«Masnaviy»da insoning butunligi, ulug'ligi, musaffoligi ham nuqsonlar-xudbinlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar ham tahlil etiladi, bu illatlardan, nuqsonlardan qutulish, poklanish fazilatlari bayon qilinadi.
«Masnaviyi ma'naviy» xalq orasida qanday baholangan?	«Masnaviy»ning bosh g'oyasi «so'fiy tilni», ya'ni «tilsiz tilni» bilishga undashdir.
Turk tasavvuf adabiyotining shakllanishida Rumiyning o'rni qanday?	Jaloliddin Rumiy ijodida tasavvuf ruhida yozilgan masnaviyalar katta qismni tashkil etadi. Bular fors tilida yozilgan bo'lsa-da, turk tasavvuf adabiyotining shakllanishiga asos bo'ldi.

Mustaqil bajarish uchun (TMI) vazifa:

Rumiyning « Ichindagi ichindadur » asarini tahlil etish. Asarda uchraydigan notanish so'zlarni, izohli lug'atini tuzish va yodlash.



Mavzu: Yunus Emro

Reja:

1. Yunus Emro she'riyatida so'fiyona g'oya, so'fiyona obrazlar.
2. «Risolat-al – Nus'hiya» dostoni haqida.

Mavzuning tayanch tushunchalari: So'fiy, komil inson, tekke, bektoshiylik, go'yanda, ilohiy, tasavvuf.

article - maqola

story – hikoya, voqeа

lesson – dars

tell – gapirib bermoq

Dars maqsadi: Emroning adabiy merosi didaktik dostonning ajoyib namunasi bo'lgan «Risolat al- Nus'hiya» dostoni, uning she'riyatidagi so'fiyona g'oya, so'fiyona obraz va ramzlar haqida talabalarda tasavvur hosil qildirish.

Identiv o'quv maqsadalari:

1. Yunus Emro turk adabiyoti tarixida «Oshiqlar she'riyati» deb nom olgan yo'naliшning asoschisi ekanligini isbotlaydi.
2. Emro ijodining asosiy mavzusi, turk adabiyotida tutgan o'rni, Turk adabiyotshunoslarining shoir ijodi ustida ilmiy izlanishlar olib borganliklari haqida fikr yuritadi.
3. Emroning «Risolat-al-Nus'hiya» dostonini tahlil qiladi.

Yunus Emro 1250-yilda eski shahardan uncha uzoq bo'lмаган, Porsuq daryosining Sakaryaga quyilishi qismida joylashgan Sariko'y qishlog'ida dunyoga keldi. Emro uning taxallusi bo'lib, tasavvuf suluklaridan biri «Tekke» sulukiga mansubligini bildiradi. Yu.Emro xalq orasida mashhur shoir bo'lsa-da, o'rta asr tazkiralarida u haqida juda kam ma'lumot uchraydi. Uning tavalludi va vafoti sanalari ham nisbiydir. Turk tasavvuf adabiyotining eng dong'i ketgan vakillaridan bo'lib, Ahmad Yassaviy izdoshlaridan biri sanaladi.

Ammo xalq orasida shoirning hayot va ijodiga oid ko'plab rivoyatlar mavjud. Garchand bu rivoyatlar Emro mashhurligidan, keng ommaning unga muhabbatidan dalolat bersa-da, ayni paytda shoir hayoti haqida aniq haqiqatni bilishni mushkullashtiradi. Masalan, Turkiyada Bursa, Sivas, Sariko'y va boshqa o'n beshga yaqin joyda Yu. Emro qabrini ko'rsatadilar. Yu.Emro qabri, shoirning piri bo'l mish Tabduq Emroga murid bo'lganligi va uning eshidiga qirq (ayrim ma'lumotlarga qaraganda) o'ttiz yil xizmat qilganligi, Yu.Emro ustoz fotihasini olib shoir bo'lganligi haqida shunday rivoyat bor: ocharchilik boshlanib, Yunusning oilasi qiynalib qoladi. Shunda Yunus chora izlab shayx Xoji Bektoshiy huzuriga keladi. Biroq nima maqsadda kelganini aytolmay turganida, Xoji Bektosh «Duo istab keldingmi?» -deb so'raydi. Yunus bug'doy so'rabb kelganligini aytadi. Xoji Yunusga so'raganidan ortiq bug'doy beradi. Uyiga qaytayotib Yunus o'zining xato qilganini sezadi, duo emas bug'doy so'raganidan pushaymon bo'ladi va orqaga qaytib Xoji Bektoshiydan duo so'rabb kelganini aytadi. Xoji Bektosh Yunusni Tabduq Emroga yuboradi. Yunus butun qalbi bilan Tabduq Emroga murid bo'lib, uning uyida o'tin tashib xizmat qiladi. Kunlardan bir kun o'tin tashib keltirgan Yunusga Tabduq: «Yunus, sen biror marta ham egri o'tin olib kelmading» -dedi. Shunda Yunus: «Bu dargohga egri bo'lgan hech narsa kirolmas», -deb javob beradiki, bu Yunusning piriga e'tiqodi yuksakligidan dalolatdir.

Oradan qirq yil o'tadi. Tabduq Emro dargohida tez-tez fozillar majlisi bo'lib turar, bu majlisda Yunus Go'yandi ismli ovozi shirali kishi ham qatnashardi. Tabduq Emro: «Yunus Go'yandi kuyla» deb buyuradi. Go'yandi jim. «Qo'shiq aytgin, Yunus, bizlar seni eshitmoq istaymiz», -deb takrorlaydi Tabduq. Yunus Go'yandi yana jim, shunda Tabduq Yunus Emroga: «Tangrining inoyati ila senga murojaat qilish vaqtি yetdi, biz bu xazinaning qulfini ochurmiz, sen kuyla», -deydi. Shunda Yunus Emro qirg'oqlardan toshmoqchi bo'lgan daryodek toshib, jo'shib kuylaydi va keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib ketadi¹.

¹ Alimbekov Adhambek. Turk adabiyoti tarixi. –T.: 2005. 39-b.

Rivoyatlarga ko'ra, Yu.Emroning 3000 dan ortiq she'rlari meros qolgan. Shundan mingga yaqini bizgacha yetib kelgan. (Mingtasini osmonda farishtalar o'qiydi, mingtasini suvda baliqlar o'qiydi, mingtasini esa yerda odamlar o'qiydi, degan rivoyat ham bor).

Taniqli olim Ibrohim Haqqulov shoir Yunus Emro haqida shunday deydi:

«Yunus Emro – Sir va Hayolot, Ishq va Ilohiyat shoiri. Ijodiyotining ziyosi va shukuhi ilohiy Ruh. Uning so'z hamda tasvirlari zoti mutloq madhiga yo'naltirilgan».

Haqiqatan ham, shoir she'rlarining aksariyat qismi Olloh va inson o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritiladi. Sabr-qanoatli bo'lism, nafsni jilovlash kabilar Yunus Emro ijodining yetakchi g'oyalaridir. Shoir tasavvufning to'rt bosqichiga alohida –alohida she'rlar bag'ishlagan. 1986-yil prof. F. Temurtosh nashr etgan Yu. Emro devonida, shoirning 325 dan ortiq g'azallari, she'rlari berilgan. Uning she'riyatida so'fiyona g'oyanigina emas, so'fiyona obraz va ramzlarni ko'ramiz. Tasavvuf shoirlar ijodida ma'shuqa, do'st deb xudoni nazarda tutganlar, shamga o'zini urayotgan ilohga intilish may ichib mast bo'lism, ilohiy zavq, jazava yor bilan visol iloh birlashib ketish kabi. «So'fiyona she'riyat qonunlariga xudo to'g'risida faqat allegorik tarzda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun uni makkora ma'shuqa deb ataganlarki, telbalarcha sevib qolgan darveshning qalbi unga intiladi. Tasavvuf she'riyatida lirik muhabbat she'riyatining obrazli tilidan ustalik bilan foydalanilgan»². Emro she'rlarida real dunyoviy obrazlar tagida ilohga intilish yotadi:

*Yo 'ldosh bo 'laylik ikkimiz,
Kel, do 'stga boraylik ko 'ngil
Holdosh bo 'laylik ikkimiz,
Kel, do 'stga boraylik ko 'ngil.*

Shoir adabiy merosi ancha boy bo'lib, uning xalq yo'lida yozilgan she'rlari, g'azallari, «Risolat-al-Nus'hiya» nomli didaktik ruhdagi dostoni bizgacha yetib kelgan. Shoirning falsafiy qarashlari didaktik ruhdagi «Risolat-al-Nus'hiya»

² Garbuzova A.V. Turk adabiyoti klassiklari. –T.:1960. 22-b.

(risola, kichik kitobcha, nusxa (nasihat), aqldir. «Nasihatlar risolasi» deyish mumkin) dostonida yana ham ravshanroq aks etgan. «Risolat-al-Nus’hiya» dostoni 1307-yili yaratilgan bo’lib, 600 baytdan oshiqroqdir. Asarning kirish qismi nazm va nasrda yozilgan. Doston o’z navbatida yana olti qismga bo’linib, har bir qism alohida nomlangan. Allegorik ruhdagi «Risolat-al-Nus’hiya» ichidagi har bir doston mustaqil syujetli va fikran tugallangandir. Bular quyidagicha nomlangan:

«*Ruh va aql*» dostoni;

«*Qanoat*» dostoni;

«*Nafrat*» dostoni;

«*Sabr ahvoli*»;

«*Nokaslik hollari*»;

«*Aql*» dostoni.

Shoir hayotligida devon tuzganligi haqida turk adabiyotshunoslari turlicha fikr bildiradilar. Abulboqi Gulpinarli devon tuzgan desa, boshqa mashhur turk adabiyotshunosi M.Fuad Ko’prulu shoir devoni uning vafotidan so’ng izdoshlari tomonidan tuzilganligini aytadi. Ammo Yu. Emro she’rlarida shunday satrlarni uchratamiz:

Yunus o’lsa ismim ne ajab

O’qiyurlar mening bir devonimni.

Bundan ko’rinadiki, A. Gulpinarli fikrlari haqiqatga yaqinroq.

Shoir ba’zi she’rlarida xalqqa murojaat qilib, «tavbaga kel, tavbaga» deb xitob qiladi. Qalandarlik, darveshlik tariqatini ulug’lab, bu tariqatdagi kishilarni xudo oldida gunohlardan forig’ bandalar deb ta’kidlaydi. O’zlikdan kechish, o’zni tamoman unutish, ishq yo’lida jismni butunlay qurbon qilish shoir lirik qahramonining asosiy fazilatidir. Shuning uchun «Ishqing oldi mandin mani» kabi misralar bitadi. Butun olamni, tabiatdagi barcha narsalarni allohning mahsuli deb tushunadi.

«Risolat-al-Nus’hiya»da Yunus Emro qarashlari yanada yorqinroq aks etgan. Dostonda shoirning dunyonidagi idrok qilishi, borliqni bilishda Aql va e’tiqod asosiy qurolligi ko’rsatilgan. Unga muvofiq inson atrofidagi aniq moddiy borliqni

bilishdan boshlab, moddiy borliqdan tashqari bo'lgan «mutloq aql» haqiqatni bilishgacha bo'lgan yo'lni o'z aql idroki, qalb shuuri bilan bosib o'tishi kerak. Asarning kirish qismida shoir to'rt unsur: yer, olov, suv, shamol (havo) haqida so'z yuritadi. Inson ham dunyoning bir bo'lagi sifatida shu to'rt unsurdan yaratilgan. Odamdag'i yaxshi yomon xususiyatlarining asosi ham inson xarakteri-sajiyasidagi qarama-qarshiliklar ham mana shu unsurlardandir. Yu.Emro nazdida insonda, umuman, hayotda yaxshilik urug'i ko'proq, shuning uchun oxir oqibatda yaxshilik yengib chiqadi. Majoziy bu asarda voqealar «Aql» deb nomlangan shaharda kechadi. Shahardagi kurash, insondagi ziddiyatlarning – kibr va kamtaralik, xasislik va saxiylik, ochko'zlik va qanoat, yolg'on va haqiqat o'rtasidagi kurashidir. Insondagi «Rahmoniy va shaytoniy kuchlarning kurashidir, bu. Nafs, ochko'zlik balosini shunday ta'riflaydi shoir.

Bu nafs o'g'lonlari to'qqiz kishidir,

Nifoq va shirk keltirmoq alar ishidir.

Inson o'zidagi illatlardan-ochko'zlik, xasislik, xudbinlik, manmanliklardan qutulishi lozim. Zero, insonning imkoniyatlari cheksiz, ruhiy kamoloti benihoya yuksakdir», -deydi shoir. Inson qudratiga ishonch agar u xohlasa, har qanday to'siqlarni yengga olishini ko'rsatish dostoniga insonparvarlik ruhini bag'ishlaydi. Zotan, odam qalb qusurlaridan o'zi qutulmasa, o'zligidan qochib, hech qayerga borolmaydi. Didaktik dostonning ajoyib namunasi bo'lgan «Risolat-al-Nus'hiya» Yunus Emroning inson ruhiy qudratiga ishonchi, hurfikr shoirning haqiqatga yetishishi yo'lida hech qanday mashaqqatlardan qaytmasligining nazmiy in'ikosidir.

Emro hayot va o'lim haqida fikr yuritib, inson ruhining abadiy ekanligini ta'kidlaydi. U inson o'limini xursandchilik bilan kutib olish kerak, chunki u boqiy dunyoga, haqning visoliga qadam qo'yadi, degan fikrlarni aytadi. Lekin haqqa yetish uchun inson ko'p zahmat chekish kerak ekanligini uqtiradi. Shuning uchun u ko'pgina she'rlarida nafs balosini yengib o'tish uchun insonga katta iroda kerak ekanligi haqida gapiradi. Bu yo'lida inson, ya'ni oshiq turli holatlarga tushishi mumkin.

*Goh esaman yellar kabi,
Goh shoshaman yo'llar kabi.
Goh toshaman sellar kabi,
Kel, ko'r meni ishq nayladi!
Men Yunusi bechoraman
Boshdan- oyog'a yaraman
Yor yo'lida ovoraman
Kel, ko'r meni ishq nayladi!*

deganida o'zini tabiat hodisalari bilan singishib, birlashib ketganini ta'kidlaydi. Oshiqning (shoirning) ma'shuqa (xudoga) ishqisi, ilohga yetishuvga intilishi tasavvuf shoirlari ijodida ko'p uchraydi. O'zidan keyin yashagan va turkiy tilda ijod qilgan deyarli barcha mutasavvuf shoirlarga ta'siri kuchli bo'lgan.

Hayot va o'lim, mutloq borliq, ilohiy ishq, tabiat bilan uzviylik Emro ijodining asosiy mavzuidir. Shoir o'z fikrlarini ifodalashda tarixiy va afsonaviy shaxslar, folklordagi obrazlardan ham ko'proq real hayotdagi, tabiatdagi narsalardan foydalanadi. Masalan, shoir oddiy daraxt umrini insonga qiyoslaydi. Niholning o'sib ulkan daraxt bo'lishi, gullashi, bir qancha gurkirab –yashnashi va oxiri qurib, halok bo'lishida insonning hayot falsafasini ko'ramiz. Fasllar – kuz va undan so'ng bahor kelishi uzoq hijronda bo'lgan oshiqning yor visoliga yetishi sifatida namoyon bo'ladi, kishi ko'nglidagi bahor, uning yorini ko'rib, dilga nur yugurgani, qalbidagi chechaklari ochilgani va h.zo. Emro so'fiy shoir sifatida inson va tabiatni doimo uyg'unlikda ko'radi. Jonli, jonsiz tabiat ilohiylikning turlicha ko'rinishlaridir xolos. Emro she'rlarida uchraydigan bulbul, qarg'a, bulut, daraxt va boshqa ko'pgina timsollar shoирга haqiqatni aytishga xizmat qiladi.

«Kul – il – haq»- to'g'ri so'zni aytish Yunus Emro shioridir. Emro haqiqatni ulkan dengizga, yolg'ONNI shu dengizda g'arq bo'lgan kemaga qiyoslaydi. Bashariyatning ilg'or farzandlari inson erki, haqiqat uchun qaysidir shaklda kurashganlar. Yunus Emro «xudo» inson qalbida, «iloh»ni topmasa, boshqa hech qayerda topmasligini aytib, insonni ilohiy darajada ulug'lar ekan, bundan «inson

hech qachon qul bo'lishi kerak emas», - degan mazmun chiqadi. Shoir lirikasidagi insoniy «may» ham botiniy, ham avvaliy, ham oxiriydir.

Yu.Emro turk she'riyati tarixida «oshiqlar she'riyati» deb nom olgan yo'nalishning asoschisidir. O'zbek kitobxonlari Yu.Emro she'rlarini Xurshid Davron, Azim Suyun, Jamol Kamol, Toxir Qahhor, Nafisa Sultonqulova tarjimasida biladilar. Shoir ijodi haqida mazkur asar muallifining «Ishq asiri bo'lgan jon» («O'zbekiston», 1996-yil) kitobchasi va bir qancha ilmiy maqolalari matbuotda e'lon qilingan.

Tasavvuf ruhi shoir she'rlarining jon-joniga singib ketgan. U insonni ulug'lashni eng muqaddas va oliy vazifa deb tushundi.

Xullas, shoir she'riyati asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda katta xizmat qilib kelmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Emro ijodining asosiy mavzusi, turk adabiyotida tutgan o'rni qanday?
2. «Risolat-al-Nus'hiya»da Yunus Emro qarashlari qanday aks etgan?
3. Shoir lirikasidagi insoniy «may» haqida munosabat bildiring?
4. XV asr oxirida yaratilgan «Viloyatnoma»da Emro haqida qanday ma'lumotlar berilgan?
5. Yunus Emroning ustoz fotihasini olib shoir bo'lganligi haqida qanday rivoyatlarini bilasiz?
6. Yunus Emroning badiiy mahorati, falsafiy qarashlari, o'sha davr she'riyatining saviyasi va turk tili haqida fikr yuritishga asos berishini izohlang.
7. Emro she'riyatidagi obrazlar haqida fikringiz qanday?
8. Tekke she'riyati haqida nima bilasiz?

9. «Oshiqlar she'riyati» deb nom olgan yo'nalishnig asoschisi kim?

- A. Yunus Emro
- B. Mahtumquli
- C. Fuzuliy
- D. Jaloliddin Rumiy

10. Goh esaman yellar kabi,

Goh shoshaman yo'llar kabi.

Goh toshaman sellar kabi,

Kel, ko'r meni ishq nayladi!

Deb boshlanuvchi misralar kimning qalamiga mansub?

A. Mahtumquli

B. Yunus Emro

C. Fuzuliy

D. Jaloliddin Rumiy

11. Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur, Ayriliqlardan shikoyatlar qilur misralari bilan boshlanadigan she'r kimning qalamiga mansub?

A. Ahmad Yassaviy

B. Yunus Emro

C. Fuzuliy


D. Jaloliddin Rumiy




Mustaqil (TMI)bajarish uchun vazifa:

«Qanday?» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va «Qanday» savoli orqali muammo hal qilinadi.





Mavzu: Aziz Nesin

Reja:

1. Aziz Nesin hayoti va ijod yo'li.
2. Adibning hajviy hikoyalari.
3. Yozuvchining roman va dramalari.

Mavzuning tayanch tushunchalari: Satira, humor, «Marko posho», «Musht ketdi», «Hushtak afandi», «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» asarlari, «Xotin kishi bo'lganimda», «Keyin xursand bo'lasiz», «Ming marta shukur» kabi hajviyalari, «Dahshatli tush», «Biz u yerga bormaymiz!», «Nazokatu Nafosat», «Orkestr odam», «Alifbening birinchi harfi» kabi hikoyalari.

Useful – foydali

Time – vaqt

Right – haq, to‘g‘ri

Do homework – uy vazifasini qilmoq

Dars maqsadi: Aziz Nesinning tarjimai holi, ijtimoiy - siyosiy faoliyati to‘g‘risida ma'lumot berish, she'rlari hamda asarlarini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadalari:

1. Aziz Nesinning tarjimai holini so'zlab beradi.
2. She'riyatini tahlil qiladi.
3. Yozuvchi romanlari haqida umumiylar ma'lumot beradi.
4. Uning hikoya janridagi ijodiga baho beradi.

Turk adabiyotiga, ayniqsa, uning hajviyasining yuksalishiga katta hissa qo'shgan, XX turk adabiyotidagina emas, jahon adabiyotidagi eng mashhur yozuvchisi, dramaturgi Aziz Nesindir. Aziz Nesinning asl ismi Mehmet Nusrat bo'lib, Aziz Nesin uning taxallusi.

Aziz Nesin 1915-yil Istanbul yaqinidagi qishloqda tug'ilgan. Otasi kambag'al dehqon bo'lgani uchun, unga yaxshi bilim beradigan maktablarda o'qita olmadi. U harbiy mакtabga kirib, ofitser bo'lib yetishadi. Lekin bu soha uni qiziqtirmas edi. Bir oz harbiy xizmatda bo'lgach, iste'foga chiqib, jurnalistika bilan shug'ullana boshlaydi. U «Marko posho» (1946) taraqqiyat parvar hajviy gazeta va boshqa matbuot organlarida ishlagan.

1944-1945- yillari «Yetti kun», «Qora ko'z», «Tong» gazetalarida ishlaydi. «Vatan», «Oqshom» kabi gazeta tahririyatlarida ham faoliyat yuritadi. O'zi ham mustaqil nashrlar qiladi.

Aziz Nesin asarlarida jamiyatdagi ishsizlik, diniy ekstremizm singari illatlar qattiq tanqid qilindi.

Ma'lumki, Aziz Nesin faqat Sharq adabiyotida emas, balki butun dunyo adabiyotidagi noyob iste'dod egalaridan biridir. Uning asarlari juda ko'p chet tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga ham yozuvchining «Musht ketdi», «Hushtak afandi», «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» kabi kitoblari va bir qancha hikoyalari tarjima qilingan.

U adabiyotga havas qo'ydi, dastlab she'rlar yoza boshladi, to'rtta she'riy kitob e'lon qilgan. Ilk she'rlari 1944- yilda «Millat» jurnalida nashr etilgan.

Keyinroq feleton va turli mavzularda hikoyalari bilan gazetalarga chiqib turdi. Lekin bu nashrda amaldorlar tanqid qilingani uchun hukumat tomonidan katta jarima solinib, yopib qo'yildi.

Aziz Nesin, ayniqsa, hajviy hikoyalari bilan katta shuhrat qozondi. Yozuvchining «Demokratiya shunqori» hajviy hikoyasida bevosita turk davlat tuzumi qattiq tanqid qilingan. Asarda bir yosh muxbir turli yolg'onlarni yozdi. Eshak qo'zi tug'di, ayollar qurbaqa tug'di, osmondan baliq yog'di kabi xabarlar bilan dong taratdi. Lekin bir kuni u xalq dardini, ya'ni rost gapni yozgani uchun qamaladi. 1947-yillarda 10 oyga qamaladi. Ozodlikka chiqqach, «Boshdan», «Yana boshdan» jurnallarini nashr etadi. 1951-yilda yana hibsga olinadi. 16 oy qamalib chiqqan A. Nesin noshirlik ishini tashlamaydi.

«Shunday bo'ldi, bunday bo'lmaydi» avtobiografik qissasi, «Aziznomá» hajviy she'rlar va «Mamlakatlardan birida» hajviy hikoyalar to'plamlari mavjud. U «Nuh kemasi» (1949) hajviy jurnalini nashr etgan. «Jinnilar ozod bo'ldi», «Ishbilarmon odam», «Nozik va nafis», «Xudoga shukur» va boshqa asarlari siyosiy o'tkir va dolzARB. Ularda yozuvchi jamiyat illatlarini fosh qiladi, kulgili vaziyat, xususiyat va holatlar orqali kishilarni beixtiyor o'z nuqsonlaridan kulishga majbur etadi.

«Dahshatli tush» hikoyasida yozuvchi tushida xorijdagi bir anjumanga tushib qoladi. Undan mamlakat haqida so'raydi. U haqiqatni aytgisi keladi, ammo qo'rqaDI. Keyin u qip-qizil yolg'ONNI gapiradi. Soxta, sun'iy gaplar bilan yurtini to'q, obod, erkin qilib ko'rsatadi. Chunki bu jamiyatda haqiqatni aystsangiz, sizni jinoyatchi sifatida qamaydi. Yaxshisi yolg'onchi bo'lisch kerak, yolg'on uchun jazo yo'q. Yaxshi yolg'on gapirsang, mukofot ham beradi-deydi.

Adib «Yangi gazeta», (1957), «Oqshom» (1958), «Ovoz» (1960) gazetalarida turli taxalluslar bilan tez-tez hajviy asarlar yozib turdi. U yozuvchi sifatida juda sermahsul edi. U juda ko'plab hajviy hikoyalar, romanlar, sahnabop asarlar yozdi. Uning hajviy asarlari dunyo bo'ylab dovruq qozondi. Bunga yozuvchidagi tabiiy, tug'ma hajviyotchilik, yuksak badiiy mahorat bilan yozish asos bo'lgan. «Men dastlab hajvchi yozuvchi bo'laman, deb sirayam o'ylamaganman-deb yozgandi Aziz Nesin. Shaxsiyatim va tabiatimning ta'siri bo'lsa kerak, yozgan narsalarimda o'z-o'zidan hajvgaga moyillik sezila boshladi. Keyinchalik esa hajviyotni o'zim ongli ravishda tanladim. Bildimki, adabiyot turlaridan eng ta'sirchani eng ommabopi hajviyot ekan. Shu tariqa hajviyot men uchun keng kitobxonlar doirasi, turli sinf vakillari bilan, xalq bilan muloqatda bo'lischening bir vositasi bo'lib xizmat qilmoqda» (O'zAK . 1988. 5 11).

Aziz Nesin yozuvchi sifatida o'z uslubiga ega. U asarlarida kuchli vaziyatni to'laroq tasvirlash, asardagi kishilarning jonli obrazini yaratish uchun turli iboralar, o'xshatishlar, qiyoslar, kinoya va jonli xalq tilidan ustalik bilan foydalanadi. «Xotin kishi bo'lGANIMDA-yu», «Keyin xursand bo'lasiz», «Ming marta shukur» kabi hajviyalari ham katta mahorat bilan yozilgan.

«Dahshatli tush», «Biz u yerga bormaymiz!», «Nazokat-u Nafosat», «Orkestr odam», «Sharmandiy qachon tug'ilgan», «Alifbening birinchi harfi» kabi hikoyalari bunga yaxshi misol bo'la oladi. Aziz Nesin asar mazmunidan, tasvirlayotgan voqealaridan kelib chiqib, hikoyalarda turlicha uslub qo'llaydi. Yozuvchining ayrim hikoyalari diolog asosiga qurilgan bo'lsa, ayrimlari muallif tilidan, yana boshqasi birinchi shaxs «men»i orqali bayon qilinadi. Yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlariga mos uslubni topa oladi. Turkiyada nashr etiladigan «Nuqta» jurnali: «Yozuvchining asosiy sarmoyasi uning –aqli va talanti qalamidir» deb yozganida haq edi. Aziz Nesin tinimsiz izlanishlar, mashaqqatli ijobiy mehnat tufayli jahonshumul mashhurlikka erishdi. Uning ikki mingdan ortiq hikoya va novellalari nashr etildi. Yozuvchi hayotini yaxshi biladi, u har qanday voqealardan o'ziga kerakli detallarni topa oladi. Har bir so'z o'mnida ishlatsagina, hajviy asrning estetik o'rni ortadi. Odatda satirik hikoyalarda, hatto satirik romanlarda ham peyzaj-tabiat tasviriga uncha keng o'rin berilmaydi. Aziz Nesinning satirik romanlarida qisqagina peyzaj-tasvirlar ham asardagi voqealarni yorqinroq tasvirlashga xizmat qiladi. Buning uchun albatta yozuvchi hayotini, xalq tilini va a'analarini yaxshi bilish kerak. «Turk she'riyati va satirasi, haqiqatdan eng rivojlangan va betakror milliy adabiy janr va u joyni egallab turadi. Buning sababi shuki, bir-biridan ajralmay doim aloqada bo'lib kelgan bu janrlarimizning boy a'nanalarining birgalikda yonma-yon kelishidir» deb yozgandi Aziz Nesin. Yozuvchining satirik romanlarida ham syujetning qiziqarli tuzilganligi, asarda tasvirlangan xarakterli ichki dunyosini ochishda kulgili voqealar ustalik bilan tanlanganligi ko'rindi. «Futbol qiroli» (1957), «Zabuk» (1961), «G'aroyib bolalar» (1967) romanlarida fikrimizni isbotlovchi misollarni ko'plab uchratamiz. Yozuvchi bu asarlarida o'sha jamiyatdagi illatlarni tasvirlar ekan, insonlar xarakteridagi nuqsonlarni fosh etar ekan, maqsadi o'zi qalamga olgan kamchiliklarni yo'qotishdir. «G'aroyib bolalar» romani bosh qahramonlari o'quvchi bolalar Ahmad Tarabiy va Zaynab Yolqindir. Bu ikki do'stning bir-biriga yozgan xatlarida, ular boshdan kechirgan qiziq-qiziq voqealar orqali ayrim amaldorlarning savodsizligi, soxta vatanparvarligi ochib tashlanadi. Maktabga

kelib o'quvchilarga vatanparvarlik xususida ma'ruza o'qigan ziyoli jurnalist, amalda o'z so'zlariga mos ish qilmasligi o'quvchi bola nigohi orqali xarakterli detallarida ko'rsatiladi.

Aziz Nesining «Futbol qiroli» satirk romanı Turkiyada juda mashhur va ko'plab chet tillariga tarjima qilingan. Asarda bosh qahramon Sayid Mallazodaning kasalvand, nimjon o'spirindan – futbol qiroliga aylanishigacha bo'lgan voqealar juda qiziqarli tasvirlangan. Sevim, Ahmad Devor, Hosilbey kabi personajlarning o'ziga xosligi ham ularning o'z so'zlari xatti-harakatlari orqali shunday tasvirlanadiki, biror izohga hojat qolmaydi.

XX asrning mashhur satirk qalami ostida chiqqan asarlari o'zining mazmunan chuqurligi bilan ajralib turadi. Aziz Nesin badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanib, shirali, o'ziga xos tilda voqealarni bayon qilishi uning asarlarini yanada o'qishli qilgan. Yozuvchining «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» romanlari, ko'plab hajviy hikoyalari o'zbek tiliga nashr etilgan, o'zbek tilining ma'naviy mulkiga aylangan.

Yozuvchi adabiyot sohasida jahon miqyosida beriladigan ko'plab mukofotlarning sovrindori. Hajvchi yozuvchilar xalqaro tanlovlardida «Dafna chambari» olgan (1956, 1957). O'zbekistonda bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining Toshkent anjumanlari ishtirokchisi, Oltin Palma (Italiya), 1966-yilda Oltin Kirpi (Bolgariya), 1975-yilda Nilufar mukofotlarini olgan.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. A. Nesinni yozuvchi sifatida qaysi o'zbek yozuvchisiga qiyoslay olasiz?
2. A. Nesinning mashhur yozuvchi bo'lishiga qanday omillar sababchi bo'lган, deb bilasiz?
3. Yozuvchi asarlarining tili xususida so'zlang.
4. She'riyatidagi yetakchi g'oyalar nimadan iborat?
5. Uning hajviy asarlari nima uchun dunyo bo'y lab dovruq qozondi?
6. Yozuvchining Turkiyada juda mashhur va ko'plab chet tillariga tarjima qilingan asarlari xususida fikr bildiring.

7. A. Nesinning asarlari nima uchun siyosiy o'tkir va dolzarbligini izohlang.

8. Mazkur tarjimai hol turk adabiyotining qaysi vakili haqida?

«Men dastlab hajvchi -yozuvchi bo'laman, deb sirayam o'ylamaganman-deb yozgandi... Shaxsiyatim va tabiatimning ta'siri bo'lsa kerak, yozgan narsalarimda o'z-o'zidan hajvgaga moyillik sezila boshladidi. Keyinchalik esa hajviyotni o'zim ongli ravishda tanladim. Bildimki, adabiyot turlari eng ta'sirchani eng ommabopi hajviyot ekan. Shu tariqa hajviyot men uchun keng kitobxonlar doirasi, turli sinf vakillari bilan, xalq bilan muloqatda bo'lishning bir vositasi bo'lib xizmat qilmoqda» (O'ZAK . 1988. 5 11).

- A. Aziz Nesen
- B. Yunus Emro
- S. J.Rumi
- D. Rashod Nuri Guntkin

9. Asl ismi Mehmet Nusrat bo'lgan turk adibini belgilang.

- A. Yashar Kamol
- B. J.Rumi
- S. Rashod Nuri Guntkin
- D. Aziz Nesen

10. «Futbol qiroli» (1957) romani kimning qalamiga mansub?

- A. Yashar Kamol
- B. J.Rumi
- S. Rashod Nuri Guntkin
- D. Aziz Nesen

11. Sayid Mallazoda qaysi asar qahramoni?

- A. «Futbol quroli»
- B. «Choliquushi»
- S. «Tamg'a»
- D. «Sirli qo'l»

12. Oltin Palma (Italiya), Oltin Kirpi (Bolgariya), Nilufar mukofatlarini olgan turk adibini belgilang.

- A. Yashar Kamol
- B. J.Rumi
- S. Rashod Nuri Guntkin
- D. Aziz Nesen

II QISM

Mavzu: Ozarbayjon adabiyoti

Reja:

1. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi va Ozarbayjon mumtoz adabiyotining namunalari haqida.
2. Ozarbayjonda ma'rifatparvarlik harakati.
3. Keyingi yillar Ozarbayjon adabiyoti.

Mavzuning tayanch tushunchalari: Folklor asarlar, she'riyat, dramaturgiya, tarjimachilik, do'stona aloqalar.

Dars maqsadi: Ozarbayjon adabiyoti va turli adabiy janrlarda yaratilgan folklor asarlari, hamda XIX-XX asr Ozarbayjon ma'rifatparvarlari haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi va qadimiy yozma adabiyoti haqida so'zlaydi.
2. Ozarbayjon mumtoz adabiyot namoyandalari asarlari hamda ma'rifatparvarlik harakati haqida fikr bildiradi.
3. XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Ozarbayjon dramaturgiyasi haqida so'z yuritadi.

Ozarbayjon xalqi boy adabiyotga va madaniy tarixga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot shaklida yaratilgan eng qadimgi namunalarida odamiylik, haqiqat vaadolat uchun kurash, mehnatga muhabbat va qardosh xalqlarga hurmat singari oljanob tuyg'ular o'z ifodasini topgan.

Turli -tuman adabiy janrlarda yaratilgan xalq ishqiy -qahramonlik dostonlari, ertaklari va marosim qo'shiqlari, shuningdek, xalq latifalari va maqollaridan iborat folklor asarlari turli tarixiy davrlarda yaratilgan bo'lib, og'izdan-og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan. Bularidan eng mashhurlari «Qo'rquq ota» va «Ko'r o'g'li» eposlari «Oshiq g'arib», «Shoh Ismoil», «Asli va Karam» ishqiy dostonlari, Melik-Mamed va Kal Ahmad sarguzashlaridan hikoya qiluvchi kulgili ertaklar insoniy muhabbatni olqishlovchi to'rtliklar va bayotlardir.

«Qo'rqut ota» eposi taxminan VII-VIII asrlarda, hali ozarbayjon tilida yozma adabiyot uncha taraqqiy etmagan bir sharoitda, ona tilida ijod etilgan yirik badiiy asar sifatida katta ahamiyatga ega edi.

Xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish va o'rganish ishlari Ozarbayjonda VI asrlardan boshlangan.

Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi va qadimiy yozma adabiyoti bilan O'rta Osiyoda yashovchi o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz va qoraqalpoq xalqlarining adabiyoti o'rtasida bir-biriga o'xshash juda ko'p an'analar mavjud. Keyinchalik ozarbayjon mumtoz adabiyoti va o'zbek, tojik, turkman mumtoz adabiyoti yirik vakillari ijodida ham o'zaro aloqa va ta'sir turli-tuman shakllarda davom etib keldi.

Ozarbayjonda VII-VIII asrlarda arab tili, IX asrdan boshlab esa fors tili rasmiy davlat tili hisoblanganligi tufayli Ismoil Yassor (VII asr), Ahmad Tabriziy (X asr), Baxmanyor Ali Boquyi, Xatib Tabriziy (XV asr) kabi o'nlab ozarbayjon shoirlari o'z asarlarini arab va fors tillarida yozishga majbur bo'lganlar. Keyinchalik bu an'anani ozarbayjon shoirlaridan Xoqoniy-She'rvoni, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy va qisman, Mirzo Fatali Oxundovlar ham davom ettirganlar. Bu so'z san'atkori yaratgan asarlar, tabiiy ozarbayjon adabiyoti mahsulidir. Chunki turli tarixiy sharoitda yashab, qalam tebratgan bu shoirlar ijodida Ozarbayjondagi turli ijtimoiy tabaqalarning hayotini aks ettirish asosiy o'rinn tutgan edi.

XI-XII asrlarga kelib arab istilochilarini ta'sirining kun sayin susayishi natijasida Ozarbayjonda mustaqil mahalliy feodal davatlari yuzaga keldi. Bu feodal davatlarda o'ziga xos saroy adabiyoti shakllandi, qasida va g'azal janrlari ravnaq topdi.

Bu asarlarda qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarning tiklanishi, birmuncha tinch, osoyishta sharoitda savdo-sotiqning jonlanishi natijasida savdokarvon yo'llari ustida Ganja, Shuma, Shamaxa singari savdo-sanoat markazlari joylashgan shaharlar paydo bo'ldi. Bu shaharlarda bora-bora adabiy-madaniy hayot taraqqiy topdi.

Shu davrlarda mahalliy hukmdorlarning saroylari atrofida uyushgan shoirlardan mashhurlari «malik-ush-shuar» Abul Ula Ganjaviy, shoir va munajjim Falakiy-She'rvoniy, shoira Maxseti Ganjaviylar edilar. Bularidan shoira Maxseti o'zining ruboiyalarida ozarbayjon xotin-qizlarining qayg'u-alami va o'z asrining ijtimoiy tengsizliklari haqida yozib, Yaqin Sharqda shuhrat qozondi.

Ilk ozarbayjon yozuvchilaridan biri Gatran Tabriziy bo'lib, u Ganja va Tabriz hukmdorlarining saroy shoiri bo'lgan. Uning ko'plab qasidalari va «Qobusnom» asari bizgacha yetib kelgan.

XII asr Ozarbayjonning gullab yashnashi, shubhasiz, Nizomiy Ganjaviy nomi bilan bog'liqdir. Chunki Nizomiy Ganjaviy o'z lirkasi va «Xamsa»chilikka asos solgan besh dostonida sharq she'riyati erishgan yutuqlarga yakun yasadi va nazm taraqqiyotida uzoq asrlar salmoqli rol o'ynagan yangi an'anani boshlab berdi.

«Xamsa» ning birinchi dostoni «Mahzan ul-asror» o'z didaktikasi bilan, «Layli va Majnun», «Xusrav va Shirin» hamda «Haft paykar» sevgi haqidagi falsafasi bilan, «Iskandarnoma» esa shoir dunyoqarashiga xos ijtimoiy qarashlari bilan jahon adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi.

Farhod, Shirin, Layli va Majnun timsollari hozirgi kunda ham o'z badiiy yetukligi bilan kishini o'ziga maftun etadi.

Mo'g'ul istilochilarining bosqinchiligi mamlakat iqtisodiy hayotiga mislsiz ofat etkazganidek, milliy adabiyot va san'at taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bosqinchilar mahalliy xalqning madaniy yodgorliklarini nest-nobud qildilar. Qonli feodal urushlar natijasida ezilgan mehnatkash ommanning ahvoli yanada og'irlashdi. Adabiyotda umidsizlik kayfiyatini targ'ib etuv yuz tutdi.

Muhammad Fuzuliy ijodi Ozarbayjon she'riyatining yuqori cho'qqisi edi. Fuzuliy lirkasining asosiy motivi insonga shodlik va quvonch, tashvish va alam bag'ishlovchi pok muhabbatdir. Buyuk adibning ozarbayjon tilida yaratgan dostoni «Layli va Majnun»da o'z ustozlari Nizomiy va Navoiy ijodidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. «Bang va boda», «Sehat va Maraz» deb ataluvchi tamsiliy asarlarda esa shoir o'z zamonining muhim ijtimoiy – axloqiy masalalari

haqida fikr yuritadi. Ozarbayjon adabiy tilining shakllanishida ham Fuzuliyning xizmati g'oyat katta.

Oshug'lik she'riyatining keng quloch yoyib, taraqqiy etishi bilan folkloarning mumtoz adabiytg'a ta'siri kuchaydi. Mumtoz she'riyat og'zaki ijodi mavzulari bilan boyidi. She'riy asarlarda muhabbat mavzusi bilan bir qatorda davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga aloqador masalalar ham ko'tarib chiqiladigan bo'ldi.

Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ul bosqinchilarining istilosini tufayli mamlakatda tushkunlik yuz berdi. Natijada diniy – mistik adabiyot shakllana boshladi. Panteistik oqimga mansub bo'lgan shoirlardan Zulfiqor She'rvoniy, Shams Tabriziy, Mahmud Shabustariylar mavjud ijtimoiy tuzumdan narozilik kayfiyatlarini diniy qobiqqa o'rav ifodaladilar. Shoир Imommiddin Nasimiyning ijodi o'sha paytda mavjud bo'lgan diniy-siyosiy tashkilot – xurufiylarg'a yaqin turar edi. U hatto shariat qonun-qoidalariga qarshi she'rlar yozdi, insonning aql-idrokini ulug'ladi. U «Inson o'z aqli tufayli xudolik darajasiga ko'tarilishi mumkin», degan g'oyani olg'a surdi.

XIV-XV asrlarda Ozarbayjon tilidagi adabiyotning shakllanish va taraqqiyot davri bo'ldi. Nasimi, Ahmad Burxoniddin singari shoirlar o'z asarlari bilan Ozarbayjon adabiyotining Shuhratni dunyoga taratdi.

Ma'lumki, bu davrda Xurufiylik oqimi mavjud bo'lib, bu o'ziga xos tasavvufning bir yo'nalishi edi. Nasimi ana shu xurufiylik oqimining yirik vakili sifatida erk va ozodlik haqida asarlar yaratgan. Shu asarlari uchun u hukmdorlar tomonidan dahshatli jazoga duchor bo'lib o'ldiriladi.

Burxoniddin Ahmadning esa she'rlari sevgi, botirlik, jasorat va vatanparvarlik ruhida yozilgan. Uning ijodida «tuyuq» ko'p uchraydi. Bu she'riy shakl faqat turkiy she'riyatga xos bo'lib, shoир uning go'zal namunalarini yaratgan.

Vidodiy bilan Voqif XVII asr xalq she'riyatining eng yaxshi xususiyatlarini o'z ijodiga singdirgan atoqli ozarbayjon shoirlari edilar. Voqealikni haqqoniy aks ettirish, xalq orzu-umidlariga yaqinlik hamda she'rni nihoyatda sodda va xalqchil uslubda yozish bu ikki do'st va maslakdosh shoир ijodining fazilati edi. Har ikkala shoirning ham lirikasi xalq og'zaki ijodining boy xazinasidan oziqlandi.

Voqif lirikasi, hayotdagи tengsizliklardan ranjish motivlari uchrashiga qaramasdan, asosan hayotbaxsh ruh bilan sug'orilgan edi. Shoир hayot go'zalligini kuylar ekan, dunyoning o'tkinchiligi haqida kishilar ongiga singdirilgan umidsizlik kayfiyatlarini rad etdi. Voqif xalq orasida keng tarqalgan o'ynoqi lirik qo'shiqlar muallifidir.

Ozarbayjon ma'rifatparvarlari orasida XIX asrning buyuk dramaturgi va mutafakkiri Mirzo Fatali Oxundov (1812-1878) o'ziga munosib faxrli o'rinni egallaydi. Yoshligida eski maktabda savodini chiqargan, bir necha tilni mukammal egallagan va adabiyotni chuqur bilgan M.F.Oxundov folklor materiallaridan keng foydalaniб yozgan yirik nasriy asari «Aldangan yulduzlar» qissasi o'sha davr realistik nasrining paydo bo'layotganidan dalolat berar edi.

XIX asr oxirlarida ozarbayjon demokratik adabiyotining taraqqiyotiga salmoqli xissa qo'shgan shoirlardan biri Saidazim She'rvoniy edi. U vaqtli matbuot sahifalarida ko'pincha ruhoniylarni fosh etuvchi va ilm-ma'rifatni targ'ib qiluvchi she'rlar bilan chiqib, rus tilini o'rganishga da'vat etdi. Lirikada esa u Fuzuliy an'analarini davom ettirgan bo'lsa, satirik shoир sifatida demokratik adabiyotni yangi-yangi satira asarlari bilan boyitdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ozarbayjon dramaturgiyasida M.F.Oxundov an'analarini davom ettiruvchilardan Najafbek Vezirov, Narimon Narimonov, Sulaymon Sani Oxundov va Asadbek o'g'li Abdurahimbek Axverdovlar adabiyot maydoniga kirib keldilar. Najafbek Vezirovning «Yomg'irdan qutulib qorga», «Nomigina qoldi xolos», «Nima eksang, shuni o'rasan» nomli komediylarida savdogarlarning xasisligi va ruhoniylarning makr-hiylesi ustidan kulib, ozarbayjon xotin-qizlarining huquqsizligini va urf-odatlarini tanqid ostiga oldi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi ozarbayjon adabiyotida ko'zga tashlangan realistik-demokratik yo'nalish bir qatorda romantik oqim ham mavjud edi. Bu oqimning yirik vakillari Muhammad Xodiy, Abbos Sihat va Husayin Jovidlarning ijodida ba'zi ichki qarama-qarshiliklar ham mavjud edi. Ozarbayjon adabiyotining yetakchi janrlaridan bo'lgan she'riyatda zo'r mahorat bilan qalam tebratgan shoirlardan Samad Vurg'un, Sulaymon Rustam, Mamad Rahim, Rasul

Rizo, Marvarid Dilboziy va boshqalar birinchi she'riy tur-siyosiy lirikani rivojlantirishga katta e'tibor berdilar.

Samad Vurg'un XX asr ozarbayjon adabiyotining shoiri edi. Afsuski, uning ko'pgina asarlari kommunistik mafkura ta'sirida yozilgan. Lekin shoir shunday asarlarida ham yuksak badiiy mahorat cho'qqisiga ko'tarildi. Uning «Dunyo xaritasi» turkumiga kiruvchi she'rlarida ezilgan millatlarning taqdiri, ularning bosqinchi imperialistik davlatlarga qarshi kurashi o'z ifodasini topgan.

Samad Vurg'un iste'dodli dramaturg sifatida ham barakali ijod qildi. Uning tarixiy mavzudagi «Voqif» tragediyasi mahorat bilan yozilgan. Bu asar Uyg'un bilan I.Sultonning «Alisher Navoiy» nomli dramasiga o'xshashdir.

O'ttizinchi yillardan boshlab ozarbayjon she'riyatida doston janri tez sur'atlar bilan rivojiana boshladi. Samad Vurg'un yaratgan «Yigirma oltilar», «Mug'on», «Zanjining orzulari» singari dostonlarida ozarbayjon xalqi bosib o'tgan shonli yo'lning muhim bosqichlari aks ettirilgan bo'lsa, «Sayat Nova» dostonlarida asosiy e'tibor turli millat kishilari o'rtasidagi do'stlik muammolariga qaratildi. Ikkinci jahon urushi va undan keyingi yillarda adabiyot maydoniga N. Xazriy, B. Vahhobzoda, G.Huseyinzoda, K.Qosimzoda, A.Boboyev va G.Imomberdiyev singari iste'dodli shoirlar guruhi kirib keldi.

Ozarbayjon adabiyotining keksa avlodı – M.S.Urdibodi, A.A Abulhasan, A. Shoyiqlar bir qatorda uning ikkinchi va uchinchi bo'g'iniga mansub yozuvchilar – S.Rahimov, M.Huseyin, M.Ibrohimov, A.Valiyev, I.Efendihev, Mirjalol va G. Musayevlar zamonaviy va tarixiy mavzularda roman, qissa va hikoyalar yozdi.

Ozarbayjon yozuvchilari dramaturgiya sohasida ham qator yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Ular tarixiy va zamonaviy mavzularda sahna asarlari yaratdilar: ozarbayjon dramaturgiyasini taraqqiy ettirishga katta hissa qo'shgan J.Jabarli o'zining «O't kelini» dramasida xalq ommasining tarixdagi rolini ko'rsatdi. «Sevil» nomli sahna asarida esa J.Jabarli xotin-qizlar ozodligi masalasini ilgari surdi.

Zamonaviy mavzuda esa, M.Husaynning «Abshe’ron», «Qora qoyalar», Mirzo Ibrohimovning «Buyuk tayanch», Valievning «Gulshan», S.Rahmonning «Ulug’ kunlar» kabi roman va qissalari yaratildi.

M.Husaynning «Abshe’ron» romanida ozarbayjon ishchilari sinfining hayoti aks ettirilgan. Neft ishlab chiqarishda jonbozlik ko’rsatgan Tohir, Usta Ramazon, Qudrat va Lola kabi qahramonlar taqdiri berilgan.

Yosh yozuvchilardan bo’lgan Bayram Bayramov «Yaproqlar», Iso Husayinov «Tong yulduzi», Manaf Ibrohimov «Yer osti sirlari» kabi romanlarini e’lon qildi. Bu asarlar hozirgi ozarbayjon adabiyotining katta yutuqlari sifatida tan olinmoqda.

Dramaturgiya sohasida esa Maqsud Ibrohimbekovning «Qasos», Anorning «Shahar tobistoni», Baxtiyor Vahobzodaning «Yong’indan so’ng» kabi pyesalari katta shuhrat qozondi.

O’zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari tarixi uzoq o’tmishdan boshlanadi. Keyingi yillarda bu aloqa yanada mustahkamlandi. Ozarbayjon adabiyotining ko’pgina asarlari o’zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Ozarbayjon xalq og’zaki ijodi va yozma adabiyot shaklida yaratilgan eng qadimgi namunalarida qanday mavzu yetakchilik qiladi?
2. «Qo’rqt ota» eposining ahamiyati haqida qanday fikrdasiz?
3. Ozarbayjon adabiyotida turli-tuman adabiy janrlarda yaratilgan xalq ishqiy-qahramonlik dostonlaridan qaysi biri yirik badiiy asar sifatida katta ahamiyatga ega edi?
4. Ozarbayjon nazmida zo’r mahorat bilan qalam tebratgan shoirlarni bilasizmi?
5. Ozarbayjon she’riyatining gullab yashnashida qaysi yozuvchilarining o’rni katta bo’lgan?
6. XIX asrning buyuk dramaturg va ma’rifatparvarlari haqida fikringiz qanday?.
7. XVI- XVII asrlarda Ozarbayjondagi adabiy hayot nega inqirozga yuz tutdi?
8. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Ozarbayjon dramaturgiyasida Najafbek Fatalibek o’g’li Vezirovning dramatik asarlaridagi bosh mavzu nima va uning asarlari mavzusi haqidagi fikringiz qanday?

9. Xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish va o'rghanish ishlari Ozarbayjonda nechanchi asrlardan boshlangan?

- A. VI asrlardan boshlangan
- B. VII asrlardan boshlangan
- C. VIII asrlardan boshlangan
- D. IX asrlardan boshlangan

10. Xalq she'riyatining eng yaxshi xususiyatlarini o'z ijodiga singdirgan atoqli ozarbayjon shoirlarini belgilang.

- A. Vidodiy bilan Voqif
- B. Falakiy-Shervoni, shoir Maxseti Ganjaviy
- C. Xoqoniy- Shervoni, Nizomiy Ganjaviy
- D. Baxmanyor Ali Bokuyi, Xatib Tabriziy

11. Ozarbayjon xotin-qizlarining qayg'u-alami va o'z asrining ijtimoiy tengsizliklari haqida yozib, Yaqin Sharqda shuhrat qozongan shoir kim?

- A. Maxseti Ganjaviy
- B. Falakiy-Shervoni
- C. Xatib Tabriziy
- D. Nizomiy Ganjaviy

12. Zamonaviy va tarixiy mavzularda roman, qissa va hikoyalar yozgan ozarbayjon adiblarini belgilang.

- A. S.Rahimov, M.Huseyin, M.Ibrohimov, A.Valiev, I.Efendiev, Mirjalol va G. Musaevlar
- B. S.Rahimov, M.Huseyin, M.Ibrohimov, A.Valiev, I.Efendiev, Mirjalol va G. Musaevlar
- C. Xatib Tabriziy, Nizomiy Ganjaviy , M.S.Urdibodiy, A.A Abulhasanlar
- D. G.Huseyinzoda, K.Qosimzoda, A.Boboev va G.Imomberdievlar



Mavzu : Nizomiy Ganjaviy

Reja:

1. Nizomiy Ganjaviy hayot yo'li.
2. Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Ganja, «Shayx», «Hakim», Qizil Arslon, «Panj ganj», «Mahzan ul-asror» (sirlar xazinasi), «Xisrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar», «Iskandarnoma» dostonlari va h.k.

Speak – gapirmoq

Right – haq

Four – to‘rt

Look up – lug‘atdan so‘z topmoq

Dars maqsadi: Talabalarga shoirning hayoti va o‘ziga xos lirkasi hamda dostonlari haqida ma’lumot berish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Nizomiy Ganjaviy hayoti tafsilotlaridan xabardor bo’ladi.
2. Talabalar shoir lirkasi haqida mulohaza bildiradi.
3. Ganjaviy «Xamsa»si bilan Navoiy «Xamsa»siga qiyosiy tavsif beradi.

Ulug’ Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy o’z salaf va xalaflari Hoqoniy Shirvoniy, Qatron Tabriziy, Imoniddin Nasimiyy, Muhammad Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov kabi dunyoga mashhur so‘z ustalari qatorida sharafli o’rinda turadi. Nizomiyni shoirlarning shoiri, shoirlarning ustodi shohsupasiga ko’targan uning «Xamsa»si bo’ldi. «Panj ganj», «Xamsa» nomlari bilan mashhur bo’lgan besh dostondan iborat bu asar buyuk badiiy tafakkur va hududsiz iste’dod hosilasi sifatida sharq adabiyotining nodir hodisasiga aylandi. Navoiy Nizomiy «Xamsa»sini yuksak baholab, uni el qulog’iga ma’naviy gavharlar etkurib, so’ngra qalbga yo’l olib, uni ham labo-lab to’ldiruvchi mo’jizbayon asar deb ataydi.

Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida turli xalqlarga mansub bo'lган, lekin Hirot adabiy muhiti bilan bog'liq holda «Xamsa» yozishga ahd qilgan Marog'ali Ashraf, Ali Osiy, Fasih Rumiy, Xoja Imodiddin Loxuriy, Abdullo Xotufiy, Kotibiy Turshuziy kabi shoirlarni xarakterlab o'tadi.

Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiy 1141-yilda Ozarbayjonning Qadimiy Ganja shahrida tug'iladi. Ozarbayjon adabiyotining yirik klassigi Nizomiy Ganjaviy yoshlikdan matematika va astronomiyaga juda qiziqqan va shu soha bo'yicha bilimlar olgan. Ota-bobolari o'z davrining ma'rifatli kishilaridan edilar. Ilyosning bobosi Zaxi Muayyaddinni olim va shoир bo'lганligini naql qiladilar. Ilyosning onasi Ganjada yashovchi kurd oilasiga mansub bo'lган. Nizomiy shoirning taxallusidir. Navoiy: Bebaho so'z durlarini o'z o'rniga qo'ya olganligi uchun taqdir uni Nizomiy deb atashga ahd qildi, deb yozadi:

Nozim o'lub so'z duru serobiga,

Charx «Nizomiy» yozib alqobiga.

Navoiy Nizomiy taxallusiga «Shayx», «Hakim» kabi sifatlovchi so'zlarini qo'shib aytadi. Bu esa uning ma'naviy rahnamoligiga va faylasuf shoirligiga ishoradir.

U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozarbayjonda Shirvon Tohir sulolasi hukmronlik qilar edi. Ular shoirni o'z saroylariga taklif qildi, lekin Nizomiy bu taklifni rad qilib, erkin ijod qilishni ma'qul ko'rdi. U o'z asarlarini fors tilida yozdi, chunki bu til o'sha paytda Ozarbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning o'z ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she'rlari ham bor.

Ijodini lirik asarlar yozish bilan boshlagan Nizomiy ustozlar og'ziga tushdi. Hoqoniyning yuksak bahosiga sazovor bo'lди. Masalan, uning:

«Qaydaki sen bor, qamar nadorkor,

Kimgaki sen yor, shakar na darkor» matla'i bilan boshlanuvchi g'azali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qo'shiq qilib aytilgan degan ma'lumotlar bor. Shoir lirik she'rlarida ham o'z zamonasidan shikoyat qilib, uni «adolatsiz

jamiyat» deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli janrlarida ijod qilgan, u ko'plab ruboiy, qit'a, qasidalar ham yozgan.

Nizomiy o'z davrining hamma ilmlarini egallagan nodir iste'dod sohibi bo'lib yetishadi. Shuhrati bugun O'rta va Yaqin Sharqqa yoyildi. Nizomiy iste'dodini payqagan, uni tan olgan o'sha davr hukmdorlari saroyga taklif etdilar. Lekin u saroyga bormadi. Nizomiyning ijod bobidagi shon-shuhratidan xabar topgan Darband hokimi izzat-hurmat yuzasidan shoirga Ofoq ismli cho'ri qizni tortiq qiladi. Lekin Ofoq Nizomiyning cho'risi emas, hayotining eng mo'tabar kishisi, turmush yo'ldoshiga aylanadi. Ofoq juda qisqa umr ko'rdi. 1180-yilda vafot qildi. Lekin Nizomiya Muhammad ismli o'g'il yodgor bo'lib qoldi. Hayotdagi eng yaqin kishisini yo'qotgan Nizomiy umr davomida Ofoqni unutolmadı. 1188 yil «Hisrav va Shirin» dostonida Shirin obrazi orqali Ofoq siymosini jonlantirishga ahd qildi. Shirin obrazi Nizomiyning Ofoq uchun qo'ygan haykali edi.

Keksalik yillarida yaratgan «Iskandarnoma»sida ham Ofoqqa bo'lган muhabbatini dard bilan yozadi. Yolg'iz yodgori bo'lган Muhammadni har jihatdan yetuk va donishmand bir kishi bo'lishini istaydi. Nizomiy uyida shoir va she'riyat muxlislari to'planar edilar. Bu yerda bo'ladijan adabiyot haqidagi suhbatlar Muhammadni adabiyot olamiga yetakladi.

Muhammad 14 yoshidan boshlab qo'liga qalam oldi. Lekin Nizomiy o'g'lidagi bu xohishni rad etadi. Muhammadga pand-nasihatlar beradi. Nihoyat, Muhammad huquqshunoslik va tibbiyot bilan shug'ullana boshlaydi. Nizomiyning hayoti haqidagi bir lavhaga murojaat qilaylik: «Xamsa»ning birinchi dostoni «Mahzan ul-asror»ni yozib tugatgach, uning dovrug'i keng yoyildi. Saljuqiylardan Iroq hokimi Turg'ul II (1154-1194) shoirga muhabbat haqida bir asar yozishni tavsiya etadi va unga katta hadya va'da qiladi. Nizomiy «Hisrav va Shirin» dostonini yozib, yakunladi. Yillar o'tgach, Ganjada bir necha kunlik shohlik qilgan Qizil Arslon Nizomiyni huzuriga chaqirdi. Shoir yo'lga chiqib shohning muvaqqat o'r dasiga yetib keldi. Shoh bu vaqtda o'z chodirida Nizomiy g'azallari bilan aytildigan qo'shiqlarni tinglab, bazm-u jamshid qilib o'tirardi.

Professor Bertels: «Qizil Arslon hech qanday daromad keltirmaydigan yerni shoirga tortiq qilar ekan, shayx e'tiroz bildirishga jur'at etmaydi», deb yozadi.

Nizomiy 1209- yil 68 yoshida Ganja shahrida vafot etdi.

Nizomiy sharq adabiyotida xamsachilik an'anasini boshlab bergan buyuk allomalardandir. Navoiy» Layli va Majnun» dostonining muqaddimasida Nizomiy «Panj ganj» asari haqida gapirib: «Uni Sharqda yer-suv va boshqa boyliklari bilan mashhur bo'lgan Muso Payg'ambar zamonasining eng badavlat odami, afsonaviy Qorin ganji bilan taqqoslab «Ganji Qorin aning «Panj ganji» qoshida vayronadek ko'ringay», - deb yozadi.

«Panj ganj» dostonlari:

«Mahzan ul-asror» (sirlar xazinasi) dostoni.

«Xisrav va Shirin» dostoni.

«Layli va Majnun» dostoni.

«Haft paykar» dostoni.

«Iskandarnoma» dostoni.

«Mahzan ul-asror» dostoni

«Mahzan ul-asror» 1170 yilda yaratilgan. Doston shoirning hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deb aytish mumkin. Asar muqaddimasida xudoning yakka-yu yagonaligi haqidagi munojotlar, payg'ambar haqidagi hamd sanolar bilan boshlanadi.

Nizomiy hayotda nima muqaddas-u, nima fahsh, inson nima uchun intilmog'i, nimani rad qilmog'i kerak degan savollarni o'rtaga qo'yар ekan, bu savollarga javob berishda Qur'on suralariga murojaat qilib, xadislarni asos qilib oladi. «Mahzan ul-asror»daadolat va zulm tushunchalari jiddiy ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu 20 ta bob va kichik xotimadan iborat. Bu asarda o'sha davrning ijtimoiy – siyosiy, axloqiy – ta'limiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hikmatli hikoyalar, shoir aforizmlari bu asarda ko'plab keltirilgan. Bu hikoyatlar fikrni tasdiqlash yoki yakunlash uchun qo'llanilgan. Masalan, davlat boshliqlariniadolatga chaqiruvchi Anushervon haqidagi hikoyat xarakterlidir. Anushe'rvon ayonlari bilan bir xaroba qishloqdan o'tayotib ikki boyqush tovushini

eshitadi. Shoh ularning nima deb so'rayotganini qush tilini biluvchi dono vaziridan so'raydi. Shunda vazir deydi: «Bu boyqushlardan biri o'z qizini ikkinchisiga bermoqchi bo'lib, buning evaziga ana shu qishloqqa o'xshagan xarobalar talab qilayotir. U bo'lsa, podshohimiz Anushe'rvon omon bo'lsa, bunday xaroba qishloqlar juda ko'payadi, istaganingcha olasan deyapti». Bundan xulosa chiqargan shoh zulm qilmaslikka, mamlakatni adolat bilan idora qilishga ahd qilibdi. Dostonda ana shunday didaktik hikoyatlar juda ko'plab uchraydi.

Shoir zulm hukmron bo'lган yerda mamalakat xarobaga aylanadi, el xonavayron bo'ladi. Asarda «Sulton Sanjar va kampir» hikoyati mavjud.

«Xisrav va Shirin».

Ikkinci doston «Xisrav va Shirin» deb ataladi. Bunda Eron shohi Xisrav bilan arman malikasi Shirin o'rtasidagi muhabbat tasvirlanadi. Uning xazinasidan Sharqning «Layli va Majnun», «Vomiq va Uzro», «Yusuf va Zulayho» qissalari munosib o'rın olgan. Sharqning yana bir nodir ishqnomasi bor, bu Xisrav, Farhod va Shirin kabi qahramonlari haqida hikoya qiluvchi asarlaridir. Xisravnı qattiq sevgan Shirin, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolatli bo'lishga undaydi. Dostonda Farhod obrazi Shirinni qattiq sevib qolgan oddiy, mehnatkash yigit sifatida berilgan. U ariq qazish va qasr qurilishida mehnat mo'jizalarini ko'rsatadi. Lekin Shirin uni hurmat qilsa-da, sevolmasligini aytadi. Xisravnı o'g'li She'ruya o'ldiradi. Keyin Shirin ham Xisrav qabriga borib o'zini-o'zi o'ldiradi.

«Xisrav va Shirin» yoxud «Farhod va Shirin» Sharq xalqlari aql va tafakkurining moziyga daxldor mo'jizasi sifatida yuzaga kelgan. Bu doston 1181-yilda yaratilgan bo'lib, asarning muqaddimasi Xudo va payg'ambar nomiga yozilgan hamd-sanolardan iborat.

«Layli va Majnun»

«Layli va Majnun» asari 1188-yil yozilgan. Nizomiy Ganjaviy «Layli va Majnun» nomli asarida arab xalq afsonasini birinchi bo'lib yozma adabiyotga kiritib, ishq haqida ajoyib doston yaratdi. Bunda inson huquqlarining o'rta asrlarda qanday taxqirlangani ko'rsatib berilgan. Arab qabila boshlig'i Bani Omir farzandsiz bo'lib, ollohdan farzand so'raydi. Iltijolari ijobat bo'lib o'g'il ko'radi.

Unga Qays deb ism qo'yadilar. Aql zakovatli Qaysni mакtabga berdilar. Maktabda qizlar ham o'qir edi. Layli ismli qiz ham bor edi. Qays bilan Layli bir-birlarini sevadilar. Tez orada ularning muhabbatlari oshkor bo'lib, Qaysga Majnun deb laqab qo'yadilar. Majnunning hayoti mashaqqat bilan kechar edi. Odamlardan o'zini olib qochar va bozorlarda qo'shiq aytib sahroga chiqib ketardi. Laylini sog'inib u yashayotgan qabilaga kelardi. Bir lahza diydorlashuvdan so'ng yana firoq o'tida yonardi.

«Haft paykar»

«Panj ganj»ning to'rtinchi dostoni «Haft paykar»dir. Dostonning bosh qahramoni Bahrom Go'r bo'lib, u 1197-yilda yozilgan. Sharq adabiyoti tarixida Bahrom nomiga ega bo'lgan qahramonlar ko'p. Masalan, Bahrom, Bahrom Go'r, Bahrom Chubin va boshqalar. Bahrom urush, tala-to'p ramzi sifatida qabul qilingan. Bahrom obrazi yozma adabiyotga dastlab Firdavsiy tomonidan olib kirildi.

Bahromni sosoniy shohlaridan Yazdigirdning o'g'li bo'lib uni avaylab o'stiradilar, yomon ko'zlardan asraydilar. Odobli va bilimli qilib tarbiyalash, harbiy hunarga o'rgatish choralarini qidiradilar. Shu maqsadda Bahromning tarbiyasini o'zining Yamandagi vassali Nu'monga topshiradilar. Nu'mon Bahrom uchun maxsus qasr qudirib Havarnaq nomi bilan atay boshlaydilar.

Bu asar hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Shoh Bahrom yetti mamlakat podshohlarining yetti qiziga uylangan. Ularga yettita qasr qudirgan. Haftaning yetti kuni yetti go'zaldan sevgi, sadoqat, mardlik kabi mavzularda yetti hikoya eshitadi. Keyin shoh Bahrom donishmand cho'pondan o'z vaziri Rost-Ravshanning sotqin va zolim ekanligini bilib qoladi. Uni zindonband etib, u qamatgan mahbuslarni ozod qiladi.

Yetti mahbusning hikoyasini tinglagan Bahrom xatolarini tushunib, mamlakatniadolat bilan idora qiladi. Lekin yana Bahromning bazm, sarguzashtlari boshlanib, o'zi fojiali halok bo'ladi.

«Iskandarnoma»

«Iskandarnoma» beshinchi doston bo'lib, dostonda Iskandar Zulqarnayn obraqi gavdalantirilgan. Sharqda juda ko'p afsonalar mavjud bo'lib, bu afsonalarinng ko'pchiligi Iskandar nomi bilan bog'liq. Iskandarni xalq tafakkurida rahnamo va madadkor sifatida xizr bilan yonma-yon tilga olinadi.


Qadimda ko'plab Iskandarnomalar yaratilgan.

Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida ham Iskandar oynasi masalasi, Iskandar tilsimini yechish maqsadida Farhodning Yunonga qilgan safari tasvirlanadi. Firdavsiy shohnomasida ham Iskandarning Eronga yurishi Doro bilan to'qnashuvi va Iskandar devorining bunyod etilishi lavhalari tasvirlangan.

«Iskandarnoma»da Nizomiy adolatparvar podshoh obrazini yaratdi. Iskandar dunyoni kezib shimol tomonda bir mamlakatga borib qoladi. Bu mamlakatda hamma teng, o'g'rilik yo'q, kasal kishilar ham yo'q, birov-birovdan xavfsiramaydi, butun xalq inoq yashaydi. Iskandar buni ko'rib hayron qoladi va shunday mamlakatni avval ko'rganimda dunyo kezib yurmasdim, deydi. Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, umuman, uning ijodi butun Sharq adabiyotining rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

«Iskandarnoma» 1197-1204- yillar oralig'ida yozilgan asar bo'lib, «Sharafnama» va «Iqbolnama» kabi ikki qismdan iborat.

«KLASTER» («Tarmoqlar»)usuli orqali mavzuni mustahkamlash



Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Alishe'r Navoiy nima uchun Nizomiy taxallusiga «Shayx», «Hakim» kabi sifatlovchi so'zlarini qo'shib aytadi?
2. Bahrom obrazi yozma adabiyotga dastlab qaysi shoir tomonidan olib kirildi?
3. Ganjaviyning «Xamsa»si bilan Navoiyning «Xamsa» o'rtasida qanday o'xshash va farqli jihatlar bor?
4. Navoiy «Layli va Majnun» dostonining muqaddimasida Nizomiy «Panj ganj» asari haqida qanday fikrlarni aytadi?
5. Nizomiy Ganjaviyning qaysi dostonida inson huquqlarining o'rta asrlarda taxqirlagani ko'rsatib berilgan?

7. Quyidagi bayt kimning qalamiga mansub?

Nozim o'lub so'z duru serobiga,

Charx «Nizomiy» yozib alqobiga.

A. Bobur

B. Navoiy

S. Mashrab

D. Jomiy

8. Nizomiy «Xamsa»sini yuksak baholab, uni el qulog'iga ma'naviy gavharlar uetkurib, so'ngra qalbga yo'l olib, uni ham labo-lab to'ldiruvchi mo'jizbayon asar deb atagan shoirni belgilang.

A. Lutfiy

B. Mashrab

S. Navoiy

D. Jomiy

9. Shoirning qaysi asarini hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deb aytish mumkin?

A. »Mahzan ul-asror» (sirlar xazinasi) dostoni.

B. »Xisrav va Shirin» dostoni.

S. »Layli va Majnun» dostoni.

D. »Haft paykar» dostoni.



Mavzu: *Fuzuliy hayoti va ijodi*

Reja:

1. Fuzuliy hayoti.
2. Fuzuliy ijodiy faoliyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: «Mavlono», «Layli va Majnun» dostoni, «Bangu boda», «Anis ul-qalb» («Qalb do'sti»), «Matla ul-e'tiqod» («E'tiqod boshlanmasi»), «Haft jam» («Yetti jam») kabi asarlari.

Dars maqsadi: Fuzuliy ijodiyoti, nodir asarlari mazmunidan talabalarni xabardor etish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fuzuliyning o'ziga xos hayot yo'lini so'zlay oladi.
2. Shoirning o'zbek xalqining qalbidan chuqur joy olgan she'riyati xususida fikr bildiradi.
3. Adib asarlari mohiyatini tushunib oladi.

Muhammad Fuzuliy jahon adabiyoti xazinasiga bebaho durdonalar bo'lib qo'shilgan shohona asarlari bilan nafaqat ozarbayjon, balki Markaziy Osiyo xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining ham sevimli shoiridir.

Shoir 1498-yili Iroqning Karbalo shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Ozarbayjondan Iroqqa ko'chib borgan. Fuzuliy yoshligida yaxshi bilim oldi. Fuzuliy dastlab maktabda, keyinchalik Bog'dodga borib madrasada ta'lim olgan. Uning maktab davridayoq she'riyatga, adabiyotga ixlosi juda baland bo'lib, bu hol bo'lajak shoir qalbiga so'z qudrati sehrini muhrlagan, nazm gulshaniga yetaklagan. Tabiatida shoirlik iqtidori bo'lgan, so'z otashida yongan Muhammad o'z she'rlari bilan ko'pchilikka ma'lum bo'ladi. Fanlarni qunt bilan o'rgangan Muhammad ilmning ahamiyati haqida shunday bayon qiladi: «She'rimning

martabasi ilm ziynatidan kam bo'lishini nuqson hisoblab, ilmsiz she'rdan ruhsiz badan kabi nafrat etib, bir muddat hayotimning naqdini aqliy va naqliy ilmlarni o'rganishga sarf etdim. Umrimni sarf etib, hikmat va handasa o'rganishga harakat qildim. Asta-sekin hunar sohiblarining asarlaridan nazmimning go'zalligi uchun la'llar tartib etdim...»

Tinmay mutolaa qilish asnosida o'z davrining yetuk kishisi, allomasiga aylangan Fuzuliyni zamondoshlari «Mavlono» deb ataganlar. Shoirning asarlaridagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohadalar uning haqiqatan ham har tomonlama yetuk olim ekanligidan darak beradi.

U Bog'dod madrasalaridan birida tahsil oladi. Domlalaridan birining qiziga uylanib, bir o'g'il ko'radi. Shoirning bu o'g'li ham Fazliy nomi bilan ijod qilib, taniqli shoir bo'lган. Fuzuliy yoshligidan she'rlar yozgan. U tabiat ko'rinishlarini inson ruhi bilan uyg'unlashtirib tasvirlovchi shoir sifatida mashhurdir.

XVI asrning birinchi yarmida ijod qilgan shoir Muhammad Fuzuliy Ozarbayjon poeziyasining cho'qqisi hisoblanadi. Bu shoir asarlari xuddi o'zbek shoirlari Navoiy, Bobur asarlaridek o'rganilgan. Fuzuliyxonliklar o'zbeklar o'rtasida doimo bo'lib turgan. Fuzuliy juda ajoyib g'azallari, oshiqona his-tuyg'ularga boy «Layli va Majnun» dostoni, o'z davri ijtimoiy voqealarga munosabat bildirib yozgan «Shikoyatnama», «Bangu boda», «Anis ul-qalb» («Qalb do'sti»), «Matla ul-e'tiqod» («E'tiqod boshlanmasi»), «Haft jam» («Yetti jam») kabi o'nlab asarlari bilan Sharq adabiyotida katta shuhrat qozondi.

Uning **«Falaklar yondi ohimdan, murodim shami yonmasmu»**, **«Shifoiy vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r»**, **«G'amzasin sevding, ko'ngil, joning kerakmasmu sanga»** kabi o'nlab she'rlari o'zbek xalqining qalbidan chuqur joy olib, qo'shiq bo'lib aytilib kelinmoqda. Yuqorida fikr bildirilganidek, Fuzuliy ijodiga Navoiy va Lutfiylarning katta ta'siri bor. Shoir devonida ikkita muxammasning bittasi Lutfiyning g'azaliga bitilgan. Fuzuliyning ishq haqidagi she'rlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat mohirona singdirib yuborilgan.

Muhabbat lazzatidin bexabardir zohidu g'ofil

Fuzuliy ishq zavqin ishq zavqi vor o'landin so'r.

Fuzuliyda tasavvufona she'rlar ham anchaginadir. U ilohiy ishq haqida otashnafas she'rlar yozadi, favqulodda go'zal tashbehlar topadi.

*Tarki mayu mahbub edariz jannat uchun,
Sharh aylaki, jannatda na vor voiz?*

yoki:

*Mahshar kuni quram deram ul sarvi qomati,
Gar anda ham ko'rinsama, kel qur qiyomati.*

Shoir o'z jamiyatidan norozilik kayfiyatlarini, ayniqsa, «Layli va Majnun» dostonida ko'proq namoyon qiladi. Bu asar haqida mashhur tanqidchi olim T.Jalilov shunday yozadi: «Men «Layli va Majnun»larni qayta-qayta o'qidim. Shunda Nizomiy dahosiga qoyil qoldim. H.Dehlaviyning bulbuldek sayrashiga ofarin dedim; Navoiyning Majnuniga motam tutib yig'ladim; Fuzuliyga kelganda hayrat mayidan mast bo'ldim. Insof bilan aytganda, Fuzuliy «Layli va Majnun»i barcha «Layli va Majnun»larning gultojidir».

O'zbek shoirlari Fuzuliydan ko'p o'rgandi. Unga ergashib she'rlar yozdi. Masalan, Mashrabning quyidagi g'azali bunga misol bo'la oladi.

*Ne savdolar bosha solding, bu savdolar tiganmazmu?
Ki band etding oyoqlarni, yana bandlar yozilmazmu?*

Fuzuliy ijodidan hozirgi zamon o'zbek she'riyatining vakillari ham ijodiy foydalanmoqda.

Fuzuliy ozarbayjon tilida ijod qilsa-da, fors, arab tillarini ham mukammal bilgan, bu tillarda ham asarlar yaratgan. Mazkur asarlar shoirning Yaqin Sharq xalqlari madaniyatini ham puxta bilganligi, tarix, tib, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, mantiq va falsafani chuqur egallaganligini ko'rsatadi. Uning mutafakkir shoir sifatida qadimiylar yunon madaniyati va falsafasini puxta o'rgangani «Matla ul-e'tiqod» asarida Aflatun, Aristotel, Geraklit kabi yunon faylasuflari asarlari to'g'risidagi mulohazalaridan sezilib turadi.

Buyuk iste'dod egasi bo'lган shoir umr bo'yи moddiy qiyinchilikda, qashshoqlikda yashagan, lekin ta'magirlilik, kishilarga qaram bo'lishdan hazar

qilgan. U saxovatlarga ko'z tikib, mute bo'lib yashashdan ko'ra kambag'allikni, qanoatni, hurlikni afzal ko'rgan, bu hol uning asarlarida yaqqol o'z ifodasini topgan.

Shoir diyonatli kishi bilimli bo'lsa, xalqning baxt saodati yo'lida mehnat qiladi, bilimini jamiyat manfaati uchun sarflaydi, deb hisoblagan va bunga o'zi ham amal qilgan.

Fuzuliy devonida g'azallar salmoqli o'rinni egallaydi. Shoir Sharq g'azalchiligidagi an'anaga ko'ra ishqiy g'azallar bitishga alohida ahamiyat bergen. U ishq zavqini avj pardalarda kuylar ekan, qalbdan quyulib kelgan nolali sado bilan:

*Vohki el, Komil Avaz, qavl etsa, andin injima,
Hamki ul dildor agar havr etsa, andin injima,
Chun g'araz g'avri diydor, qahr etsa, andin injima,
Ey Fuzuliy, yor agar javr etsa andin injima,
Yor javri oshiqa hardam muhabbat tozalar,—*

deydi.

Fuzuliy Iroqning Bag'dod, Najar kabi bir qancha shaharlarida yashagan, keyinchalik yurti Karbaloga qaytib kelgan va vabo kasalidan vafot etgan.



FSMU usuli orqali mavzuni mustahkamlash.

Shoir diyonatli kishi bilimli bo'lsa, xalqning baxt-saodati yo'lida mehnat qiladi, bilimini jamiyat manfaati uchun sarflaydi, deb hisoblagan va bunga o'zi ham amal qilgan. ***Ushbu jumla yuzasidan fikrlaringizni bildiring.***

Talabalardan berilgan topshiriqqa «FSMU» (F — fikringizni bayon eting; S — fikringizni asoslovchi sabab keltiring; M — keltirgan sababni tushuntiruvchi, isbotlovchi misol ayting; U — barcha fikrlaringizni umumlashtiring) bo'yicha fikrlarini daftarlariiga yozishlari so'raladi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Fuzuliy shaxsiga baho bering.
2. Fuzuliy devonining mohiyati nimada?
3. Suvga tashnalik bilan visolga tashnalik orasida qanday bog'lanish bo'lishi mumkinligi haqida o'z qarashlaringizni bildiring?
4. Shoirning «Shayxlar mayxonadan yuz do'ndirarlar masjida» misrasiga munosabat bildiring. So'ngra oshiqlar, shayxlar va betariqatlar haqida fikrlashing.
5. Fuzuliyning qaysi asarlari Sharq adabiyotida katta shuhrat qozondi?
6. Shoirning: «Diyonatli kishi bilimli bo'lsa, xalqning baxt saodati yo'lida mehnat qiladi, bilimini jamiyat manfaati uchun sarflaydi», degan fikriga munosabatingizni bildiring.
7. **«Shikoyatnama», «Bangu boda», «Anis ul-qalb» («Qalb do'sti») asarlari muallifini belgilang.**
 - A. Fuzuliy
 - B. Abay
 - C. Maxtumquli
 - D. Mullanafas
8. **Fuzuliyning qaysi asarida Aflatun, Aristotel, Geraklit kabi yunon faylasuflari asarlari to'g'risidagi mulohazalaridan sezilib turadi?**
 - A. «Matla ul-e'tiqod»
 - B. «Haft jam»
 - C. «Anis ul-qalb»
 - D. «Layli va Majnun»
9. **Fuzuliy ijodining cho'qqisi qaysi doston?**
 - A. «Matla ul-e'tiqod»
 - B. «Layli va Majnun»
 - C. «Haft jam»
 - D. «Anis ul-qalb»



Mavzu : Mirzo Fatali Oxundov

Reja:

1. Mirzo Fatali Oxundovning hayot yo'li.
2. Shoirning ijodiy merosi.

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari: Ilm o'rganish, ilk ijodi, xalq og'zaki ijodi, komediyalar.

Library – kutubxona

Unknown - notanish

Understand – tushunmoq

Story – hikoya

Feel – his qilmoq

Dars maqsadi: M. F. Oxundovning hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot berish hamda nasriy asarlarini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Oxundovning yoshlik yillari, shoirlilik va ma'rifatparvarlik faoliyati to'g'risida so'zlaydi.
2. Adib yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni izohlaydi.
3. Dramaturgning nasriy va yumoristik mavzuda yozilgan asarlari to'g'risida fikr yuritadi.
4. «Aldangan yulduzlar» qissasini tahlil qiladi.

Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Mirza Fatali Oxundov 1812-yili Nuh shahrida tug'ildi. U dastlab diniy maktabda o'qidi. Keyinchalik rus-tatar bilim yurtida ta'lim olib, rus tili va rus madaniyatini yaxshi o'rgandi. Bilim yurtini bitirgandan so'ng, umrining oxirigacha Tiflis hokimi qoshida tarjimon bo'lib ishladi. Bir necha tilni mukammal egallagan va adabiyotni chuqur bilgan M.F.Oxundov A.S.Pushkin asarlarini mutolaa qildi. Uning fikricha, ozarbayjon

xalqining ayanchli ahvolda yashashiga sabab, birinchi navbatda keng mehnatkash ommanning savodsizligidir. Shuning uchun u zo'r berib ma'rifat tarqatish, mehnatkashlar bolalarini o'qitish, ularni savodxon qilish uchun jon kuydirdi. Oxundov arab alifbosini lotin grafigi asosida qayta tuzib chiqdi. M. F. Oxundov Ozarbayjon milliy teatrining shakllanishi uchun zamin hozirladi va Ozarbayjon milliy teatriga asos bo'lgan oltita komediyani yaratdi: «Komyogar mulla Ibrohim Xalil» (1850), «Tabiatshunos Muse Jordan» (1850), «Qaroqchini enggan ayiq» (1851), «Xasis kishining sarguzashti»(1852), «Lenqoran xonligining vaziri»(1850) va «Tabrizlik huquq himoyachilar»(1855) kabi komediylarida u o'z davridagi ijtimoiy tengsizlikni tasvirladi, hukmron doiralarning xasisligi, farosatsizligi va nodonligini fosh qildi.

Mirza Fatali Oxundovning nasriy asarlari orasida xalq og'zaki ijodi materiallaridan keng foydalanib yozilgan «Aldangan yulduzlar» qissasi mashhurdir. Uning ushbu qissasi o'sha davrda realistik nasrning paydo bo'layotganligidan dalolat berar edi.

U faylasuf sifatida 1864–1865- yillarda «Kamol ud-dovla maktublari» asarini yaratib, unda falsafiy qarashlarini bayon qildi.

M.F.Oxundovning shoirlik va ilg'or ma'rifatparvarlik faoliyati Ozarbayjon adabiyotining bundan keyingi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. M.Oxundov–Ozarbayjon dramaturgiyasining ham asoschisi. Uning ijodi 30–yillardan boshlanadi. 1937-yilda Pushkinga bag'ishlab yozgan she'rida rus she'riyatining quyoshi A.S.Pushkin vafoti munosabati bilan yozgan edi:

*Ko'zlarimga uyqu kelmay uxlamadim kechasi,
Dilga dedim: - Ey, sirlarning javohir, xazinasi,
Nima bo'ldi gulzoringda bulbullaring sayrashmas?
Nima bo'ldi suv to'tisi og'iz ochmas bir nafas?
Ne sababdan to'silgandir she'riyatning yo'llari?
Bahor keldi. Tomosha qil: ko'kalamzor qizlari
Yasanishib, balqib turar jamollari, yuzlari?*

**Mustaqil (TMI) bajarish uchun vazifa:
Shoir lirikasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?**

F (Fikringizni bayon eting)

S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating)

M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring)

U (Fikringizni umumlashtiring)

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Shoirning ilm o'rganishi haqida mulohaza yuriting.
2. Adibni o'z davridagi hamda falsafiy qarashlarni bayon qilgan asarlarida qanday voqealarni fosh qilgan?
3. M.F.Oxundovning dunyoqarashi qanday g'oyalar ta'sirida shakllandi?
4. U qaysi asarida faylasuf sifatida falsafiy qarashlarini bayon etadi?
5. M. Oxundovning ma'rifatparvarlik faoliyatiga munosabatingiz?
6. M.F.Oxundovning folklor materiallaridan keng foydalanib yozgan yirik nasriy asarining g'oyasi nimadan iborat?
7. Zamonaviy mavzuda qalam tebratgan Ozarbayjon adabiyotining yosh namoyandalari haqida fikringiz qanday?
8. **M.F.Oxundovning folklor materiallaridan keng foydalanib yozgan yirik nasriy asarini belgilang.**
 - A. «Aldangan yulduzlar»
 - B. «Tabiatshunos Muse Jordan»
 - C. «Kimyogar mulla Ibrohim Xalil»
 - D. «Xasis kishining sarguzashti»
9. **Ozarbayjon milliy teatrining shakllanishi uchun zamin hozirlagan va Ozarbayjon milliy teatriga asos bo'lgan oltita komediyanı yaratgan adib kim?**
 - A. Boboyev
 - B. M. F.Oxundov
 - C. M.Huseyin
 - D. S. K.Qosimzoda

II QISM

Mavzu: Qozoq adabiyoti

Reja:

1. Xalq og'zaki ijodi.
2. Mumtoz qozoq adiblari haqida.
2. Qozoq adabiyotida nasr, nazm va dramaturgiya.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Xalq og'zaki ijodi, ertaklar, qo'shiqlar, «Qo'blandi botir», «Qambar botir», «Er Targ'in» dostonlari, «Qizjibek», «Qo'zi ko'rpesha va Bayan suluvi», «Suluv shash» ishqiy-lirk dostonlar, qozoq she'riyati va nasrining shakllanishi, tarjimachilik..

Dars maqsadi: Xalq og'zaki ijodida yaratilgan ijobiy qahramonlardan o'rnak olishga da'vat qilish. Qozoq adabiyotining asoschilarini va qozoq she'riyati, nasri va dramaturgiyasi haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Qozoq xalqi va uning adabiyoti to'g'risida gapiradi.
2. Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotga ta'sirini izohlaydi.
3. Mumtoz qozoq adabiyotining asoschilarini haqida so'z yuritadi.
4. 30-yillardagi nasriy, tarixiy va zamonaviy asarlar haqida ma'lumot beradi.
5. Qozoq dramaturglari dramalarida xalqlar do'stligi, Yurt va Yurt mudofaasi mavzusini izohlaydi.

Qozoq yozma adabiyoti ancha kech shakllandi. XIX asrgacha qozoq adabiyoti, asosan, xalq og'zaki ijodi asarlaridan iborat edi. Boy va xilma-xil janrlarni o'z ichiga olgan qozoq folklori uzoq davrlar mobaynida mehnatkash ommaga ajralmas ruhiy yo'ldosh bo'lib, unga ma'naviy oziq berib keldi. Folklor asarlarining yaratuvchisi mehnatkash xalqdir. Shuning uchun ularda adolat va haqsizlik, yaxshilik va yomonlik, boylik bilan kambag'allik o'rtasidagi ziddiyat har doim xalq manfaati foydasiga hal bo'ladi.

Qozoq folklorida qahramonlik dostonlari alohida o'rinni tutadi. «Qo'blandi botir», «Qambar botir», «Er Targ'in» dostonlarida qahramonlik, do'stlik, yurtga mehr-muhabbat g'oyalari romantik tarzda aks ettirilgan.

Tarixdan ma'lumki, qozoq xalqi bilan qalmiqlar o'rtasida ko'p janglar bo'lган. Ko'chmanchi chorvador bo'lib, tarqoq yashagan qozoq ovullariga qalmiqlar doimo bosqinchilik yurishlari qilib turgan. Qozoqlar birlashib, ularga qarshi jang qilishga o'sha paytdagi tarixiy muhit imkoniyat bermagan. Shuning uchun qozoq folklorida ana shu doimo xavf solib turgan dushmanga nisbatan afsonaviy botirlar obrazi ko'plab uchraydi. Xalq o'zini himoya qiladigan shunday botirlarni orzu qiladi. «Er Targ'in» eposida ham ana shu g'oya yetakchilik qiladi.

Qozoq xalqi orasida «Qizjibek», «Qo'zi ko'rpesh va Bayan suluв», «Suluv shash» singari ishqiy-lirik dostonlar ham juda ko'p. Bu dostonda pok sevgi tarannum etilib, hayotning jirkanch tomonlari ochib tashlanadi, eski udumlar fosh qilinadi.

«Qo'zi ko'rpesh» va «Bayan suluв» dostonida Qo'zi va Bayan o'rtasidagi muhabbat kuylanadi. Qizning otasi Qoraboy Yetim va kambag'al yigit Qo'ziga qizini bermaydi. U o'z qavmi bilan boshqa tomonlarga ko'chib ketadi. Qoraboy o'ta ketgan xasis, shafqatsiz bo'lib, faqat o'z qo'yłari va yilqilarining sonini ko'paytirishni o'ylaydi. Hatto o'z farzandining taqdirini ham o'ylamaydi. Uning mirzolaridan biri Qodir ham o'ta ketgan razil, sotqin kimsa.

Qoraboy Bayan suluвni Qodirga bermoqchi bo'ladi. Lekin qiz bunga turmushga chiqishga rozi emas. Shundan keyin u qizni izlab kelgan Qo'zi ko'rpeshni halol kurashda engga olishiga ko'zi yetmagach, uxbab yotgan joyida uni otib o'ldiradi. Keyin Bayan suluв ham o'ladi. Qodirni quduqqa tashlab o'ldirtiradi. Asar oxirida bosh qahramonlar fojeali halok bo'ladi. Qo'zi ko'rpesh va Bayan suluвлarning qabridan qizil gullar o'sib chiqadi. Ularning o'rtasidan qora tikan o'sib chiqadi. Xalq buni Qodirning yovuz ruhi deb ataydi. Bu asar syujeti qandaydir tarafi bilan «Tohir va Zuhra» haqidagi o'zbek dostonidagi voqealarga o'xshab ketadi.

Bu asar qozoq xalq og'zaki ijodida juda mashhur bo'lган liro-epik doston bo'lib, shu asar asosida musiqali dramalar yaratilgan. Qo'zi-ko'rpesh va Bayan suluвлarning samimiyl, pokiza muhabbati asrlar davomida o'quvchilarga ibrat bo'lib kelmoqda.

XVIII-XIX asrlarda qozoq xalq og'zaki ijodida dostonchilik ayniqa rivojlandi. An'anaviy xalq qahramonlik dostonini kuylash bilan birga o'zlari ham original dostonlar yaratadigan ko'plab oqinlar, jirovlar yetishib chiqdi. Bularga misol qilib Nisanboy, Do'sxo'ja, Mahanbet Uteshov va Xolboy Mambetovlarni ko'rsatish mumkin. Bu oqinlar va jirovlar o'zlari hayot kechirgan muhitdagi ijtimoiy voqealar haqida dostonlar to'qib kuylaganlar.

Qozoqlarda xalq qahramonlik dostonlarini ijro etuvchi oqinlar o'rtasida tez-tez aytishuv (ijodiy musobaqa)lar bo'lib turgan. Shunday ijodiy aytishuvlar vaqtida har bir oqinning shoirlik va ijrochilik mahorati namoyish etilgan. Mashhur oqin Birjon sol bilan oqinalardan Sora va Suyumboy, Kunekey o'rtasida bo'lib o'tgan aytishuvlarda xotin-qiz shoiralarning mahorati tinglovchilarni maftun qilgan. Ayniqsa, Almajon Azamatova qozoq ayollari ichidan chiqqan mashhur shoira bo'lib, uning «Yetim» degan dostoni bizga meros bo'lib qolgan. Bu dostonda qozoq xalqining XIX- asrning birinchi yarmidagi og'ir hayoti, o'z baxti va haq-huquqi uchun olib borgan kurashlari aks ettirilgan. Shoiraning bu dostonida, asosan, o'z boshidan o'tgan voqealar hikoya qilinadi.

Zo'r ijrochilik mahorati va ilg'or dunyoqarashi bilan shuhrat qozongan oqinlardan biri Jambul Jabayev (1846-1945) edi. U Jambul tog'i etaklarida kambag'al oilada dunyoga keladi. Yoshlikdan nazmga qiziqqan, qo'shiqlar to'qigan Jambul ancha murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Uning o'lanlarida xalq hayotini kuylash, haqiqat uchun kurashish ishtiyoqi kuchaydi. Xalq ahvolini to'g'ri aks ettiruvchi «Kambag'alning sho'ri» she'ri, yuqori tabaqa vakillarini hajv qiluvchi «Shaltaboyga», «Qodirboyning iti» nomli asari Jambulning shuhratini butun qozoq cho'liga yoydi.

Mumtoz qozoq adabiyotining asoschilari Cho'qon Valixonov, Ibroy Oltinsarin va Abay Qo'nonboyevlardir. Cho'qon Valixonovning folklorchilik va publitsist yozuvchilik faoliyati ham katta ahamiyatga ega. O'tgan asr ma'rifatparvarlari orasida qozoq va qirg'iz xalq og'zaki ijodi asarlarini, jumladan, «Manas» dostonidan ayrim parchalarni yozib olgan birinchi tashabbuskor olim edi.

Cho'qon Valixonovning zamondoshi Ibray Oltinsarin o'zining shoirlik va ma'rifatparvarlik faoliyatini bolalarni o'qitish ishi bilan bog'lab olib bordi. Umr bo'yi o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullangan Ibroy Oltinsarin bolalarni yangi usulda tarbiyalashga alohida e'tibor berdi. O'zining ta'lim tarbiyaviy ruhdagi she'rlari bilan qozoq xalqi orasida ma'rifat tarqatish maqsadini ko'zlagan edi.

Yana bir qozoq ma'rifatparvari Ibray Oltinsarin (1841-1889) Kustanay viloyatida tug'ilib voyaga etdi. U Orenburg shahrida ochilgan rus-qozoq maktabida o'qidi. Ma'lum muddat kotiblik qildi, keyin esa o'qituvchilik kasbini tanladi. Ibray eski maktablarning talabga javob bermay qo'yganligini bilib, o'zi yangi maktablar ochdi, ularga yangi darsliklar yozdi. U butun ilmini, kuch-qobiliyatini qozoq xalqini savodli, ongli qilishga bag'ishlagan ma'rifatparvar insondir. 1864-yili yangi qozoq maktabi ochib, unda o'zi o'qituvchilik qildi. Bu maktab juda yaxshi natijalar bergenidan I.Oltinsarinning nomi tezda butun qozoq eliga tanildi. 1887-yilda Irg'izda qozoq qizlari uchun birinchi internat-maktab ochib qozoq xalqi tarixida birinchi bo'lib ayollar uchun maorif masalasini ko'tarib chiqdi.

Ibray Oltinsarin «Qozoq xrestomatiyasi» nomli kitob yozdi. Unda yosh bolalar dunyoqarashiga mos ko'plab yengil she'rlar, hikoyalari to'plangan edi. Bunga rus va jahon adabiyoti namunalaridan ham asarlar kiritilgan edi. «O'rmakchi, chumoli va qaldirg'och» nomli hikoyada mehnat kishini baxtli qilishimi, yalqovlik esa insonni tubanlikka yetaklashini obrazli qilib tushuntirib berdi. Uning «Saxiy Xotamtoy» hikoyasida esa halol mehnat qilib, non topish kishining eng yaxshi fazilati deb xulosa keltiriladi. Bu hikoya Navoiyning «Xotamtoy hikoyati»dan ta'sirlanib yozilgan. Uning «Dono qiz» nomli hikoyasida otasi podshoning g'azabiga uchrab qo'li kestirilayotgan paytda, podshoga iltijo qilib, otam o'miga mening qo'limni kesinglar, chunki u bizning oilamizning yagona boquvchisi, deydi. Hikoya qizning taqdiri hikoya qilinadi.

Bulardan tashqari «Ona va o'g'il», »Hasan va Husan», «Og'riqdan ham, og'ir qayg'u» kabi hikoyalari ham axloqiy-tarbiyaviy mavzuda yaratilgan. U bolalarga atab ko'plab asarlar yozdi va chet el adabiyotidan ham anchagina

asarlarni tarjima qildi. Yozuvchining «Qipchoq Saidqul» nomli hikoyasida ham o'troqlashib borayotgan qozoqlarning hayotida mehnatning roli haqida gap boradi. Ibray Oltinsarinning yana bir xizmati, u qozoq nazmida she'riy yo'lida yozilgan masallar janriga asos soldi. Bunda u rus yozuvchisi I. Krilov an'analaridan foydalandi. Shoirning «Yoz», «Daryo», «Yoz kelmoqda» nomli she'rlari peyzaj lirkasining go'zal namunalari bo'lib hisoblanadi. U siyosiy va didaktik xaraktyerdagi she'rlar yozib, bu sohada ham birinchilardan bo'ldi.

Mumtoz qozoq adabiyotining otasi Abay Qo'nonboyev o'z she'riy va nasriy ijodi hamda ma'rifatparvarlik faoliyati bilan qozoq adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Ularning ijodi XIX asr qozoq adabiyotida yangi voqeа edi. Bu yozuvchilarning ijodi tufayli qozoq mumtoz adabiyoti yuqori pog'onaga ko'tarildi.

Abay she'riyatni xalq hayotiga yaqinlashtirdi, o'z lirkasida ilg'or g'oyalarni tarannum etdi.

Abay Qo'nonboyevning lirkasi xalq hayotini aks ettiruvchi tasirchan sho'x lirkadir. Uning ko'pincha do'mbira yordamida ijro etilgan va qisman yozib qoldirilgan o'lanlari turli tuman mavzularda ijro qilingan edi. Abay «Sho'rlik qozog'im» she'rida qozoq sahrosidagi tarqoq urug' va qabilalarini birlashishga, inoq yashashga da'vat etsa, «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi» she'rida boylik bilan kambag'allik o'rtasidagi katta farqni realistik satrlarda chizadi. Abay 1885-yilda yozgan bir she'rida ilm va hunar o'rganishning ahamiyatini shunday talqin qiladi:

*Yoshlikda bilim izlab yugurmadim,
Hayron bo'ldim, biroq yuz o'girmadim,
Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq,
Kechikib qo'l cho'zdim-u, ulgurmadim.
Izlasam bo'larmidim shunchalik xor?*

Qozoq adabiyoti taraqqiyotining birinchi bosqichida she'riyat yetakchi o'rinda turadi.

30-40-yillarga kelib, qozoq adabiyotida dostonchilikning rivojlanishiga bo'lган urinishlar yaxshi natija berdi.

Ikkinci jahon urushi yillari qozoq she'riyati o'zining ko'tarinki ruhi bilan ajralib turdi. Bu davrda adabiyotga kirib kelgan Qosim Omonjolov, Xolijon Bekxojin, Sirbay Mavlenov singari yoshlarning ovozi keksa avlodga mansub shoirlarning ovoziga hamoxang bo'ldi. Urushdan so'nggi davrda nasr yetakchi janrga aylangan bo'lsa-da, nazm ham adabiyotning umumiy taraqqiyotidan keyinda qolmadi. XIX asr o'rtalarida shakllangan nasr janri o'ziga xos mavqeni egalladi. I.Kubeev, M. Avezov, S.Muqanov, G'.Musrepov va G'.Mustafinlarning romanlarida qozoq xalqi bosib o'tgan shonli tarixiy yo'l o'z aksini topdi. O'z ijodini she'r yozishdan boshlagan Sobit Muqanov 30-yillarga kelib, nasriy asarlar yozishga kirishdi. Uning katta hajmdagi nasriy asarlari orasida «Temirtas», «Bo'tako'z», «Hayot maktabi» va «Polvon cho'loq» kabi roman va qissalari alohida ajralib turadi. Muqanovning bu nasriy asarlari tarixiy va zamonaviy mavzularda yozilgan.

Iskandar Kubayev qozoq ma'rifatparvari I.Oltinsarin ochgan maktabda o'qib savodini chiqardi. Keyin ko'proq mustaqil bilim olishga intilib, nihoyat o'z davrining yetuk ziyolilaridan biri bo'ldi. U o'z ijodini badiiy tarjimalardan boshlagan. 1910-yilda rus masalchisi I.Krilovninng ko'pgina asarlarini qozoq tiliga o'girdi. 1912-yilda I.Ko'bayer «Namunali o'quvchi» nomli majmuasini nashr ettirdi. Bunga folkordan olingan va o'zining ijodidan ko'plab asarlarni kiritdi.

S. Muqanov ikkinchi katta nasriy asari – «Bo'tako'z» romani ustida 15 yil ishladi. Roman qozoq xalqi hayotidagi yaxlit bir tarixiy davr: 1914-1920-yillar orasida yuz bergen muhim ijtimoiy hodisa-voqealar tasviriga bag'ishlangan.

S.Muqanovning tarixiy avtobiografik romani bo'lgan «Hayot maktabi» uning eng yaxshi asarlaridan biridir. Romandagi kichik-kichik mustaqil, lekin mazmunan bir-biriga uzviy bog'langan hikoyalarida qozoq xalqining o'sha davrdagi hayotini zo'r mahorat bilan tasvirlagan. Shuning uchun S.Muqanov yaratgan podachi bola Sobit, batrak Muqan, Sobitning akasi Mustafo, o'qituvchi Mo'ldag'ozi, oqin G'abdullo obrazlari keng kitobxonlar ommasining sevimli qahramonlari qatoridan o'rin oldi.

Muxtor Avezov o'zining «Abay» dramasida hayotni tarixan to'g'ri va haqqoniy aks ettirish namunalarini ko'rsatdi. M.Avezovning bu sahna asarlari qozoq milliy teatrining shakllanishida muhim o'rinni egalladi. Muxtor Avezov nasrga dramaturgiya orqali kirib keldi. Uning «Qarash-qarash», «Burgutli ovchi», «Izlar», «Yelkama-yelka» nomli nasriy asarlarida yozuvchining nazari bilan aks ettirish mahorati ko'zga tashlanadi.

Yozuvchi G'abidin Musrepov ham yirik nasriy asarlar muallifidir. Uning qalamiga mansub «Qozoq askari» va «Uyg'ongan o'lka» romanlari g'oyaviy badiiy yetuk asarlar sifatida urushdan so'nggi yillardagi qozoq romanchiligiga qo'shilgan salmoqli hissadir.

«Qozoq askari» qozoq xalqi hayotida yuz bergan chuqur ijtimoiy o'zgarishlardan maroqli hikoya qiluvchi romandir. Bu asarda Xayrushning bolalar uyidagi sarguzashtlaridan tortib, urush maydonidagi qahramonliklarigacha tasvirlangan.

Shu vaqtgacha qozoq tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan o'nlab asarlar orasida Muxtor Avezovning to'rt jildli «Abay», G'. Mustafinning «Qarag'anda», «Chig'anoq», G'. Musrepovning «Qozoq askari» romanlari, shuningdek, Jambul Jabayevning eng yaxshi she'rlari, T. Jarakov, Q. Omonjolovlarning dostonlari, S. Begalinning «Ona mehri» hikoyalar to'plami o'zbek kitobxonlariga juda katta badiiy zavq beradi. Uning qalamiga mansub «Qozoq askari» va «Uyg'ongan o'lka» romanlari g'oyaviy badiiy yetuk asarlar sifatida urushdan so'nggi yillardagi qozoq romanchiligiga qo'shilgan salmoqli hissadir.

Urush va undan keyingi davr qozoq adabiyotida yangi talantli yozuvchilar yetishib chiqdi. Bu davrda, asosan, she'riyat yetakchilik qildi. Urushdan keyingi yillar qozoq adabiyotida bir qancha dostonlar yaratildi. Bu dostonlarning ko'pchiligi zamонавиy mavzuda bo'lib, zamondoshlar obrazi aks ettirilgan edi. J.Moldag'aliyevning «Musa Jalil» nomli dostoni buyuk tatar shoiri Musa Jalilning porloq xotirasiga bag'ishlangan bo'lsa, G.Qairbekovning «Ibray Oltinsarin» asari esa buyuk qozoq ma'rifatparvar shoiri hayotiga bag'ishlangan edi.

G'abidin Mustafinning birinchi yirik asari –«Hayot va mamot» avtobiografik xususiyatga ega (asar qayta ishlanib, 1947-yil «Qarag'anda» nomi ostida bosilib chiqdi). Unda muallim Qozoq ishchilari sinfining shakllanishi va rivojlanishi mavzuini yoritadi. Qarag'anda ko'mir konlariga ishlash uchun kelgan ko'chmanchi qozoqlar asarning asosiy qahramonlaridir.

Ko'mir konlaridagi hayot qozoqlar taqdirini tubdan o'zgartirib yuboradi. Shu nuqtai nazardan romandagi keksa Jumaboy yosh yigit Jonabil ko'chmanchi Boqay, ishchi Ermaklarning haqqoniy chizilgan timsollari ahamiyatlidir.

Qozoq kinodramaturgiysi ham jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritgan. Ekranlarda muvaffaqiyatli namoyish etilgan «Ona», «Aldar ko'sa», «Sevgi dostoni», «Bo'tako'z» va shunga o'xhash badiiy filmlar fikrimiz dalili bo'la oladi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Nima uchun XIX-XVIII asarlarda qozoq xalq og'zaki ijodida dostonchilik keng taraqqiy etdi?
2. Jambul Jabayev ijodining qozoq xalq og'zaki ijodida tutgan o'rnnini aniqlang?
3. Qozoq yozma adabiyoti qaysi davrdan shakllana boshladи?
4. Yozma adabiyotning dastlabki vakillari ijodida qanday g'oyalar yetakchi xususiyatga ega?
5. Qozog'istonda qaysi o'zbek yozuvchilarining romanlari qozoq tilida nashr qilindi?
6. Qozoq dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy yetuk sahna asarlari haqida so'zlang?
7. Qozoq xalq qahramonlik dostonlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Mumtoz qozoq adabiyotining rivoji to'g'risida so'zlang?
9. Shoir Abay qozoq she'riyatiga qanday janrni olib kirdi?
10. Birinchi qozoq kompozitori kim?
11. **Qahramonlik dostonlarini aniqlang.**
 - A. «Qambar botir», «Qublandi botir».
 - B. «Kambag'alning sho'ri», «Qambar botir».

S. «Qizjibek», «Qodirboyning iti».

D. «Suluvshash», «Er Targ'in»

12. Ishqiy lirik dostonlarni belgilang

A. «Qizjibek», «Suluvshash».

B. «Qambar botir», «Er Targ'in».

S. «Suluvshash», «Er targ'in».

D. «Kizjibek», «Kublandi botir»

13. G'. Mustafinning «Qarag'anda» asari dastlab qanday nomlangan?

A. «Hayot va mamot»

B. «Uygongan o'lka»

S. «Millioner»

D. «Englik - Kebek»

14. Mumtoz qozoq adabiyotining asoschilarini belgilang.

A. Cho'qon Valixonov, Ibroy Oltinsarin va Abay Qo'nonboev

B. Nisanboy, Do'sxo'ja, Mahanbet Utoshov va Xolboy Mambetov

S. I.Kubeyev, M. Avezov, S.Muqanov, G'.Musrepov

D. Qosim Omonjolov, Xolijon Bekxojin, Sirbay Mavlenov

15. S. Muqanovning nasriy asarini belgilang.

A. «Bo'tako'z»

B. «Temirtas»

S. «Polvon cho'loq»

D. «Hayot maktabi»


**16. Erk berdim saylovga deydi o'ris,
Kimniki saylasang, derman durust.
Buzilsa buzildi, tuzalmadi,
U to'ra bo'lgach ham bizning ulus.
Ushbu misralar muallifini belgilang.**

A. O'.Sulaymonov

B. Abay

S. Maxtumquli

D. Emro



Mavzu: Abay Qo'nonboyev

Reja:

1. Abay she'riyati.
2. Shoirning dostonlari.
3. Abay proza (nasr) si.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Abay va rus adabiyoti, Abay va Qo'nonboy, she'riyati, tarjimachilik faoliyati, dostonlari, nasrdagi ijodi.

Dars maqsadi: Shoirning hayoti, ilm o'rganishi va she'riyati xususida ma'lumot berish. Uning dostonlari haqida tushuncha berib, nasrdagi ijodini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Abay tug'ilgan va voyaga yetgan oila to'g'risida so'zlaydi.
2. Abay dunyoqarashiga turtki bo'lган xususiyatlarni izohlaydi.
3. Abay she'rlarini tahlil qiladi.
4. Abay dostonlari to'g'risida umumiyligi ma'lumot beradi.
5. «Aqliya» («Nasihatlar») asarining yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan omillarini tushuntiradi.
6. Abayning nasrdagi ijodiga baho beradi.



Keys-stadi

Vaziyat: Qozoq mumtoz adabiyotini o'zining sermahsul she'rlari bilan boyitgan Abay she'riy asarlarida ham, dostonlarida hamadolat, haqiqat, jabr-zulmga qarshi norozilik motivlarini ilgari suradi.

Savollar: Nima uchun ijtimoiy tengsizlik, xalqning baxtsizliklari Abayning she’riyati, dostonlarida, nasrdagi ijodida o’zining yorqin ifodasini topdi? Abay lirikasining mazmun-mohiyati mahzun tus olganligining sabablari nimada?

Buyuk qozoq shoiri Ibrohim Qo’nonboy o’g’li Abay 1845-yil 10-avgustda Semipalatinsk viloyatida shu o’lkaning og’a-sultonini biy Qo’nonboy oilasida tug’ilib voyaga yetdi. U boshlangich ma’lumotni qishlog’ida oldi. 10 yoshidan boshlab Semipalatinsk shahridagi Ahmad Roziya madrasasida o’qidi. Biroq Abayni o’ziga voris qilib qoldirmoqchi bo’lgan Qo’nonboy o’g’li 13 yoshga to’lgach, Abayni o’qishdan chiqarib olib ovulga keladi hamda uni qozoq cho’llarini boshqarishning ma’muriy masalalariga, qozoq boylari o’rtasida avj olib ketgan feodal nizolarga torta boshlaydi. Abay otasining turli topshiriqlari bo'yicha qo'shni urug'larga qatnab, o'zaro nizolarni bartaraf etish jarayonida mavjud feodal-urug'chilik tartiblarining noma'qulligini, adolatsizligini, mehnatkash xalq, bir tomondan, podsho ma'muriyati ikkinchi tomondan, mahalliy feodallar, binobarin, Abayning o'z otasi Qo'nonboy va uning odamlari zulmi ostida og'ir jabr-sitamlarga duchor etilayotganini ko'rdi. 16 yoshga to'lganida esa, bo'lajak shoir feodal urf-odat nobopligini bevosita o'z yelkasida sinab ko'rdi. Qozoq urf-odatlariga rioya qilgan Qo'nonboy Abayga u sevmagan qizni majburlab olib beradi. Yosh Abay o'z oilasi misolida xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi huquqsizligini ko'radi.

Yoshlikdan qozoq xalq og'zaki ijodi, qozoq va boshqa xalqlar yozma adabiyoti bilan tanishadi. Bo'lajak shoir o'zbek, ozarbayjon, fors-tojik, hind mumtoz adabiyoti asarlarini o'rgangan. Xali yigit paytidayoq yozgan bir she'rida (1858) u shunday yozadi:

*Fo'zuly, Shamsiy, Sayqaliy,
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy
Xo'ja Xofiz - bu hammangiz,
Madad bering qilmay osiy.*

Abay rus adabiyoti asarlari bilan tanisha boshlaydi. Rus tilini yaxshi o'rganishga kirishadi. G'arbiy Evropa falsafasi bilan ham qiziqadi. U, ayniqsa, Gyote, Bayron, Aristotel, Suqrot, Darwin asarlari bilan tanishadi. Gyote va Bayron asarlarini qozoq tiliga tarjima qiladi.

Abay Pushkin, Lermontov, Krilov, Saltikov-Shchedrin ijodiga hurmat bilan qaradi. Abayning fikrlash doirasi naqadar keng bo'lган. Asta-sekin unda buyuk ma'rifatparvar va o'z xalqining baxt-saodati uchun timay kurashgan inson xarakteri shakllana boradi. Tez orada Abay bepoyon qozoq cho'llari bo'y lab mashhur shoир va jamoat arbobi sifatida taniladi. Ijtimoiy tengsizlik, xalqning baxtsizliklari Abayning she'riyati, dostonlarida, nasrdagi ijodida o'zining yorqin ifodasini topdi. Abay juda yoshligidan she'rlar to'qiy boshladi. Uning ijodi, dunyoqarashi chuqur xalqchillik, vatanparvarlik, insonparvarlik bilan to'ladir. Keng xalq ommasi Abayga cheksiz ishonar edi.

Biylar sudida Abay har doimadolat tomonini olar, qozoq kambag'allari manfaatini himoya qilar edi. Unga zo'r shuhrat keltirgan sabablardan biri ham shunda. Abay ijodi janr nuqtai nazaridan xilma-xildir. U juda ko'plab lirk she'rlar, dostonlar yaratgan. Abay ijodining uchta asosiy manbai bor. Bular qozoq folklori, sharq adabiyoti hamda rus mumtoz adabiyotidir.

Abay ijodi qozoq adabiyotining cho'qqisidir.

Abay ko'pgina asarlarni qozoq tiliga tarjima qildi, u rus adabiyotidan A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she'riy romanidan parchalar, M.Yu.Lermentovning 26 she'rini, I.A.Krilovning 20 ta masalini qozoq tiliga tarjima qildi.

abayning asrning 80-90- yillarda yozilgan «Bahor», «Kuz» she'rlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. U mazkur she'rlarida qozoq xalqining turmush lavhalarini haqqoniy aks ettiradi.

Birovlar- po'stin tikar, terisi mo'l,

Birovlar-juldur chakmon, kezadi cho'l,

Biy uchun kigiz bosar gala cho'ri

Birovlar kuni uchun oladi yo'l.

*Ko'ngilsiz qora sovuq qirda yursang,
Birov kelib qaramas yolg'iz o'lsang.
Go'daklar och ingrashar kampir ham chol,
Itlar ham och ingrashar qayda ko'rsang.*

Yoki:

*Gadoy sho'rlik yuradi poda boqib,
O'tini yo'q ilinsa olov yoqib.
Xotin urchuq yigirar, yung savalab,
Chakmon tikar sovuqda yelka qoqib.
Juldur o'tov ichida muzlar go'dak,
Na quyuq, na suyug'i...bo'zlar go'dak
Churuk kigiz ostida titrar bobo,
Tushida go'sht kirganin so'ylar go'dak.*

Bu misralarda yeishga parcha non topa olmagan, jabr-zulm tufayli yo'qchilik, qashshoqlik, ochlik, o'pqoniga uloqtirilgan g'arib va miskinlarning tasviri berilgan. Xalq manfaatini kuylash, xalqning orzu-istiklarini ifodalash, uning g'am-kulfatlariga she'rik bo'lish Abay ijodidagi bosh g'oyadir. Shoir qozoq xalqi boshiga tushayotgan ko'rguliklarni johillikdan deb biladi va shuning uchun ham o'z asarlarida ma'rifatparlik g'oyalari ilgari suradi.

Abay Semipalatinskka kelgan paytlarida o'z xomiyligi ostida o'qiyotgan bolalarning ahvoldan xabar oladi. Ularga bag'ishlab pand-nasihat ruhidagi she'rlar yozadi. Bu she'rlarning asosiy mazmuni ilm-fanning foydalari haqida, yaxshi insoniy fazilatlar xususida bo'lar edi.

Abay ijodida xotin-qizlarning o'rni masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Shoirning «Yarqiroq oq kumushday», «Yigitlar, uyin arzon», «Azizim» she'rlari bunga misol bo'la oladi. Bu she'rlarda yorning go'zalligi, chinakam insoniy sevgi muhabbatda tenglik va ixtiyoriylik g'oyalari ilgari suriladi.

*Chin yurakdan sevsə ekan, kimki sevsə,
O'z so'zida tursa ekan, yonsa, kuysa.
Bir xil nozik, ipak kabi bo'z bolalar,*

*Arzon bo'yoq kabi aynir bir nam teksa.
Xotining seni suysa, sen uni suy,
Birga yonib, birga shodlan, bir o'tda kuy.
Er aqli, xotini-chi dono, lobar,
Totuv bo'lib yashasa, gullaydi uy.
Bezangan, moli ko'p deb boydan olma,
Yo'qsil qizi arzon deb hech xo'rlama.
Ori bor, aqli bor, nomusi bor,
Ota- ona qizidan g'ofil qolma.*

Abay she'riy asarlarida ham, dostonlarida ham adolat, haqiqat, jabr-zulmga qarshi norozilik motivlarini ilgari suradi.

Shoir «O'lan» she'r in i quyidagicha yozgan edi:

*Men o'lanni yozmayman ermak uchun,
O'tkan - ketgan gaplarni termak uchun.
Men o'lanni yozaman tushunganga,
Avlodimga bir saboq bermak uchun.*

Abay dastavval iste'dodli lirik shoirdir. Shoir sodda xalq qo'shiqlariga hamoxang, pishiq misralarda chuqur ijtimoiy masalalarni bera oladi, serjilo tabiat manzaralarini yaratadi.

«Jim-jim ko'nglim, jim ko'nglim» degan misralar bilan boshlanuvchi she'rlari esa qandaydir tomoni bilan Sharq tasavvuf she'riyati an'analarini eslatadi. Chunki bu she'rda shoir insonning ko'ngli, nafsi nimalarni tilamaydi. Uni jilovlash lozim, aks holda insonni xarob qiladi, degan fikrlarni aytadi. Abay she'riyati sinchiklab tahlil qilinsa, unda Ahmad Yassaviy she'riyatining an'analari ham anchagina ekanligiga iqror bo'lamicha.

Abaydan bizgacha «Ma'sud», «Iskandar», «Azim qissasi» («Ming bir kecha» dan), «Vadim» dostonlari, «Aqliya» («Nasihatlari») nomli asarlari yetib keldi. Shulardan «Azim qissasi» va «Vadim» tugallanmay qolgan.

«Ma'sud» - qissasi syujetli voqeа tuguniga, rivojiga, kulminatsiyasi va yechimiga ega bo'lган asar. Asar voqealari Bog'dod va uning atrofida bo'lib

o'tadi. Dostonda Ma'sud nomli halol va pokiza yigitning bir qariya cholni qaroqchilardan himoya qilib mardlik va jasorat ko'rsatgani, buning evaziga qariya unga pul taklif qilganda, u rad etib bu ishni savob uchun, odamgarchilik uchun qilganini aytadi. Ma'sudni qariya yaxshi tilaklar bilan duo qiladi. Xalqdagi «oltin olma, duo ol» degan maqolga rioya qilgan Ma'sud keyinchalik adolatli shoh bo'lib yetishadi. Aslida bu duo qilgan qariya Xo'jayi Xidir edi.

Dostonda ana shu rivoyat asosiy mavzu qilib olinib, Abay uni o'z zamoniga moslab o'zgartirishlar kiritgan. Ma'sud qandaydir arab yigit emas, balki o'quvchi ko'z oldida oddiy, mard, qozoq yigitiday gavdalanadi.

Iskandar - jahon adabiyotining ko'hna mavzularidan bo'lib, mashhur sarkarda Aleksandr Makedonskiy ekanligi m'alum. G'arbu Sharqning talay qalamkashlari Iskandar haqida ko'plab qissalar, romanlar, dostonlar yaratganlar. Biroq har bir muallif Iskandar timsoliga turlicha yondashib, turlicha talqin qildi.

Aleksandr haqida o'z zamonida ham, o'zidan keyin ham ko'p yozilgan. Frantsiya, Angliya, Germaniya, Ispaniya, Italiyada Aleksandr to'g'risida ko'p sonli romanlar vujudga keldi. Shu mavzuda o'rta asrlar Sharqida paydo bo'lgan eng muhim asarlar Firdavsiy «Shohnoma»si, Nizomiy «Iskandarnoma»si, Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidir.

Xullas, Iskandar dunyo adabiyotidan keng o'rin olgan adabiy qahramonlardan biri.

Abay Iskandar haqida boy adabiyot bilan tanishganligi shubhasiz. U tarixiy asarlarni ham yaxshi bilgan. Lekin Abay bu dostonida Iskandarni maqtamasdan, uni tanqid qilish yo'lidan bordi. Asarda Filip o'g'li Iskandarning qo'shni mamlakatlarni bosib olgani bilan qanoatlanmay, katta qo'shin to'plab butun dunyoni bosib olish uchun harakat qilgani, biroq oqibatda bu ishning uddasidan chiqmagani hikoya qilinadi. Iskandar o'z qo'shini bilan jazirama cho'lni kesib o'tib, bir toqqa duch keladi. Tog'ning darasiga kirishda katta oltin darvoza unga to'siq bo'ladi. U qancha urinmasin bu darvozani buzib, narigi tomonga o'tolmaydi. Iskandarning jahli chiqib, darvozani och, men butun dunyo hukmdori Iskandar bo'laman, deydi. G'oyibdan «Ijozat yo'q, bu - tangri eshidigidir» degan nido keladi.

Yer yuzini yenggan Iskandar men bo'laman, «U - xudo, men podsho, nima bo'pti, eng so'nggi qal'a uchun kelganman!» - deb dag'dag'a qilsa ham qasr ochilmaydi. Nihoyat Iskandar: «Qal'angni-ku ochmading, hech bo'lmasa birorta hadya ber, odamlarimga ko'rsatay» - deydi. Shunda tepadan bir tugun kelib tushadi. Ochib qarasa, tugun to'la suyaklar. Shoh g'azabdan tutaqib, tugunni irg'itadi. Shu payt Arastu yaqin kelib, «Shoh, bu tortiq bejiz emas, ogoh bo'lki, bu - xosiyatl suyak», deydi. Iskandar noiloj qolib, «Mayli, ko'raylikchi», suyak og'irmi yo oltin, tarozini keltiring,- deb farmon beradi. Tarozining bir pallasiga oltin - kumushlar to'ldirib, bir pallasiga bitta suyak qo'yishadi. Suyak og'irlik qiladi. Xullas, Iskandarning butun xazinasini taroziga qo'yanlarida ham suyak vazmin chiqaveribdi.

Abay insondagi ochko'zlikni, dunyoga to'ymaslikni tanqid qilib, uni bir qism tuproq to'ydiradi, degan naql bilan dostonni tugallaydi. Iskandar o'yga tolib, barcha ishlarim bekor ekan deydi va o'z yurtiga qaytib ketadi.

Ana shu Iskandar hayotidan olingan bir lavha juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ham buyuk shoir Abayning ko'p qirrali olmos iste'dodidan xabar beradi.

G'arazgo'y, qizg'anchoq, ochko'z, qora yurakli, qonxo'r, besabr Iskandarga donishmand olim Aristotel qarama-qarshi qo'yiladi.

Qisqasi, Iskandar obrazini salbiy qilib yaratganda Abay tarixiy haqiqatga asoslangan. XIX asrning II yarmida qozoq xalqi uchun hayotiy masala urush emas, balki o'qish, hunar, madaniyat egallash edi. Iskandarga Aristotelni ibrat qilib tasvirlash shoirning marifaparavarlik, insonparvarlik g'oyalariga mos edi.

Abay- donishmand shoir. Har bir dono odam o'tgan umriga ko'z tashlab, tevarak atrofidagilarni kuzatib, undan o'zicha xulosa chiqaradi, o'zining hayotidagi o'y-mulohazalarini keyingi avlodlarga qoldirishga harakat qiladi. Abay ham turmush tajribalarini umumlashtiruvchi shunday asar yozishga kirishadi. «Aqliya» («Nasihatlar») nomli asari shu tarzda yuzaga keldi. Abayning «Nasihatlar»i jami 43 so'zdan (bobdan) iborat bo'lib, bular badiiy hikoyalar emas, balki turmush, jamiyat, inson umri va faoliyati, ilm-hunar, do'stlik, oljanoblik, mehnatsevarlik,

halollik va hokazolar haqidagi pand-nasihat, axloqiy - didaktik mazmunli fikrlar, falsafiy umumlashmalar, xulosalardir.

Abay «birinchi so'z»da: «Oxiri shunday qarorga keldim: hayolimga kelgan narsalarni oq qog'ozga yozaverayin, oq qog'oz bilan qora siyohni ermak qilayin. Kimda-kim bundan o'ziga kerakli so'z topsa - yozib olsin, yo o'qisin, keragi yo'q desa -o'z so'zim o'zimniki, boshqada hech bir ishim yo'q, dedim -da, nihoyat, yozishga o'tirdim»-deydi.

Abay o'ta qisqa, goho bir bet, -yarim betlik o'gitlarida o'z zamonasidagi muhim bir ijtimoiy masalani o'rtaga qo'yadi. Ko'p boblar o'z mavzusiga, o'z g'oyaviy mazmuniga ega, zero bu boblar bir- birini to'ldiradi, bir - birini taqozo etadi.

Masalan, «Yettinchi», «O'ttiz birinchi», «O'n to'qqizinchi» so'zlari muallifning ilm -hunar, uni qanday egallah xususidagi o'y - fikrlarini o'z ichiga olgan. «Yettinchi so'z» da Abay yozadi: «Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo'lmasa yuzakiroq bo'lsa ham bilmaslik - bu odamgarchilikdan emas. Shuni ham bilmaganidan keyin, bu odam - odam emas, balki hayvondan hech farqi yo'qdir».

«Olti, «Sakkiz», O'n birinchi - so'zlar xalq birligi, ahillik masalasiga bag'ishlangan.

Yozuvchi «Birlik - qo'rangdagi molda emas, tushunchangda bo'lishi kerak» (6-so'z) desa, ilm-fanga, hunarga intilmay, butun kuchini mol-dunyo to'plashga sarflovchi boylar haqida: «ko'ngillari to'q, g'amlari yo'q, ko'zlari osmonda, ular uchun halol-harom, aql-idroq, ilm -fan kabi narsalar mol-dunyodan qimmat emas. Mol bo'lsa Allojni ham pora bilan sotib ham, aql-idroki, el-u yurti, ilm-hunari, ornomusi, yaqin-yirog'i hamma-hammasi mol-dunyo», - deb ularni qattiq fosh etadi.

2-so'z shoir zamondoshlarining asossiz maqtanchoqligi, boshqa xalqlarga hurmat bilan qarash, ularning yaxshi fazilat va ilm-hunarlarini o'zlashtirish, 3-so'z o'zaro dushmanlikning sabablari va zarari, 4-so'z o'rinsiz kulgingining bema'niliği, umrni befoyda o'tkazmaslik, mehnatsevarlik, 10-so'z bola tarbiyasiga, 11- so'z XIX asr qozoq jamiyatidagi o'grilik, igmaqarlik, manfaatparaslik, aldoqchilik,

talonchilik kabi yaramas illatlarni fosh etishga, 12-so'z marifat masalalariga bagishlanadi.

Jamiyatni, odamlarni marifatli qilish yo'li bilan yaxshilashga yozuvchi 10-so'zda «Ilmsiz oxirat ham yo'q, dunyo ham», 12 - so'zda «... Ilm o'rganishni hamisha davom ettiraverish kerak. Agar kimda - kim uni to'la o'rganmay turib, shu bilganim yetadi, deb bor bilimiga qanoat hosil qilsa -u odamni xudo urgani: Uning qilgan toat - ibodati ham oxiratda qabul qilinmaydi», - deydi.

Abayning e'tiqodiga ko'ra, adabiyot, she'r va shoir xalqqa xizmat qilishi kerak, odamlarni oljanob fazilatlarga o'rgatish lozim. Shunday fazilatlardan eng muhimi esa mehnatsevarlik, halol mehnat qilishdir. Abay mehnatni tirikchilik vositasigina emas, balki insonlik qadr - qimmatining, ijtimoiy burchning mezoni deb hisoblaydi.

Shu jihatdan shoirning butun ijodi chinakam hayot darsligi bo'la oladi. 15 - so'zdan olingan mana bu parcha ustida o'ylanib ko'ringchi: «Agarda sen ham aqli kishilarning safida bo'lging kelsa, har kuni bir marta, yo haftada bir marta o'zingga o'zing hisob ber! O'tgan umringni qanday o'tkazibsan: yo ilmga, yo jamiyatga va yo o'zingga foydali biror ish qilib vaqt o'tkazganining o'zing ham sezmay qolibsanmi? Yoki qanday qilib vaqt o'tkazganining o'zing ham sezmay qolibsanmi?»

Abay yuqori tabaqalarni emas, kambagal qashshoqlarni o'ziga do'st deb bildi. «Nasihatlar»dan xuddi shu kunlarda qozoqlarning ichidan kimni yaxshi ko'ray, kimni qadrlay, deb o'yladim. Albatta o'z mehnati bilan o'zini boqa olmay, o'g'ri, zolim, shumlargacha yem bo'lib yurgan chin ma'noda mehnatkash chorvadorni qadrlamasam, shularning baxtini tilasam bo'lmaydi, shundan o'zgani topa olmadim», degan Abay bechora xalq ikki tomonlama zulm ostida qolganligini ko'rib ularga qatiq achinadi:

Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim!

Qorong'uda yo'l topmay hayron yurtim!

Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,

Og'zida ham qon, ham moy sarson yurtim.

deb fig'on qildi. Shunday bo'lsa-da, u keljakka umid bilan qaradi, erkin hayotga ishondi. Xalq uchun yashab, xalq uchun ijod qilgan, bir umr xalq baxtini, tinchligini kuylagan va kurashganlar hech qachon o'lmaydi.

Abayning o'g'illari Mag'avi va Oqilbeklar ham otasining yo'lidan borib bir qancha asarlar yaratib, qozoq adabiyotining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shgan. Abayning lirik she'rlari turli mavzularda yozilgan. Lekin ularning ko'pchiligini ilm-hunar o'rganishga, savodli bo'lishga chorlovchi ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlar tashkil etadi. Bu fikrlarimizni shoirning quyidagi misralari ham isbotlaydi.

Yoshlikda bilim izlab yugurmadi
Hayron bo'ldim, biroq yuz o'girmadim,
Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq,
Kechikib qo'l cho'zdimu, ulgurolmadim
Izlasam, bo'larmidim shunchalik xor?

Abay Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy xalqlari ichida o'zbeklarni ma'naviyat va ma'rifat tomonidan ilg'or xalq deb bilib, o'z yurtdoshlariga ibrat qilib ko'rsatdi. Shu bilan birga o'zbeklarning iqtisod sohasidagi yutuqlaridan ham o'rnak olish kerakligini uqtirdi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Abay yashagan davrdagi tarixiy sharoit to'g'risida ma'lumot bering.
2. Abay dunyoqarashining o'zgarishiga qanday omillar turtki bo'lган?
3. Shoir she'riyatining o'ziga xosligi sifatida nimani ko'rsatish mumkin?
4. Uning she'rlarida marifatparvarlik g'oyalari qanday aks etgan?
5. Shoir she'rlarida hayot haqiqatining aks etishi haqida nimalar deya olasiz?
6. «Kuz» she'rida qanday g'oyalalar ifodalangan?
7. Abayning tarjimonlik faoliyatini baholang.
8. «Yarqiroq oq kumushday», «Yigitlar, uyin arzon», «Yig'lama Magish, azizim» she'rlari qanday mavzuda yaratilgan?
9. «Ma'sud» dostonida qanday muammolar ko'tarilgan?
10. «Ma'sud» dostonidagi voqealar qayerda bo'lib o'tadi?

11. Abayning «Iskandar» dostoni Sharq adabiyotidagi Iskandar to'g'risidagi boshqa dostonlardan nimasi bilan farq qiladi?
12. Dostondagi Iskandar obrazi orqali qanday muammolar ko'tarilgan?
13. Aristotel obrazi Abayning qaysi dostonida uchraydi?
14. Abayning «Nasihatlar»asarini hayot darsligi deyish mumkinmi?
15. Abay «Nasihatlar»ida rus madaniyatiga qanday baho beradi?
- 16. «Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bulmasa yuzakiroq bo'lsa ham bilmaslik - bu odamgarchilikdan emas. Shuni ham bilmaganidan keyin, bu odam - odam emas, balki hayvondan hech farki йўқдир», degan adibni belgilang.**
- A. Muxtor Avezov
- B. Abay
- S. Ch.Aytmatov
- D. M. Toqomboev
- 17. Abayning qaysi qissalari tugallanmay qolgan?**
- A. «Azim qissasi» va «Vadim»
- B. «Mas'ud», «Iskandar»
- C. «Aqliya» («Nasixatlari»), «Iskandar»
- D. «Aqliya», «Mas'ud»
- 18. Yoshlikda bilim izlab yugurmadim,
Hayron bo'ldim, biroq yuz o'girmadim,
Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq,
Kechikib qo'l cho'zdim-u, ulgurmadim.
Izlasam bo'larmidim shunchalik xor?**
- 19. Ushbu misralar qozoq shoirlaridan kimning qalamiga mansub?**
- A. Abay Qo'nonboyev
- B. Cho'qon Valixonov,
- S. Ibroy Oltinsarin
- D. Sirbay Mavlenov



Mavzu: Muxtor Avezov

REJA:

1. Muxtor Avezovning hayoti va ijodi.
2. M.Avezov - romannavis.
3. Muxtor Avezov hikoyalariidagi yetakchi xususiyat.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Yoshligi, ilm o'rganishi, ijodga kirib kelishi, dramaturgiyasi, «Abay» romanining yaratilish tarixi, hikoyalari, qissalari.

Dars maqsadi: M.Avezovning hayoti va ijodi, xususan, hikoya, qissa va daramaturgiyasi to'g'risida ma'lumot berish. Adibning «Abay» hamda «Abay yo'li» tarixiy romanlari to'g'risida talabalarda tasavvur va tushuncha hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Adibning hayoti va ijodga kirib kelishi xususida so'zlaydi.
2. M.Avezovning hikoya va qissalarini tahlil qiladi.
3. Adibning dramaturgiyadagi ijodiga baho beradi.
4. «Abay » romanining yaratilish tarixi haqida so'zlaydi.
5. Romanda shoirning hayoti, uning jamiyatga munosabati qanday aks etganligini izohlaydi.
6. Romadagi boshqa qahramonlarga tavsif beradi.

Muxtor Umarxonovich Avezov 1897-yil 28-sentabrda Semipalatinsk viloyati, Abay tumaniga qarashli Chingiztog' degan joyda tug'ilgan. 1928-yil M.Avezov Leningrad univeristetining filologiya fakultetini, keyin aspiranturani tamomlaydi.

Otasi Umarxon va bobosi Avez madaniy kishilar edi. Ular o'zlariga qo'shni bo'lgan Abaylar ovuli bilan yaxshi munosabatda edilar. Shuning uchun ham yozuvchining bolaligi buyuk ma'rifatparvar shoirning ta'siri kuchli bo'lgan muhitda o'tdi.

Abay she'rlari xalq afsonalari, rivoyat va qo'shiqlari (ularni bobosi Avez ko'plab bilardi), Muxtor Avezovda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otdi. Amakisi Qosimbek uni Semipalatinskka olib borib madrasaga o'qishga joylashtirdi. Tezda 11 yoshli Muxtor besh sinfli shahar mакtabiga o'tadi.

U rus va chet el klassiklarining asarlarini qunt bilan o'rganadi. O'zi ham kichik hikoyalar, she'rlar mashq qila boshladi. Uning ijodi ham, asosan, 20-yillarda boshlanib, dastlab dramatik asarlar yozgan. «Enlik-kebek», «Qora ko'z», «Xon kene» singari pyesalarida yozuvchi qozoq xalqi hayotining muhim qirralarini tanlab oldi.

Uning ijodi rang-barang bo'lib, turli janrlarda asar yaratgan. Dastlabki dramasi «Enlik-kebek» 1917-yilda yozilgan. Bu asar qozoq teatrining shakllanishiga asos bo'ldi. O'sha yili hali hayot bo'lgan Abayning xotini Aygirimning o'tovida bu asar birinchi marta sahnaga qo'yilgan. Asarda Enlik nomli qiz bilan Kebek nomli yigitning otashin muhabbatи kuylangan. Bu asarni qozoqlarning «Romeo va Juletta»si deb ataydi. Ikki yoshning bir-biriga yetishishi uchun chekkan iztiroblari, ularga to'sqinlik qilgan yaramas urf-odatlar juda ta'sirli ifodalangan. Asar voqealari bosh qahramonlarning fojeali o'limi bilan tugasa ham, unda qandaydir hayotbaxsh umid hukmron.

Keyinchalik Avezov «Tungi sarin», «Abay» nomli dramalar yozib, qozoq dramaturgiyasi va milliy teatrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi.

Urush davri va undan keyingi yillarda Muxtor Avezov «Sinov soatlarida», «Yalang'och qilich», «Nomus gvardiyasi», «Olma bog'ida» singari o'nlab g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk dramatik asarlar yaratdi. Uning «Izlar», «Burgutli ovchi», «Yelkama yelka» singari dastlabki nasriy asarlari ham ancha muvaffaqiyatli chiqqan.

1921-yilda yozilgan «Qo'rg'onsizning kuni » (himoyasizning qismati) hikoyasida revolyutsiyadan avvalgi ovul hayoti tasvirlanadi.

Avezovning dastlabki eng yaxshi asarlaridan biri «Qarash-qarash voqeasi» (1927) asaridir. Unda muallif kambag'al Baxtigulning og'ir taqdirini hikoya qiladi. Baxtigul tog'da yashaydi, ovchilik bilan shug'ullanadi. Ammo ovning o'zi bilangina kun ko'rishi qiyin. Ochlik, muxtojlik uni o'g'rilikka sudraydi. Muttasil qo'rquv, ochlik azobi joniga tekkan qahramon Volost boshlig'i Jarasbay huzuriga borib, hamma narsani ochiq aytadi va halol ish so'raydi. Biroq Jarasbay Baxtigulni aldab, uni dushman urug'inining yilqilarini o'g'irlashga yuboradi. Urug'lar yarashgandan keyin esa Jarasbay xoinlik qilib Baxtigulni biylar sudiga beradi. Bundan g'azablangan yigit yana tog'ga qochadi, so'ng Jarasbayni o'ldirib qamoqqa tushadi. Baxtigul so'nggi sahnada o'g'liga qarata «O'qi o'g'lim! Mening yo'lim quvonchsiz va xato edi, sen esa to'g'ri yo'lni topishing kerak», - deydi. Shu so'zlarda asarning bosh g'oyasi ifodalangan.

Ijodining dastlabki o'n yili ichida Avezov dramatik asarlar yaratish ustida ko'proq ishladi. U turli mavzularda 20 ga yaqin pyesa yozdi, rus jahon va sobiq sovet dramaturgiyasining «Revizor» (Gogol), «Otello», «Aristokratlar» (N.Pogodin), «Lyubov Yadovaya» (K.Treniv), «Flot ofitseri» (A.Kron), singari qator asarlarni qozoqchaga tarjima qildi.

Urushdan oldingi yillarda u «Tosh pat» (1935), «Oq qayiq», «Kurash» (1934), «Olmazorda», «Chegarada» (1937) nomli pyesalarni, «Jarlik», «Izlar», «Uch kun» singari qissa va hikoyalarni yaratdi. Bu asarlar badiiy fazilatlari jihatdan ham yozuvchi niyatining chuqurligi jihatdan bir xil saviyada emas.

Avezovning 30-yillarda yaratgan hikoyalari orasida «Burgutchi» hikoyasi ajralib turadi. Hikoyada tasvirlanishicha, ikki ovchi-Bekbul va Jonibek ovga jo'namoqchi. Shu payt yilqichilik zavodining brigadiri Usmonqul ularga bir qancha ot o'g'irlanganini xabar qiladi. Bekbuldan o'g'rilarini tutish va otlarni topishda yordam berishni so'raydi. Nihoyat, Bekbul ot o'g'risini chegaradan o'tishga shaylanayotgan paytda qo'lga tushiradi. O'g'ri Bekbulning sobiq xo'jayini boy bo'lib chiqadi. Hikoya juda hayotiy chiqqan.

40- yillarda M.Avezov yangi ijodiy yutuqlarga erishadi. 1945-yili u «Abay» operasi librettosini «Abay qo'shiqlari» badiiy filmi senariysini yozdi. U rus adibi L.Sobolev bilan birgalikda «Abay» tragediyasini yozgan. Epopeyaning «Abay» deb nomlangan birinchi kitobi 1942-yil, ikkinchisi 1947-yil bosilib chiqdi. Roman hozirgacha qozoq tilida ko'p martalab, jahondagi turli tillarga tarjima qilindi.

M.Avezov to'rt tomdan iborat Abay to'g'risidagi roman-epopeya yaratdi. Bu nafaqat qozoq adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi tarixiy-biografik romanlarning eng yaxshi namunalaridan sanaladi. Bu asarni yaratish jarayonida yozuvchi ko'plab tarixiy hujjatlarni ko'rib chiqdi. Abay nomi bilan bog'liq xalq orasidagi rivoyatlarni o'rgandi. Natijada dastlab «Abay» nomli pyesa yaratildi. Abay haqida ko'plab ilmiy-publisistik maqolalar e'lon qilindi. Keyinchalik «Abay» va «Abay yo'li» kabi romanlar vujudga keldi. «Abay» tarixiy-biografik romandir. Unda bir tomondan qozoq ma'rifatparvari Abayning hayoti tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan XIX asrdagi qozoq xalqining ijtimoiy hayoti, o'sha davrdagi siyosiy tuzum, tarixiy voqealar tasvirlangan. Asarda bir-biriga o'xshamaydigan har qaysisi alohida bir tabaqa va guruh vakili bo'lган obrazlar berilgan. Abayning otasi Qo'nonboy, onasi Uljon, buvisi Zere kampir, akasi Takejon, turmush o'rtog'i Aygerim, do'sti Erbo'l, advokat Andreyev singarilarning har biri o'ziga xos xarakterlarga ega.

Avezovning Abay to'g'risidagi romanlarining muhim xususiyati shundan iboratki, adib o'z xalqi tarixiga o'z davri nuqtai nazaridan turib nazar tashlagan. Abay yashagan XIX asrning 2-yarmidagi qozoq jamiyatining hayoti murakkab voqealarga boy edi. Shuning uchun Avezov oldida epopeyani yozishda ulkan qiyinchiliklar turardi. Abayning bolaligi, o'smirligi, poetik faoliyatining birinchi davrini ko'rsatish kerak edi. Xolbuki, bu haqda hech qanday bosma ma'lumotlar yo'q edi. Bularning hammasi Abay to'g'risida turli - tuman kishilardan eshitgan xalq rivoyatlarini to'plash, tekshirish, tartibga solish bo'yicha katta mehnatni taqozo etardi.

M.Avezov o'z avtobiografiyasida qayd etishicha, u Abay to'g'risidagi roman ustida 20 yil ishlagan. Abayning ijodiy merosini to'plab, ilmiy- tadqiqot ishlari olib borgan.

«Abay» romanida butun bir tarixiy davrning qarama - qarshiliklari, xalq hayoti va kayfiyati haqqoniy ko'rsatilgan.

Romanning bosh konflikti o'z hayoti va faoliyatini mehnatkash xalq manfaati bilan bog'lagan shoir Abay bilan uning otasi Og'asulton Qo'nonboy va tarafdarlari o'rtasidagi qarama –qarshiliklardir. Abay obrazi bob sayin o'sib boradi. Abay xalq to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, xalq dardini kuylovchi kishi sifatida tasvirlanadi. Abay taqdirining xalq taqdiri bilan uzviy bogliqligi Avezov romanlarining yuksak fazilatidir.

1955-yil M.Avezov «Abay» romani uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yili yozuvchi Hindistonga boradi. Safar taassurotlari asosida Hindiston haqidagi ocherklar kitobi yuzaga keladi (1956-yil).

Avezov umrining oxirlarida zamonaviy mavzudagi besh tomlik yangi epopeya ustida ish boshladi. Biroq birinchi kitobigina yozildi. Yozuvchi 1961-yil 27-iyunda Moskvada vafot etdi. 1962-yilda nashr etilgan «Yosh avlod» nomli bu romanda qozoq chorvadorlarining hayoti va kurashi, qozoq xalqining fidokorona mehnati Olmosbek, Asiya, Joqen, Oysuluv, Ilyos, Armon, Petro, Madat, Saodat singari timsollarda gavdalantirildi.

Mashhur adib, dramaturg, tilshunos, adabiyotshunos, tarjimon, jamoat arbobidir.M.Avezovning qozoq adabiyoti oldidagi xizmatlari juda katta.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Adibning yoshligi va ilm olishi xususida nimalar bilasiz?
2. Abay to'g'risidagi romanlar vujudga kelguncha M.Avezov yana qaysi janrlardagi asarlariga Abayni bosh mavzu qilib oldi?
3. Avezovning Abay haqidagi romanlarining bosh xususiyati nimada?
4. «Abay» romanida Abay obrazining aks ettirilishiga baho bering.
5. «Abay yo'li» romanida Abay obrazining yoritilishini tahlil qiling.

6. Abay to'g'risidagi romanlarda oddiy xalq vakillari obrazlarining tasvirlanishini tahlil qiling.
7. Romanlarda tasvirlangan yuqori tabaqa vakillari timsollariga tavsif bering.
8. Muxtor Avezov hikoyalaridagi yetakchi xususiyat sifatida nimani ko'rsatish mumkin?
9. «Qarash - qarash voqeasi» qissasida qaysi davr voqealari aks ettirilgan?
10. Adibning ilk dramalari haqida, umuman, bu sohadagi ijodiga baho bering.
11. **M. Avezov qaysi o'zbek adibi bilan ijodiy hamkorlik qilgan?**
- A. Oybek
 - B. G'.G'ulom
 - C. H.Olimjon
 - D. H. H.Niyoziy
12. **O'zbek xalqining ham sevimli yozuvchisi, Jahon adabiyotida yuksak o'rinn tutgan so'z ustasini belgilang.**
- A. Muxtor Avezov
 - B. Abay
 - C. G'abidin Mustafin
 - D. S.Muqanov
13. **Muxtor Avezov o'zining qaysi dramasida hayotni tarixan to'g'ri va haqqoniy aks ettirish namunalarini ko'rsatdi?**
- A. «Qarash-qarash»
 - B. «Burgutli ovchi»
 - C. «Abay»
 - D. «Izlar»
14. **Adibning qozoq teatri shakllanishiga asos bo'lgan asarini belgilang.**
- A. «Tungi sarin», «Abay»
 - B. «Sinov soatlarida», «Yalang'och qilich»
 - C. «Nomus gvardiyasi», «Olma bog'ida»
 - D. «Yalang'och qilich», «Olma bog'ida»

IV QISM

Mavzu: Qirg'iz adabiyoti

Reja:

1. Qirg'iz adabiyoti va qirg'izlar to'g'risidagi eng qadimgi yozma ma'lumotlar.
2. Qirg'iz yozuvchilarining dastlabki she'riy, nasriy va dramatik asarlari.
3. Ikkinchi jahon urushidan so'ng qirg'iz adabiyotining yuksalishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

«Manas» dostoni, tabaqalanish, xalq oqini, musiqali drama, lirika, xalqlar do'stligi, she'riy roman.

Dars maqsadi: Qirg'iz adabiyotining yuksala boshlagan davri haqida talabalarga ma'lumot berish va qirg'iz yozuvchilarining she'riy, nasriy hamda dramatik asarlarini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Mashhur qirg'iz xalq oqini T.Sotilg'anov asarlaridagi insonparvarlik haqida fikr yuritadi.
2. Qirg'iz she'riyatidagi ona-yurtni ulug'lash mavzusining salmoqli o'rinnegallagani hamda urush yillaridagi qirg'iz xalqining mazmundor asarlari to'g'risida so'zlaydi.
3. Qirg'iz milliy teatr san'ati, dramaturgiyasi haqida so'z yuritadi.
4. Ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillar qirg'iz dramaturgiyasi to'g'risida so'zlaydi.
5. Qirg'iz adabiyotining barcha adabiy janrda takomil topgan davrini izohlaydi.

Tyanshan vodiysida va tog'larda joylashgan qirg'iz o'lkasi – bir tomondan Qozog'iston, O'zbekiston va Tojikiston bilan, ikkinchi tomondan Xitoy bilan qo'shni.

Qirg'izlar to'g'risidagi eng qadimgi yozma ma'lumotlarni miloddan ilgarigi II asrga oid manbalarda topamiz. Qirg'iz xalq ertaklarining ko'pchilik dostonlarida bo'lgani kabi, qiziqarli syujet va real voqealar bilan afsonaviy voqealar aralash holda hikoya qilinadi. Qirg'iz xalq og'zaki ijodida xalq qahramonlik dostonlari ayniqsa mashhur.

O'tmishda, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan bu ko'chmanchi xalq uzoq asrlar davomida chet el bosqinchilari zulmi ostida ezilib keldi. Qirg'izistonda VIII asrda arablar, XII asrda ko'chmanchi qoraxitoylar, XVI asrda mo'g'ul bosqinchilari va, nihoyat, XVIII asrning oxirlarida Qo'qon xonlari hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatning iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayoti inqirozga yuz tutdi.

Qirg'iz xalqining ota-bobolari juda qadim zamonlardayoq O'rta Osiyo, Tyanshan va Yettisuv viloyatlaridagi xunnlar, shuningdek, saklar, skiflar va boshqa qo'shni qabilalar bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning madaniyati, dini va urf-odati ta'siri ostida yashaganlar.

VIII asrda arab istilochilari tomonidan zabit etilgan Qirg'izistonga islom dini ham yoyildi. Keyinchalik «buyuk ipak karvon yo'li»da joylashgan Qirg'izistonning shahar va qishloqlarida adabiy-madaniy hayot birmuncha jonlandi, dehqonchilik, chorvachilik o'sdi. Savdo-sotiq ishlarining yo'lga qo'yilishi Qirg'izistonga Xitoy, Fors va Yunon madaniyatining kirib kelishiga sabab bo'ldi. XIV asrning oxirlarida temuriylar davlatiga qaram bo'lgan Qirg'izistonda mo'g'ullar istilosidan xarobaga aylangan shahar va qishloqlarni qayta tiklash boshlanganligiga qaramay, bu o'lkaning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergen jarohatlar batamom tuzalib ketmadi.

Qirg'iz adabiyoti va madaniyati ham boshqa xalqlarniki kabi og'zaki ijod shaklida rivojlandi. Bizgacha yetib kelgan xalq ashula va qo'shiqlari, maqol, ertak va dostonlarida qirg'iz xalqining uzoq asrlar davomidagi ko'chmanchi-chorvachilik hayoti, ularning o'z xo'jayinlariga qarshi olib borgan kurashlari haqqoniy aks ettirilgan. Bu asarlarning yaratuvchilari, ko'pincha, xalq hayotiga oid turli-tuman marosimlar, chorvachilik bilan dehqonchilik o'rtasidagi keskin sinfiy to'qnashuvlar o'z aksini topgan. Qirg'iz folklorida muhabbat qo'shiqlaridan tashqari, hajviy qo'shiqlar ham ko'p uchraydi. Ularda hukmron doiralarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan zulmi, xasisligi, hiyla-nayranglari tanqid qilingan.

Folklor asarlarida qirg'iz xalqining mehnatsevarlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik g'oyalarini ifodalovchi juda ko'p qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar

mavjud. Ularda, ayniqsa, xalq qahramonlik dostonlari mashhur. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan «Ertobildi», «Ertushtuk», «Jonil mirzo» kabi xalq qahramonlik dostonlari orasida, shubhasiz, «Manas» dostoni o'ziga munosib o'rinnegallaydi.

Shuning uchun xalqining butun dunyoga mashhur bo'lgan dostonlaridan biri, shubhasiz, «Manas» eposidir. Bu asarda xalqning ko'p asrlik tarixi, ularning chet el bosqinchilar zulmiga qarshi erk va ozodlik uchun olib borgan kurashi aks ettirilgan. Bu she'riy asarning hajmi nihoyatda katta bo'lib, 500 ming baytni tashkil etadi. U uch katta qismdan iborat.

Birinchi qismda Manasning qahramonliklari hikoya qilinadi. Ikkinci qismda esa Manasning o'g'li Semetey, uchinchi qismda uning nabirasi Seytekning hayoti, sarguzashtlari hikoya qilinadi. «Manas» eposi o'z ichiga ko'pgina dostonlarni qamrab oladi. Bunda Manasning el-yurt ozodligi uchun ko'rsatgan qahramonliklari mahorat bilan tasvirlangan. U qirg'iz elini Afg'on va Qalmoq bosqinchilaridan saqlab qoldi. U Farg'onaga kelib bobodehqondan dehqonchilikni o'rganadi. U turli o'lkalardan kelgan polvonlarning ko'pchiligi bilan do'stlashadi. Umuman, Manas xalqining porloq kelajagi uchun, baxt-saodati uchun kurashgan qahramon sifatida tasvirlangan. Eposning Semetey va Seytek hayotiga bag'ishlangan qismlarida ko'proq ishq-muhabbat va hayotiy-maishiy mavzularga e'tibor berilgan.

Qirg'iz xalq ertaklarining ko'pchiligi xuddi xalq qahramonlik dostonlarida bo'lgani kabi, qiziqarli syujet va realistik voqealar bilan afsonaviy voqealar aralash holda hikoya qilinadi. Ko'pgina qirg'iz hajviy ertaklarida bosh qahramon rolida xalq orasidan chiqqan dono, tadbirkor, oddiy kishilar Ko'sa va Kal timsollarida gavdalanadi. Bunday hajviy ertaklar orasida Aldarko'sa nomi bilan bog'liq bo'lgan ertaklar o'zlarining g'oyaviy o'tkirligi va badiiyligi bilan ajralib turadi.

XIX asrning 60-70-yillariga qadar feodal tuzumni boshidan kechirgan Qirg'iz xalqi Urug'lar va kichik feodalliklar o'rtasidagi qonli urushlar tufayli nihoyatda qashshoqlashib qoladi. Mamlakatning parchalanib ketganligi chet el bosqinchilariga qarshi kurash olib borishga imkon bermaydi.

XIX asr qirg'iz adabiyotida katta mavqega ega xalq oqinlaridan biri To'g'aloq Mo'lida edi. Oqinlikni o'z bobosidan meros qilib olgan shoir (asl ismi Bayimbet Abdirahmonov) ning yoshligi azob-uqubatda o'tdi. Avval qirg'iz manapi (boyi) qo'lida, keyin rus pomeshchigi eshidiga batraklik qildi. Uning ijodida qirg'iz mumtoz oqin she'riyati, qozoq shoiri Abay, tatar shoiri A.To'qay ijodining ta'siri katta bo'lган.

U dastlab xalq qo'shiqlarini qayta ishladi, keyinchalik xalq ertak va masallari asosida o'zining original «Jonboqtı», «Kemchentoy», «Eshak va Bulbul» singari masal va hajviy dostonlarini yaratdi. Bu asarlarda majoziy obrazlar orqali zamonasining amaldorlari, ularning zolimligi va farosatsizligini fosh qildi, jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni to'g'ri tasvirlay oldi-yu, ularni bartaraf etishning to'g'ri yo'lini ko'rsata olmadi.

30-yillarda qirg'iz adabiyotida tajribali yozuvchilar bilan birga T.Sidiqbekov, A.Osmonov, T.Umetaliyev, A.To'xtamishev kabi yosh shoirlar ham yetishib chiqdi. Bu yillarda qirg'iz yozuvchilarining bir qancha she'riy, nasriy va dramatik asralarida qirg'iz xalqining o'tmisht tarixidan olingan muhim voqealari ham o'z aksini topdi. Ana shunday voqealardan biri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lган 1916-yil qo'zg'aloni voqeasi edi. M. Eliboyevning «Uzoq yo'l», To'qomboyevning «Qonli yillar», J.Turusbekovning «Mamot emas, hayot» musiqali dramalarini qirg'iz yozuvchilarining bu qo'zg'olon voqealariga bag'ishlangan yirik asarlariga misol qilib ko'rsatish mumkin.

40-yillarda T.Sidiqbekov va K.Raxmatullinning «Manas va Almambet», A.To'qomboyevning «Manas», K.Jontoshevning «Qurmanbek» pyesalari, J.Bokonboyevning «Oltin qiz» asarlari e'lon qilindi. To'g'ulboy Sidiqbekovning «Ken suv» va «Temir» romanlarida M.Sholoxovning «Ochilgan qo'riq» romani ta'siri sezilib turadi.

Qirqinchi yillarda qirg'iz milliy teatr san'ati bilan uzviy bog'langan holda rivoj topgan qirg'iz dramaturgiysi Vatan va Vatan mudofaasiga bag'ishlangan ko'pgina yangi-yangi pyesalar bilan boyidi. Shu yillarda adabiyotga S.Eraliyev, N.Boytemirov, S.Shimeyev, K.Akayev, M.Aliboyev singari umidli adiblar kirib

keldi. Keyinchalik S.Shimeyev Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini mahorat bilan ona tiliga tarjima qildi.

T.Sidiqbekovning 1948-yilda bosilib chiqqan va Davlat mukofoti bilan taqdirlangan «Zamonamiz kishilar» romani qirg'iz xalqining nemis fashist bosqinchilariga qarshi kurashi, ularning front ortidagi fidokorona mehnati, xalqlar do'stligi, yangicha sevgi, oila masalalari ko'rsatilgan. Shu yili e'lon qilingan «Azamat» qissasida nemis fashistlariga qarshi urushda toblangan qirg'iz uchuvchilarining qahramonliklarini ko'rsatdi. 1953-yilda nashrdan chiqqan «Tog' bolalari» romanida yangi davrda yashayotgan qirg'iz bolalarining hayoti, o'qishi haqida hikoya qiladi. 1958-yilda Moskvada bo'lib o'tgan qirg'iz adabiyoti va san'ati dekadasida yuksak baholangan «Yulduzxon» romanida avvalda batrak oilasidan chiqqan bir qirg'iz qizining davlat arbobi, Mehnat qahramoni, oliy kengash deputati darajasiga chiqqan qirg'iz ayolining hayoti tasvirlangan. Yoshlikdan ota-onasiz qolib, akasi To'tibek oilasida tarbiya topadi. Eskilikka mukkasidan ketgan aka singlisining o'qishiga to'sqinlik qiladi. Lekin Yulduzxon fidokorona mehnati tufayli obro' topadi, xalq ishonchini qozonadi, kolxzoga raisa etib tayinlanadi, Xalq xo'jaliklari yutuqlari ko'rgazmasiga boradi va deputat etib saylanadi. T.Sidiqbekovning «Ayollar» trilogiyasi ham qirg'iz xalqi orasida katta shuhrat topdi.

Ikkinci jahon urushi yillarida barcha xalqlar qatori qirg'iz xalqi ham yurt himoyasi uchun oyoqqa turdi. J. Turusbekov, M. Eliboyev, S. Bo'lakboyev kabi o'nlab qirg'iz yozuvchilari qo'lga qurol olib jang qildilar, ko'pchilik adiblar o'z ijodlarini jang xizmatlariga qaratdilar. Ikkinci jahon urushi yillarida Qirg'iz lirkasi jangchi-shoir timsoli bilan boyidi.

20-30-yillarda qirg'iz adabiyotining umumiy taraqqiyotidan hiyla orqada qolgan nasr janri 50-yillarga kelib bir muncha taraqqiy etdi, yangi-yangi hikoya, ocherk, qissa va romanlar bilan boyidi. Urushdan so'nggi davr qirg'iz adabiyotida bu salmoqdur adabiy janrni rivojlantirishda keksa avlod vakili T. Siddiqbekov bilan bir qatorda yosh yozuvchilardan N. Boytemirov va Ch. Aytmatovlarning ham xizmatlari katta.

Ikkinchi jahon urushi yillarida qirg'iz dramaturgiysi ham taraqqiy etdi. Dramaturgiya sohasida qalam tebratayotgan qirg'iz yozuvchilaridan, ayniqsa, T.Abdumo'minov barakali ijod qildi. Uning sahna asarlari orasida «Tor dara» va «Qumloq adir» pyesalarida laganbardorlik va ikkiyuzlamachilik fosh etilsa, ikkinchisida qozoq geologlarining hayoti aks ettirilgan.

T. Siddiqbekovning 1948-yilda bosilib chiqqan va Davlat mukofoti bilan taqdirlangan (1949) «Zamonamiz kishilari» romanı Qirg'iz xalqining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi fidokorona mehnatidan hikoya qiladi.

«Zamonamiz kishilari» romanida Issiqko'l sohilida joylashgan jamoa xo'jaliklaridan biridagi mehnatkashlarning hayoti, mehnati, front orqasini mustahkamlash uchun olib borgan kurashi voqealari tasvirlanadi.

N. Boytemirov adabiyot maydonida o'ttizinchi yillarning oxirlarida ko'rina boshladi, uning ijodi urush davrida shakllana bordi. 40-50-yillarda u nazm, dramaturgiya, va ayniqsa, nasr janrida ko'pgina salmoqli asarlar yaratdi.

Urushdan so'nggi yillarda Qirg'iz shoirlari qayta-qayta qalam tebratgan mavzulardan biri xalqlar do'stligi mavzusidir.

Urushdan keyingi 10-15 yil ichida qirg'iz nazmida Savronboy Jusuyev, Raykan Shukurbekov, Suyunboy Eraliyev, Muso Jong'oziyev, Akbar To'qtaqunov kabi yosh qalamkashlar o'zlarining original she'riy to'plamlari va dostonlari bilan dadil kirib keldilar. Qirg'iz shoiralaridan Nurkamol Jetiqashqeva, Satin Abdurakimovalar ijodi ham katta ahamiyatga ega. N.Boytemirov nasr va dramaturgiya sohasida ijod qilish bilan birga, she'riyatda ham dadil ijod qilgan, g'oyaviy-badiiy yetuk dostonlar, balladalar va falsaffiy- lirik she'rlari ahamiyatlidir.

Oxirgi yillarda qirg'iz adabiyotida A.To'qomboyev, Q.Malikov, Sh.Beyshenaliyev, M.Bayjiyev kabi o'nlab iste'dodli nosir, shoir va dramaturglar yetishib chiqdi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Xalqparvar oqin deb nom olgan shoir kim?
2. O'ttizinchi yillar tajribali hamda yosh shoirlar ijodi haqida qanday fikrdasiz?

3. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi qaysi asarlarda qirg'iz lirkasidagi urush davrining ruhi aks etgan?
 4. Qirg'iz yozuvchilarining qaysi asarlarida qirg'iz xalqining o'tmish tarixidan olingan muhim voqealar o'z aksini topgan?
 5. O'zbek teatrлari sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish etilgan Qirg'iz yozuvchilarining qaysi asarlarini bilasiz ?
 6. Urushdan so'nggi davr qirg'iz adabiyotida salmoqdor adabiy janrning (nasr) rivojidagi keksa avlodning vakilini bilasizmi?
 7. Qirg'iz va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi o'zaro yaqin mavzudagi asarlarga sharx bering.
- 8. Ajiboy, Chumak, Sergak va Almambet kabi bahodirlar qaysi doston qahramonlari?**
- A. «Manas»
 - B. «Qo'blandi botir»
 - C. «Er Targ'in»
 - D. «Shasenem va G'arib»
- 8. Qirg'iz xotin-qizlarining o'tmishdagi fojeali hayotini tasvirlovchi asarlarni belgilang.**
- A. «Hojar», «Kakey», «Qora-soch»
 - B. «Uzoq yo'l», «Qonli yillar», «Mamot emas, hayot»
 - C. «Xayr ona», «Surgunda», «Tog' burguti»
 - D. «Qizjibek», «Qo'zi Ko'rpeshev va Bayan suluv»
- 9. Ikkinchi jahon urushi yillaridan so'ng qirg'iz adabiyotiga kirib kelgan adiblarni belgilang.**
- A. M. Toqomboyev, K. Jontoshev, K. Akayev
 - B. J. Turusbekov, M. Eliboyev, S. Bo'lakboyev
 - C. S. Eraliyev, N. Boytemirov, S. Shimeyev
 - D. A. Osmonov, K. Malikov, K. Atayev



Mavzu: To'xtag'ul Sotilg'anov

Reja:

1. Qirg'iz xalq oqini To'xtag'ul Sotilg'anov hayot yo'li.
2. To'xtag'ul Sotilg'anov ijodi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Oqin, Andijon qo'zg'aloni, Dukchi eshon qo'zg'oloni, «Qizlarga», «Alimxon» she'rlari, «Qobon», «Sog'inib keldim» to'plami.

Dars maqsadi: To'xtag'ul Sotilg'anovning o'ziga xos murakkab hayot yo'li va ijodi bilan talabalarni tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Mashhur qirg'iz xalq oqini To'xtag'ul Sotilg'anovning yoshlik chog'lari haqida gapiradi.
2. Uning lirik va xalqparvarlik ruhidagi she'rlarini tahlil qiladi.
3. Shoir yaratgan eng yaxshi qo'shiqlar xususida fikr bildiradi.

Xalq baxshilaridan biri To'xtag'ul Sotilg'anov qirg'iz yozma adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Mashhur qirg'iz xalq oqini To'xtag'ul Sotilg'anov yoshlik chog'laridan boshlab qo'biz chertib, xalq qo'shiq va dostonlarini aytishni mashq qilgan. To'xtag'ul asta-sekin o'zi ham jir aytadigan, original kuylar bastalaydigan bo'ldi. «Qizlarga», «Alimxon» kabi lirik va xalqparvarlik ruhidagi she'rlarini bitdi. U 1898-yil Andijon qo'zg'olonida qatnashgan deb ayblanib, Sibirga surgun qilindi. Sibir temir yo'l qurilishlarida ishladi. Rus maslakdoshlari yordamida 7 yillik surgundan qochishga muvaffaq

bo'ladi va 1910-yilda o'z yurtiga qaytib keladi. Ammo mahalliy hokimiyat uni yana qamoqqa oladi.

U yashashning ma'nosini o'zicha talqin qiladi. Chunonchi, shoirning fikricha, mehnat insonga quvonch bag'ishlaydi; do'stlik kishiga ob-havoday zarur narsa; sevishda oshiq va ma'shuqaning sadoqati va ishonchi katta rol o'ynaydi. To'xtag'ul ijodidagi insonparvarlik ayrim oqinlar asarlaridagi umidsizlik kayfiyatiga tamoman zid edi. To'xtag'ul o'z ijodini mehnatkash xalq taqdiri bilan mahkam bog'lagan xalqparvar oqin edi. U haqiqat uchun astoydil kurash olib bordi. Xalq oqining bunday otashin chiqishlaridan amaldorlar tashvishga tushib, undan o'ch olishga urinadilar. Nihoyat, 1898-yilda To'xtag'ul Andijon qo'zg'alonda qatnashgan degan tuxmat bilan Sibirga surgun qilindi. T.Sotilg'anov ana shu og'ir hayotiga asosiy sababchilar rus imperiyasi va mahalliy amaldorlar deb bildi. Yetti yillik surgun azobi xalq shoirining irodasini buka olmadi, aksincha uning hayot tajribasini boyitdi.

Masalan, To'xtag'ul Sibirda o'z boshidan kechirganlarini «Tutqunning jiri», «Quvg'indi», «Eshmambet bilan uchrashuv» nomli asarlarida juda yaxshi tasvirlab berdi. U «Eshon xalfa», «Besh qobon» singari she'rlarida mahalliy amaldorlarning, nafsi o'pqon ruhoniylarning yaramas kirdikorlarini fosh qildi. «Besh qobon» she'rida «qobon» nomi bilan tanilgan beshta amaldorga murojaat qilib, shunday deydi:

Yetim –yesir, holsizni
Savalading, besh to'ng'iz.
Odam o'rnida yo'qsilni
Sanamading, besh to'ng'iz.
Yeb-ichishdan boshqani
Tan olmading, besh to'ng'iz.
...Jahlingiz chiqsa quturib
Uy-joyimni talarsiz.
Qonxo'rлиging avj olsa,
O'ldirib, qonim yalarsiz

Tirnog'i zahar besh qobon,
Yalinmayman hech qachon.
Mayli, o'ldir, dunyoga
Qaytib kelmas chiqsa jon.

U yoshligini qattiq qiyinchiliklarda o'tkazdi. To'xtag'ulning Sibir surgun dahshatlari to'g'risidagi qo'shiqlari ezilgan, savodsiz mehnatkash xalq ko'zini ochar, ularni g'aflat uyqusidan uyg'otar edi.

Shoirning surgunda yurgan davrida va surgundan qaytgach, yaratgan eng yaxshi qo'shiqlari («Alvido xalqim», «Xayr ona», «Surgunda», «Tog' burguti», «Salom, mehribon xalqim», «Sog'inish», «Uch xo'ja», «Mungli qushcha» va boshqalar) o'zining siyosiy o'tkir g'oyaviyligi va fosh qiluvchiligi bilan ajralib turadi.

Shoirning «Sog'inib keldim» to'plami o'zbek tilida bosilib chiqdi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. To'xtag'ul Sotilg'anov nima uchun umrini qattiq qiyinchiliklarda o'tkazdi?
2. T.Sotilg'anovning lirik va xalqparvarlik ruhidagi she'rlarining o'ziga xos jihatlari nimada?
3. Shoir «Qobon» she'ri orqali kimlarni nazarda tutadi?
4. Shoirning surgunda yurgan davrida va surgundan qaytgach, yaratgan eng yaxshi qo'shiqlarining mavzusi xususida fikringizni bildiring.
5. **«Qizlarga», «Alimxon» kabi lirik va xalqparvarlik ruhidagi she'rlar muallifi kim?**
 - A. To'xtag'ul Sotilg'anov
 - B. Berdi Kerboboyev
 - C. Ali To'qomboyev
 - D. Ozodiy
6. **Sibir temir yo'l qurilishlarida ishlab, rus maslakdoshlari yordamida 7 yillik surgundan ochishga muvaffaq bo'lgan qirg'iz adibi kim?**
 - A. Aktan Tinibekov

B. To'xtag'ul Sotilg'anov

S. Ishoq Shoybekov

D. Musa Chagatov

7. T.Sotilg'onovning surgunda yurgan davrida va surgundan qaytgach, yaratgan eng yaxshi qo'shiqlarini belgilang.

A. «Alvido xalqim», «Xayr ona», «Surgunda», «Tog' burguti»

B. «Salom mehribon xalqim», «Hojar», «Kakey», «Qora-soch»

S. «Sog'inish», «Uch xo'ja», «Hojar»

D. «Mungli qushcha» «Uzoq yo'l», «Qonli yillar»

8. Xalqparvar oqin deb nom olgan shoir kim?

A. Abay

B. T.Sotilg'anov

S. O'.Sulaymonov

D. M. Eliboyev

9. Sanamading, besh to'ng'iz. Ushbu misralar bilan boshlanuvchi she'r kimning qalamiga mansub?

A. To'g'aloq Mo'lda

B. Abay

S. T.Sotilg'anov

D. O'.Sulaymonov

10. T.Sotilg'anovning qaysi she'ri o'zbek tilida bosilib chiqdi?

A. «Alimxon»

B. «Besh qobon»

S. «Qizlarga»

D. «Sog'inib keldim»



Mavzu: Chingiz Aytmatov

Reja:

1. Chingiz Aytmatovning hayot yo'li.
2. Ch.Aytmatov – qissanavis.
3. Ch.Aytmatov romanlarida axloqiy – ma'naviy muammolar.

Mavzuga oid asosiy tayanch tushuncha va iboralar:

Ilk ijodi, ocherk, hikoya, qissalari, romanlari, ijodida mif va afsonalar.

Dars maqsadi: Yozuvchining hayot yo'li, ilk ijodi to'g'risida tushuncha berish va qissalarini tahlil qilish. Yozuvchining «Qiyomat», «Asrga tatigulik kun» romanlarida ko'tarilgan muammolarni izohlash.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. Ch.Aytmatovning hayot yo'li va ilk ijodi haqida so'zlaydi.
2. Qissa janrining adib ijodida tutgan o'rmini tushuntiradi.
3. Yozuvchining «Jamila», «Somon yo'li», «Sarvqomat dilbarim», «Oq kema», «Birinchi muallim» kabi qissalarini tahlil qiladi.
4. Roman janrining yozuvchi ijodida tutgan o'rni haqida gapiradi.
5. «Qiyomat» va «Asrga tatigulik kun» romanida ko'tarilgan muammolarni izohlaydi.

Chingiz Aytmatov 1928-yil 12-dekabrdan Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar qishlog'ida dunyoga kelgan. U avval rus, so'ng qirg'iz maktabida ta'lif oldi. 1942-yili Shakar qishloq kengashining kotibi, keyinchalik traktor brigadasining hisobchisi bo'ldi. Urushdan keyin zooveterinariya texnikumini tugatgach, qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutida o'qidi. O'qishni bitirib, 1956- yilgacha zootexnik bo'lib ishladi.

Chingiz Aytmatov 1956-1958-yillarda Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi oliy adabiyotchilar kursida ta’lim oldi.

Adib ijodining boshlanishi uning talabalik yillariga to’g’ri keladi. Dastlab uning «Gazetachi Dzyudo», «Hoshim», «Sepoyachi», «Oq yomg’ir», «Raqiblar» kabi ilk hikoyalari bosildi.

1958-yili yozilgan «Jamila» qissasi Ch.Aytmatov nomini butun jahonga tanitdi. Qissa 1959-yilda rus va fransuz tillarida chop etildi. Uni fransuz tiliga tarjima qilgan Lui Aragon «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng go’zal qissa» deb atadi.

Qissada inson erki va huquqi masalasi ko’tarilgan bo’lib, bu muammo Jamila va Doniyor obrazlari orqali ochib berilgan.

«Sarvqomat dilbarim», «Bo’tako’z», «Birinchi muallim», «Somon yo’li» (1963), «Alvido Gulsari» (1966), «Oq kema»(«Ertakdan so’ng») (1970), «Erta qaytgan turnalar»(1975) kabi qissalarning har biri yozuvchining erkin iste’dodini kun sayin kamol topayotganligini namoyish qildi.

Yozuvchining «Alvido, Gulsari» nomli qissasi ham juda mashhur bo’ldi. Qissaning bosh qahramoni Tanaboy jon taslim qilayotgan oti Gulsarining boshida turib, butun o’tgan umrini yodga oladi. Bunda bir tomondan odamlardagi mehr-oqibat yo’qolib borayotgani, ikkinchi tomondan, inson va tabiat o’rtasidagi muvozanatning buzilib borayotganligi hikoya qilinadi. Ch. Aytmatovning bu qissasida ham ekoliya masalasi, tabiatni, hayvonot dunyosini asrash, avlodlarga sog’lom va asl holida yetkazish masalasi izchillik bilan qalamga olinadi. Bu ayniqsa, yozuvchining «Oq kema» («Ertakdan so’ng») qissasida yanada yorqinroq namoyon bo’ladi. Qissadagi yosh bola, Mo’minkhol timsollari juda muvaffaqiyatli chiqqan. Qissa ham ana shu bobo va nabiralarning qismatiga bag’ishlangan. Asarda asosan ikkita ertak atrofida fikr yuritiladi. Biri bolaning o’zi to’qigan «Oq kema» haqida ertak bo’lsa, ikkinchisi bobosi Mo’minkhol aytib bergen «Shoxdor ona bug’u» haqidagi ertakdir. Sontosh darasidagi o’rmon qorovullari hayoti bir qarashda katta dunyodan ajralib qolgan kishilarning

turmushi tasvirlangandek tuyuladi. Ana shu uzoq tog'dagi uch oila qismati hozirgi dunyo qismati bilan chambarchas bog'liqdir.

«Somon yo'li» asarining bosh qahramoni To'lg'anoy hayotning og'ir qiyinchiliklarini boshdan o'tkazgan. Urushdan eri va uch o'g'li qaytib kelmagan, kelini Aliman hayotdan bevaqt ko'z yumgan. Taqdirning beshafqatligini qarang! Lekin yozuvchi tasavvuricha taqdir batamom beshafqat bo'lishi mumkin emas. Chunki hayot shunday. Kelinidan To'lg'anoya yodgor bo'lib nabira qoladi. Uning hayotida hayotning davomi, To'lg'anoy avlodlari kasb korining abadiyati mujassam.

Ch.Aytmatov qissalarini o'qigan o'quvchining ko'z o'ngida o'z taqdiri, bosib o'tgan hayot yo'li, saviyasi, tushunchasi va tashqi qiyofasi bilan sira bir-biriga o'xshamaydigan lirik timsollar gavdalananadi.

Ch.Aytmatov-xarakter yaratishga usta yozuvchi. Chunki u hayotni sezgirlik bilan kuzatadi, kishilarning insoniy fazilatlarini yorqin chizib berishga xizmat qiladigan hayotiy ziddiyatlarni tanlaydi. Adib Jamila, Saida, Oltin, Asallarning ham, Doniyor, Duyshen, Ilyos va Abubakirlarning ham kimligini yaqqol gavdalantirib beradi.

Ch.Aytmatov o'z asarlarini ham Qirg'iz, ham rus tillarida yozadi. U rus tilidan Qirg'iz tiliga, Qirg'iz tilidan rus tiliga tarjima qilish jarayonida o'z badiiy mahoratini tobora mustahkmlagan adiblardan biridir.

Ch.Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» va «Qiyomat» romanlarida zamondoshlarimizni alohida to'lqinlantirayotgan ma'nnaviy-axloqiy muammolar badiiy gavdalantirilgan.

«Asrga tatigulik kun» romanida voqealar asosan, Sario'zak cho'lida, Bo'ronli temir yo'l bekatida bo'lib o'tadi. Gap butun ongli hayotini bekatda oddiy temir yo'lchi bo'lib yashagan Kazangapning vafotidan so'ng dafn etish taraddudlari tasviri bilan boshlanib, romanning nihoyasida marosim musibat ustiga musibat bilan tugaydi. Shu orada Kazangap bilan Edigey Bo'ronning hayoti, ularga chambarchas bog'liq yoki bog'liq bo'limgan hodisalar, Ona Bayit qabristoni, Nayman ona va uning baxtsiz farzandi Jo'lomon, maktab muallimi Abutolib

Quttaboyev, uning sadoqatli rafiqasi Zarifa va farzandlarining boshiga tushgan falokatlar hikoya qilinadi.

Adib oddiy mehnatkash kishilarni mehr bilan tasvirlar ekan, insoniyatni manqurtlik malomatlaridan saqlash, hamma jamiyatning teng huquqli a'zosi baxtsaodatdan bab-baravar foydalanishi lozim, degan g'oyani olg'a suradi.

Har bir personajning o'z xulq - atvori, o'z e'tiqodi va falsafasi, o'z manfaati va ichki dunyosi tabiiy, ishonarli bir tarzda ochib berilgan.

Ch.Aytmatovning «Qiyomat» romani-inson tuyg'usi, qalb tug'yoni, adolatsizlik, yovuzlik, g'aflat va malomatga qarshi isyon sifatida jaranglagan asar. Adib bu yangi romani bilan odamlarni, xususan, befarq, faqat shu buguni bilan yashayotgan kishilarni ogoh bo'lishga chaqiradi, tabiatda hamma narsaning hisobkitobi, tosh-u tarozisi borligi haqida eslatadi, inson atrof-muhit bilan hamisha muloqatda, muvozanatni buzmasdan yashagandagina uning qadri, odamiyligi oshishini, mehr-shafqat, insof-adolat va e'tiqod-ishonch kabi insoniy omillardan sira yuz o'girish mumkin emasligini hayotiy, afsonaviy va ramziy timsollar orqali uqtiradi.

Asar murakkab syujetli, bir qaraganda har xil voqeа va hodisalar asosida qurilgan. Aslida yozuvchi romanda tasvirlanayotgan voqealarni, afsona va rivoyatlarni bosh g'oyaga - inson, uning jamiyatdagi o'rni, gardanidagi burchi, odamzot o'z taraqqiyotida jar yoqasiga borib qolayotganligi va darhol bu dahshatning oldiga band solinishi zarurligi maqsadlariga bo'ysindiradi.

Bo'ston O'rkinchiev timsoli -kamchiliklar, malomat, xato va qusurlarga, ularning boshida turgan mansabparast Qo'chqorboyev, Kandalovlar va ularning xatti harakatlariga qarshi qo'yilgan timsol. Bo'ston - o'z ishini bilib qiladigan, jamoat ishi, xalq ishi uchun fidoyi kishi. Muallif tomonidan katta harorat bilan tasvirlangan bu obraz so'nggi yillar avj olgan qonunbuzarlik, ayrim ijtimoiy adolatsizliklar, odamlar bilan tabiat o'rtasidagi murosasizliklar qurbanli sifatida gavdalaniadi.

«Qiyomat»da qalamga olingan tabiiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga dahldor xoh tipik, xoh tipik bo'limgan timsollar va timsollarning zamirida fojeiy

qismat yotadi. Akbara va Toshchaynar timsolida bir juft bo'ri ularning uch avlodi, 10 dan ziyod surriyodagi qismatida - qiyomat. O'z ummatlariga o'zicha baxt ato etish uchun kurashgan Iisus Xristos chormix qilinadi - boshini dorga qo'yadi. Bu yerda ham -qiyomat. Isoning vorisi sifatida gavdalangan Avdiy Kallistratovni boshida ham qiyomat qo'padi. Qo'rishi Guram Juxadze va uning yigitlari vatan bilan vidolashish onlarida ayg'oqchi Sandro tomonidan nogahon bitta qolmay qirib tashlanadi. Bu yerda ham qiyomat qoyim. Lekin topshiriqni «a'lo» bajargan Sandro - chi ? Eng so'nggi damda, vijdon qiynog'iga chidolmay, u ham o'zini - o'zi otadi. Uning boshida ham qiyomat qopadi.

Barcha ijobiy qahramonlarni yozuvchi katta fojeaga giriftor bo'lган holda ko'radi. U deyarli birorta ham qahramonini «ayamaydi». Nima uchun? Sababi, hayotning o'zi qanchalik purziyo bo'lsa, shunchalik shafqatsiz. U hech kimni siylamaydi. Xolbuki, o'sha sof niyatli, oliyjonob Avdiy, Guram va uning yigitlari, Ernazar, Kenjash va boshqalar omon qolishlari, o'z «murod-maqsadlariga yetishlari» ham mumkin edi. Buning uchun hayotdagi loqaydlik, aqidaparastlikka qarshi kurashishi kerak, insonlar boshida qiyomat qo'pmasligi uchun sof niyatli barcha kishilar birlashishi kerak, degan g'oya yotadi asarda. Chunki qiyomat faqat osmondan yog'ilmaydi, uni odamlarning o'zlari ham «yasaydilar», binobarin, uni daf qiluvchi kuch, tafakkur va idrok ham odamzotning o'z ixtiyorida, degan nihoyatda asosli, oqilona da'veoni ilgari suradi adib.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Adibning ilk ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. «Jamila» qissasida ko'tarilgan muammolarni izohlang.
3. Chingiz Aytmatov qissalariga xos bo'lган xususiyatlar nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
4. Ch.Aytmatov «Asrga tatigulik kun» romanida butun insoniyatni to'lqinlantirayotgan qanday muammolarni ko'tarib chiqdi?
5. «Qiyomat» romani qanday voqealar bilan boshlanadi?
6. «Qiyomat» romanida ko'tarilgan axloqiy- ma'naviy muammolar haqida fikr bildiring.

7. Ch.Aytmatovning Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, madaniyati, tarixi haqida aniq ma'lumotlarga asoslangan voqeа-xodisalarни tasvirlagan asarini belgilang

- A. «Sohil bo'y lab chopayotgan olapar»
- B. «Qoyada qolgan ovchining ko'z yoshlari»
- S. «Asrga tatigulik kun»
- D. «Qiyomat»

8. To'lg'anoy Ch.Aytmatovning qaysi asari qahramoni?

- A. «Somon yo'li»
- B. «Qiyomat»
- S. «Asrga tatigulik kun»
- D. «Oq kema»

9. Ch.Aytmatovning ilk hikoyalari ko'rsating.

- A. «Gazetachi Dzyudo», «Hoshim», «Sepoyachi», «Oq yomg'ir», «Raqiblar»
- B. «Somon yo'li», »Qiyomat», »Asrga tatigulik kun», «Oq kema»
- S. «Sarvqomat dilbarim», «Bo'tako'z», «Birinchi muallim», «Somon yo'li»
- D. «Alvido Gulsari», «Oq kema», «Erta qaytgan turnalar», » Raqiblar»

10. Lui Aragon Ch.Aytmatovning qaysi asarini «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng go'zal qissa» deb atadi.

- A. «Somon yo'li»
- B. «Jamila»
- S. «Asrga tatigulik kun»
- D. «Oq kema»

11. Ch.Aytmatovning «Oq kema» qissasida bola qirg'oq bo'yidagi toshlarga qanday nom qo'ygan edi?

- A. tuya, bo'ri, egar, tank
- B. bo'ri, egar, biya, qo'y
- S. tuya, bo'ri, ot, egar
- D. bo'ri, eshak, ot, tank

V QISM

Mavzu: Turkman adabiyoti

Reja:

1. Turkman xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyoti.
2. Turkman adabiyotining taraqqiyoti.
- 3 . XIX asr turkman adabiyoti.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Turkman folklori, yozma adabiyotning shakllanishi, badiiy nasr va dramaturgiya.

Dars maqsadi: Turkman adabiyoti, turkman adabiyotining nasr, nazm va dramaturgiya taraqqiyoti xususida talabalarga tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. O'zbek-turkman xalqlarining qardoshlik tarixi haqida so'zlaydi.
2. Turkman folklori to'g'risida ma'lumot beradi.
3. Turkman yozma adabiyoti xususida fikr yuritadi.
4. Turkman adabiyotining urushdan keyingi yillardagi taraqqiyoti to'g'risida so'z yuritadi.
5. Nasriy yo'nalishda barakali ijod qilgan yozuvchilar va ularning asarlari xususida so'zlaydi.
6. Zamonaviy va tarixiy mavzularda yozilgan asarlar haqida fikr bildiradi.

Turkman xalqi Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan beri yashab kelayotgan, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlardan biridir. Turkman xalqining adabiyoti va madaniyati singari, folklor asarlari shaklida rivojlandi. Turkman xalqi asrlar davomida chet el bosqinchilar-eroniyalar, arablar mo'g'ul istilochilar, Buxoro amirlari va Xiva xonliklari zulmi ostida qolib ketganligi sababli, turkman milliy adabiyoti va madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yo'q edi. Shunga qaramay turkman xalqi o'z milliy tilining sofligini saqlab qoldi, o'z milliy adabiyoti va madaniyatini taraqqiy ettirish uchun kurash olib bordi.

Turkman xalq og'zaki ijodida ertak, ashula, qo'shiq va doston janrlari juda keng tarqalgan. Ashula va ertaklar turkman folklorida eng qadimgi janrlardan hisoblanadi. Keyinchalik xalq ertaklari syujetidan keng foydalanish asosida xalq qahramonlik va ishqiy –lirk dostonlar yuzaga keldi. Turkman xalq dostonlarining bir qismi sharq mumtoz adabiyoti asarlari va diniy kitoblar (masalan, «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho») mazmunini qamrab olgan bo'lsa, bir qismi uchun ertaklar va rivoyatlarning syujetlari asosida manba bo'lib xizmat qilgan. («Shasenem va G'arib», «Zuhro va Tohir», «Asli va Karam») turkman xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyoti o'rtasida ko'p vaqlardan beri uzviy bog'lanishlar mavjud. Yozma adabiyotning juda ko'p asarlari xalq dostonlari, ertaklari asosida yaratilgan. Turkman mumtoz adabiyotining ko'pgina namoyandalarini xalq og'zaki ijodi mualliflaridan ajratish qiyin. Turkman xalq og'zaki ijodida «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar alohida o'rinni to'tadi. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda hikoya qilinishicha, qadim zamonlarda Chambil mamlakatining hokimi Jig'alibek qarigan chog'ida hokimiyatni o'zining sevimli kichik o'g'li Adibekka topshiradi. Adibekning homilador xotini farzand ko'rish oldida vafot qiladi. Tez orada Adibek ham dunyodan o'tadi. Oradan ko'p o'tmay bir cho'pon Adibekning otasi podadagi echkilardan biri kunda qabristonga borib u yerdagi nimaningdir bolasini emizib qaytishini xabar qiladi. Tekshirib qarasalar, echki Adibekning xotini qabridagi bir o'g'il bolani emizib kelar ekan. Go'rda tug'ilgan bu bolaga Ravshan deb, boshqa birovlar esa Go'ro'g'li deb nom qo'ydilar. Go'ro'g'li yoshlikdan sog'lom va sho'x bola bo'lib o'sdi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, bobosi bilan, Xunxor nomli podsho saroyida yashab yurgan paytlarida, podsho sinchilik vazifasida ishlagan Jig'alibekka yaxshi toy tanlashni buyuradi. Jig'alibek ko'rimsizgina bir toyni tanlaydi. Xunxor «sen mengga yomon toyni tanlading» deb Jig'alibekni jazolaydi. Uning ikki ko'zini o'yib oladi. Shu sababli uni Go'ro'g'li deb ham ataydilar. Ravshan bobosi tanlagan va tarbiyalagan G'irotda o'z yurtiga qaytib keladi.

Nasimiy (1369-1417) Ozarbayjonning Shamaxi shahrida hunarmand kosib oilasida tug'ilgan. Maktab va madrasalarda o'qib, shuningdek, riyozat, falakiyat

kabi fanlarni ham, arab, fors tillarini ham mukammal o'zlashtirib olgan. Nasimiylar inson uchun eng zarur bo'lgan erk va ozodlikni ulug'lab she'rlar yozadi. Riyokorlikni, zulmni,adolatsizlikni esa o'z she'rlarida qattiq qoralab, reaksiyoning ruhoniylarning tazyiqiga uchraydi. Keyinchalik Xalab shahrida Misr sultonining Muayidning topshirig'i bilan 1417-yilda vahshiyona qatl etiladi.

Ruhoniylar hur fikrli Nasimiya qarshi turli yo'llar bilan hujum qildi. Bir rivoyatda keltirilishicha, Nasimiylar Antop viloyatining hukmdori bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Uning dushmanlari buni ko'rolmay, hukmdorga turli yo'llar bilan Nasimiyni yomon ko'rsatishga harakat qilgan. Ular Yosin su'rasidan bir nusxa ko'chirib shoir kovushining charmi orasiga yashirib qo'yishgan. Hukmdor oldida Nasimiyyadan Qur'on su'rasini oyoq osti qilgan qanday jazoga loyiq deb so'rashgan. U esa bunday kishining terisini tiriklayin shilish kerak, deb javob beradi. Unga sen o'zing haqingda o'zing fatvo berding, deb kovush orasidagi Qur'on sur'asini chiqarib ko'rsatibdi va uning terisini tiriklayin shilib olishibdi. Reaksiyon ruhoniylar shoirni dinsiz, kofir deb e'lon qildi. Lekin shoirning xalq orasida obro'yi juda baland bo'lib, u butun sharq tarixida mardlik, fidoyilik timsoli sifatida e'zozlanadi.

Turkman mumtoz adabiyotining otasi, zabardast lirik shoir va mutafakkir Maxtumquli Firog'iy Turkman Cho'li Eronining Oqto'qay qishlog'ida shoir Davlatmamed Ozodiy oilasida tug'ildi. U bir necha vaqtlar Hojigavshon qishlog'ida yashadi. Avval qishloq maktabida, keyinchalik Buxoro, Xiva madrasalarida tahsil oldi. Shu yillarda turkman, o'zbek va fors-tojik mumtoz adiblari ijodini tinmay mutolaa qildi. Maxtumqulining ijodi mumtoz adiblarga ergashib, lirik she'rlar yozishdan boshlandi. Sharq mumtoz she'riyatini, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini yaxshi o'rgangan Maxtumquli sekin-asta o'zi ham o'ynoqi, ravon g'azallar ijod qilishga kirishdi. Maxtumquli o'zining eng yaxshi she'riy asarlarida xalq hayotining real lavhalarini chizdi. U ezilgan mehnatkash ommaning zulm va zo'ravonlikka qarshi noroziligini ifodalovchi «Zamonlar», «Axtaradi», «Ko'pning hayoti» singari she'rlarini yozdi. Maxtumquli tarqoq turkman qabilalarining birlashuvini, mustahkam adolatli davlat tuzilishini orzu qildi.

Maxtumquli she'riyatida vatanparvarlik g'oyalari kuchlidir. U Eron shohlari, Buxoro amirlari va Xiva xonlari zulmi ostida, o'z vatanini chet el bosqinchilaridan ozod qilish haqida ko'p o'yladi. Shuning uchun o'zining «Chaqiriq», «Baxt qushi» singari she'rlarida ommani dushmanidan o'ch olishga rag'batlantirdi.

Maxtumquli she'riyatiida pand-nasihat kuchli. Uning she'rlarida odob va axloq to'g'risida bayon etilgan fikrlar shubhasiz o'z zamonasi uchun katta ahamiyatga ega edi.

Maxtumquli g'azallari o'zbek xalqi orasida ko'pdan beri keng tarqalgan. Xalq uning she'rlarini havas bilan sevib aytadi.

Maxtumqulining she'rlar to'plami o'zbek tilida bir necha marta nashr ettirildi.

Turkman adabiyotida bir qancha salmoqdon badiiy mukammal asarlar yuzaga keldi. B.Kerboboyevning «Dadil qadam», «Nebitdog'»; O. Kavshutovning «Kopetdog' yon bag'irlarida» romanlari; Beki Setakovning «O'g'ilning sovg'asi», «Zamondoshlar»; X. Ismoilovning «Ikki otaning o'g'li» qissalari paydo bo'ldi.

B. Kerboboyevning «Dadil qadam» asari keng ko'lamlı tarixiy romandir. Kerboboyev «Oysulton» va «Nebitdog'» asarlarida zamonaviy mavzuga murojaat qiladi. Har ikki asarda ham mehnatsevarlik insonning oljanob fazilati ekanligi ko'rsatiladi. Turkman adabiyotida nasr, nazm va dramaturgiya yanada yuksala borib, u zamonaviy va tarixiy mavzularda yozilgan yangi-yangi asarlar bilan boyidi. Bu asarlar orasida B. Kerboboyevning «Tomchida quyosh jilosi», «Davr o'g'loni», X. Deryayevning «Qismat», «Bo'ron», B.Seyitakovning «Shoir», «Badirkent», O.Otajonovning «Bizning tanishlar», Q.Qurbansohatovning «To'yli mergan», Q.Qulievning «Yovuz kunlar», «Qora karvon», «Amir elchisi», «Bo'ysinmas Jazoir» romanlari, Ch. Jumageldievning «Bahs», «Olovsiz tutun», «Qalin» qissalari, B.Seytakovning «Iz solig'i» drama va komediyalari, shoirlardan Ch. Ashirov, O. Otajonov, I. Nuriyev, B. Xudoynazarovlarning doston va she'riy to'plamlari turli-tuman dolzarb masalalarni o'rtaga tashlab hal etganliklari bilan ajralib turadi. O'zbek-turkman xalqlarining do'stlik va «qardoshlik tarixi Amuday uzun» (G'ayratiy). Bu qardoshlik ularning adabiyoti va og'zaki ijodiyotida chuqr iz qoldirgan. Original bo'yoq va badiiy vositalar bilan sayqal topgan «Layli va

Majnun», «Yusuf va Zulayho» dostonlarining muallifi Nurmuhammad G'arib Andalibni haqli ravishda turkmanlar ham, o'zbeklar ham o'z shoirlari deb hisoblaydilar. Chunki uning ijodi har ikki xalq adabiyotida ham bir xil muhim mavqega ega.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab ijod etgan turkman shoirlari Saidiy, Miskin Qilich, Zeliliy kabi shoirlar Maxtumquli an'analarini davom ettirdilar.

Turkman adabiyotining XIX asrdagi yirik vakillaridan biri Mullanafas bo'lib, uning ijodi XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shoир ijodida xalqning chekkan og'ir turmushi, ocharchilik, kambag'allikning mashaqqatlari o'z aksini topgan. Mullanafas turkman xalqining eron bosqinchilariga qanday urush olib borganligini o'z she'rlarida mahorat bilan ko'rsatadi. Xalq qo'shiqlariga yaqin vaznda she'rlar yozdi. Dialog tarzidagi aytishuvlar ham shoир she'riyatida anchaginadir.

Mullanafasning ukasi dong'i ketgan baxshi bo'lган. Uning repurtuarida ko'plab xalq dostonlari bo'lган. Mullanafas ham ba'zan qo'liga soz olib, minglab misralarni kuya solib xalq orasida kuylab yurgan.

Shoirning «Gelmisham», «Bobo Ravshan» va «Tohir va Zuhra» kabi dostonlari ham katta mahorat bilan yozilgan. «Tohir va Zuhra» dostoni esa, o'zbek dostonlaridan shu nomli doston syujetiga o'xshasa-da, undan o'z originalligi bilan farqlanadi. Doston oxirida Tohir-Zuhrolar Alloh qudrati bilan tirilib, dushmanlarga qarshi kurashadi va maqsadlariga yetadi. Bu bilan shoир pok dunyoviy sevgi o'lim ustidan g'alaba qilganligini ko'rsatib berdi.

Urushdan keyingi davr turkman adabiyotida asosan tinch qurilish davri voqealari tasvirlandi. Qoraqum sahrosini o'zlashtirish, Amu kanalini qurib bitirish kabi mavzular adabiyotda yetakchilik qildi. Shu bilan birga, bu davr turkman adabiyotida «Konfliktsizlik nazariyasi» hukmron bo'ldi. Hayotdagi voqealarni bo'yab, bo'rttirib, faqat uning yaxshi tomonlarini ko'rsatish, butun dunyoga sotsialistik tuzumning afzal ekanligini targ'ib qilish badiiy adabiyotning asosiy maqsadi qilib qo'yilgan edi. Albatta, bunday siyosat ma'lum darajada adabiyotning sifatiga, rivojlanishiga salbiy ta'sir qildi. Qariyb barcha ijodkorlar

partiya va hukumatning chiqargan qarorlarining targ'ibotchisiga aylanib qoldi. Lekin shunga qaramasdan, bu davr turkman adabiyotida hayotni to'g'ri, haqqoniy tasvirlashga intilish ham ko'zga tashlanadi. Oddiy mehnatkashning o'y-xayollarini, orzu-maqсадларини tasvirlashda ijodkorlar katta yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Masalan, ota Kovshutovning «Kopetdog' yonbag'irlarida» nomli kitobi 1952-yilda alohida kitob holida nashr etildi. Bunda urushdan keyingi turkman qishloqlarida xo'jalikni tiklash asosiy mavzu qilib qo'yilgan. Roman bosh qahramoni Xushgeldi aqlli, tadbirkor yigit. U urush qatnashchisi, oliy ma'lumotli agronom, ilm-fan bilan qurollangan yigit. U kolxozda ekinlarga yangi texnologiyani joriy qilmoqchi bo'ladi, lekin kolxozi raisi tomonidan qattiq qarshilikka uchraydi. U asta – sekin tushuntirish yo'li bilan raisni qayta tarbiyalaydi. Lekin romanda bosh qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari yuzaki chiqqan joylar ham bor. Masalan, Xushgeldi bilan Boqar o'rtaсидаги muhabbat tasvirida yuzakilikga yo'l qo'yilgan. Bu asar ko'p jihatdan o'zbek yozuvchisi Oybekning «Oltin vodiyyadan shabadalar» romaniga o'xshab ketadi.

Turkman kitobxonlari hozirgi vaqtida Oybekning «Navoiy» va «Qutluq qon», A. Muxtorning «Opa-singillar», J. Sharipovning «Xorazm», Sh. Rashidov, T. Boboyevlarning she'riy asarlarini o'z ona tillarida o'qimoqdalar.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. XVIII asr turkman xalqining hayotini aks ettirishga intilgan doston nima haqida?
2. Turkman mumtoz adabiyotining asoschisi kim?
3. Turkman adabiyotida keng ko'lamlı tarixiy romanning nomini ayting.
4. O'zbek ijodkorlari bilan turkman adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan va qo'shayotgan adiblar haqida fikringizni bildiring.
5. Qaysi turkman adiblarining asarlari dolzarb masalalarni o'rtaga tashlaydi?
6. Turkman adabiyotida, nasr, nazm va dramaturgiyaning salmog'i xususida qanday fikrdasiz?
7. Turkman adabiyoti zamонавиј и тарихија маузуларда qanday mazmundor asarlar bilan boyidi.?

8. Turkman xalq og'zaki ijodi namunalarini belgilang.

- A. «Qizjibek», «Qo'zi Ko'rpeshev va Bayan suluvi»,
- B. «Shasenem va G'arib», «Zuhro va Tohir», «Asli va Karam»
- S. «Qo'blandi botir», «Qambar botir», «Er Targ'in»
- D. «Shasenem va G'arib», «Zuhro va Tohir», «Qizjibek»

9. Turkiy xalqlar adabiyoti nechanchi asrgacha yagona turkiy xalqlarning adabiy merosi sifatida rivojlandi?

- A. X asrgacha
- B. XI asrgacha
- S. XII asrgacha
- D. XIII asrgacha

10. O'zbek -turkman xalqlarining do'stlik va «qardoshlik tarixi Amuday uzun» deya ta'riflagan shoirni belgilang.

- A. B.Kerboboyev
- B. G'ayratiy
- S. Oybek
- D. G'.G'ulom

11. Turkmanlar ham, o'zbeklar ham. haqli ravishda o'z shoirlari deb hisoblagan shoirni belgilang

- A. Nurmuhammad G'arib Andalib
- B. X. Deryayev
- S. B.Seyitakov
- D. Maxtumquli

12. Asrlar davomida chet el bosqinchilari-eroniyilar, arablar mo'g'ul istilochilari, Buxoro amirlari va Xiva xonliklari zulmi ostida qolib ketgan xalq...

- A. Turkman xalqi
- B. Qozoq
- S. Qirg'iz
- D. Ozarbayjon



Mavzu: Maxtumqli

REJA:

1. Shoirning hayot yo'li.
2. Maxtumquli she'riyati.

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari: Ilk tahsili, she'riyati, Maxtumquli va Navoiy, shoir ijodida pand-nasihat, Maxtumquli va o'zbek adabiyoti.

Dars maqsadi: Shoirning yoshligi, ilm olishi, shuningdek, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot va shoir she'riyati hamda mavzu doirasi, g'oyaviy xususiyatlari to'g'risida talabalarda tasavvur uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Maxtumquli voyaga yetgan oila to'g'risida so'zlaydi.
2. Shoirning ilm olishi va faoliyati haqida tushuncha beradi.
3. Shoir yashagan davrdagi ijtimoiy - siyosiy va tarixiy sharoitni izohlaydi.
4. Shoir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.
5. Shoir she'rлarining g'oyaviy mazmunini izohlaydi.

Turkman mumtoz adabiyotining yirik namoyandası, shoir va mutafakkir Maxtumquli - Firog'iy taxminan 1733-yil Turkmanistonning janubi-g'arb tomonida, Atrek daryosiga yaqin Xojigavshon degan joyda tug'ildi. Maxtumqulining otasi Ozodiy davrining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri edi. U she'rлar to'plami va «Va'zi Ozod» kitobining muallifidir.

Yosh Maxtumquli boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida olib, so'ng Xivaga boradi va u yerdagi She'rg'ozixon madrasasida ta'lim oladi. Madrasani tugatib qaytgach, Maxtumquli muktabda o'qituvchilik qilsa ham, asosan, zargarlik bilan shug'ullanadi. Uning ijodiy faoliyati yoshligidan boshlab, umrining

oxirigacha davom etgan sevimli kasbi edi. Shoир Sharq xalqlari adabiyoti, san'ati bilan chuqur tanishdi, arab, fors, eski o'zbek tilini o'zlashtirdi, grammatika, matematika, astranomiya kabi fanlarni, Sharq donishmandligining ijtimoiy - falsafiy qarashlarini, islom dinini va uning tarixini o'rgandi. Maxtumquli yigitligida hamqishlog'i Mengli ismli qizni sevgan, unga atab she'rlar yozgan.

Uning:

Parda tortib yuzlarimga,
Pardoz berib so'zlarimga,
Maxtumquli, ko'zlarimga,
Yolg'iz Menglixon ko'rinxur .

kabi jo'shqin misralari shoир Menglini chin qalbdan sevganliga dalildir. Ammo sevishganlar bir-biriga yetisha olmaganlar. Menglining ota-onasi uni boshqa kishiga berib yuborgan. Shunday qilib Maxtumquli sevganiga yetolmay, yaramas urf-odat o'tida kuyib-yondi. Unga Oqqiz ismli tul qolgan yangasini majburan olib berdilar. Bu voqeа ham shoир ijodida o'chmas iz qoldirdi.

Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, Maxtumqulining Sari va Ibrohim nomli ikki o'g'li bo'lib, ular yoshligidanoq o'lib ketishgan.

Shoирning «Bo'larmi», «Boshimni mubtalo qildi» degan she'rlari shu musibatga bagishlab yozilgan.

Maxtumqulining qachon vafot etganligi hozircha ma'lum emas. Lekin o'zining ba'zi she'rlaridan anglashilishicha, XVIII asrning 80-yillari vafot qilgan, deb taxmin etish mumkin. Rivoyatlardan, shuningdek, shoирning ayrim she'rlaridan ma'lum bo'lishiga ko'ra, u Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning bir qancha mamlakatlarida, Buxoro, Xiva, Afgoniston, Ozarbayjonda, Eronda bo'lgan, bu mamlakat xalqlarining og'ir qismati, achchiq turmushi bilan tanishgan. Maxtumqulidan juda boy badiiy meros qolgan. U o'zining she'rlari orqali turkman mehnatkashlari his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, urf-odatlarini o'z zamonidagi qabih zulm-sitamlarni aks ettirib berdi. Uning asarlari XVIII asrda Turkmanistondagi asosiy ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy, axloqiy masalalarni qamrab oladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida turkmanlar orasida milliy jihatdan birlashish uchun harakat zo'rayib ketdi. Bu masala Maxtumquli ijodida ham markaziy o'rinnegalladi.

*Bir-birini chopmoq ermas erlikdan,
Bu ish shaytoniydir, balki ko'rlikdan,
Og'zi olalik ayrar, elni tiriklikdan,
Munda davlat dunib dushmana kelgay*

kabi misralari mana shu voqealarning aks-sadosi sifatida yangraydi.

Maxtumquli el-yurt manfaati uchun xizmat qilish, do'stlik, ahillik g'oyalarini maydonga tashlab, xalqning, birlikning kuch-qudratiga yuksak baho beradi, mehnatkash xalq manfaatlari uchun kurashuvchi, har sohada ahillik bilan ish tutuvchi mard yigitlarni maqtadi va «Elga darkor bo'limgan odam qurib ketsin» deydi.

Shoirning ana shunday g'oyalarni olg'a surgan misralari xalqning qalbiga jo bo'lib, maqollarga aylanib ketgan.

Maxtumquli o'z ona eli, vatanini sevgan, uning or- nomusini hamma narsadan yuqori qo'ygan ijodkordir.

Shoir ona yurtining go'zal tabiatini, serhosil yerlari, zilol chashmalari, botir yigitlari, suluv qizlari, chorva-mollarini badiiylik bilan gavdalantiradi.

*O'ngingda baland tog', sorinda tuman,
Dengizdan esadi eli Gurgonning.
Bulut o'ynab, bo'ron bo'lsa soylarda,
Oqar bo'z-bulanib seli Gurgonning.
To'qaylari bordir qarg'a-qamishli,
Go'zallari bordir oltin-kumushli,
Bo'z gusfand, g'ir yilqi, qora gov mishli.*

Bu misralar turkman xalqini yurtning mustaqilligini saqlashga ham chaqiradi. «Ko'rganing», «So'nggi dog'», «Turkman binosi», «Ilk zamonlar», «Bilinmas» kabi she'rlari uning ona-vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatidan dalolat beradi. Shoirning umumxalq hurmatiga sazavor bo'lishining bosh sabablaridan biri ham

shu vatanparvarlik. Maxtumquli mardlik, qahramonlikka el-yurt manfaati nuqtai nazaridan yondashib, tor shaxsiy manfaati, o'z nafsi qurboni bo'lgan nomardlarni, xudbinlarni la'natlaydi.

Mardlik-nomardlik masalasi turkman mumtoz adabiyotining, ayniqsa, mumtoz she'riyatning eng yaxshi ishlangan mavzularidandir. Maxtumquli asarlarining ko'pchiligi ham shu mavzuga bag'ishlangan.

Mo'ylov tovlab, har yon tortar,

Haybati yo'lbarsdan ortar

Ko'kdek gurlab, tomoq yirtar,

Hozir bular osh ustida

kabi misralarda nomardlarning aft-basharasini ochib tashlaydi.

Maxtumquli xalq ommasining ko'nglidagi orzu-o'ylarini, davrning juda murakkab masalalarini g'oyat sodda til va yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlab berganki, shoir asarlarining chuqur xalqchiligi ham shunda.

Maxtumquli o'zining butun kuchini ezilgan, kamsitilgan xalqning manfaatini kuylashga bagishlaydi.

Zolimlar unutar zikri Olloni,

Arzon olib, qimmat sotar g'allani,

Sudxo'r noinsoflar halol tillani,

Harom foydasiga berishin ko'ring,

deb sudxo'r boylarning xalqni talaganlarini, xalq boshiga og'ir kunlar solganini tasvirlaydi.

XVIII asr turkman hayotining umumiyl manzarasi va unga shoirning munosabati mana bu satrlarda jamuljamdir:

Hozir bizning zamonda,

Yomon so'zlar zabonda,

Zulm ishlari jahonda

Jo'shdi debon yig'larman.

Maxtumquli ijodida o'git-nasihat mavzusi keng o'rin olgan. U kitobxonga eng yaxshi insoniy fazilatlarni singdirishga intiladi, uni mehmondo'st, to'g'ri so'z, yaxshi qiliqli, odob -axloqli bo'lishga chao'iradi:

*Mard o'g'ildir, elga yozar dasturxon,
To'g'ri so'z ustida berar shirin jon,
Umrini o'tkazar, aytmaydi yolg'on,
Jahd aylab, yolg'on so'z aytuvchi bo'lma.*

Insonparvar shoir ijodida sevgi-muhabbat, xotin-qizlarning turmushdagi o'rni masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Shoirning xotin-qizlarga bag'ishlagan asarlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

- 1) ishq-muhabbatga doir she'rlar.
- 2) kelin-qizlarning odob-ikromi, yaxshi va yomon qiliqlariga bag'ishlangan she'rlar.
- 3) ayollarning hayotdagi o'rni masalasiga doir she'rlar.

Maxtumqulining Mengliga bag'ishlangan ishqiy she'rlariga «Uyat aylayur», «Go'zal yorim ko'rinnmas», «Mengli yorimdan» kabilar misol bo'la oladi.

Anchagina she'rlarida shoir kelin-qizlarning xusni bilan birga odobli, ikromli, muloyim, shirinsuxan bo'lmoqlarini orzu etadi.

*Odobli, ikromli, muloyimzoda,
To o'lguncha birga yurging keladi.
So'zlagan so'zlari misoli bol kibi.
Topib ne yerda bo'lsa olging keladi.*

Maxtumqulining ishqiy she'rlari o'zidan keyingi ijodkorlarga kuchli tasir o'tkazdi: Uning:

*Qaroqchimi, yo saidmi, xo'jami,
Yo soqiymi, yo sharobmi, yo jommi,
Yo yilmisan, yo kechami, yo kunduz,
Yo oymisan, yo kunmisan, na'masan?*

desa:

Mullanafas « Tohir va Zuhra »dostonida:

*Bog' ichinda bulbulmisan, gulmisan,
Yo bulbula o'xshash shirin tilmisan,
Asalmisan, yo qandmisan, bolmisan,
Shirinmisan, shakarmisan, na'masan? deb yozadi.*

Maxtumqulining ilgor g'oyalari o'zidan keyingi turkman shoirlari uchun namuna maktabi bo'ldi. Qardosh xalqlar adabiyotining atoqli namoyandalari ham Maxtumquli ijodiga katta hurmat va ehtirom bilan qaraydilar.

Qoroqalpoq mumtoz adabiyotining asoschisi Berdaq Maxtumquli haqida bunday deydi:

*Maxtumqulini o'qiganda,
Aytar edim har zamonda,
Nuqson bormi, beklar, anda,
So'zin tavof qilar edim.*

Darhaqiqat, Maxtumqulining durdona she'rлarini san'atkorlargina emas, balki umuman, mehnatkash omma ardoqlaydi. Shoirning «Adabning yaxshisi-kattani siyla», «kishiga qattiq so'z aytuvchi bo'lma» shaklidagi misralari maqolga aylanib ketgan.

*Dono bo'lsang, miskinlarni unutma,
Afzal bo'lsang, nomardlarga bosh tutma
Erk istasang, go'zal dostoning sotma
Elingga baxsh aylab o'tgin Firog'iy*

degan shoir umrining oxirigacha mehnatkash xalqqa sodiq qoldi.

Vatanparvar shoir ijodi el-yurt dardi bilan hamohang bo'ldi. Adolatlil hukmdorlar, insofli boshliqlar yurtni himoya qiladi, elni turli g'alamislarga talatgani qo'ymaydi. Agar boshliqlar noinsof bo'lib, ular faqat o'z manfaatini o'ylasalar, ishi-dardi pora olib, xalqni xonavayron qilsalar qiyomat degani shu bo'ladi.

*Shohlarda qolmadi hukmiadolat,
Bir pul uchun mufti berar rivoyat,
Bil, bu ishlar nishonayi qiyomat,*

Zolimlar betavba o'ta boshladi.

Maxtumquli faqat turkman adabiyotining emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotining faxri hisoblanadi. Uning she'rlari Turkmanistonda qanday e'zozlansa, O'zbekistonda ham xuddi shunday qadrlidir. Shoir she'rlarida tasavvuf falsafasi ma'naviyati kuylanadi. Ayniqsa, naqshbandiylik tariqati g'oyalari Maxtumqulining har bir she'rida uchraydi. Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining ruhiga mos ohanglar, uning she'riyatini juda mashhur qilib yuborgan.

O'zbekiston prezidenti I.Karimov o'z ma'rzasida Mahtumqulining ijodi o'zbek xalqi uchun juda qadrli ekanligi, uning she'rlaridaadolat va ezgulik kuylanganligini aytdi. Shoir ijodini o'zbek va turkman maktablarida keng o'rghanish kerak ekanligini ham ta'kidlab o'tdi.

1996-yilda Xivada Maxtumquliga haykal o'rnatilganda Turkmaniston prezidenti S.Niyozov «Mahtumquli o'zbek va turkmanlarga birday bo'lган mutafakkir shoirdir. U bizning faxrimiz va vatandoshimizdir. Maxtumqulini bilmagan birorta o'zbek ham, turkman ham yo'q», degan gaplarni aytgan.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Maxtumqulining ota - onasi, shuningdek oilasi to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Maxtumquli qaysi Sharq mamlakatlarida sayohatda bo'lgan?
3. Shoir yashagan davrdagi tarixiy sharoitni izohlang.
4. Maxtumquli Xivada qaysi madrasada o'qidi?
5. Maxtumquli she'rlarining o'ziga xos tomonlari haqida gapiring.
6. Shoir she'riyatining g'oyaviy xususiyatlari haqida nimalar deya olasiz?
7. Maxtumquliningadolat va vatanparvarlik to'g'risidagi she'rlariga baho bering.
8. Shoirning xotin-qizlarga bag'ishlagan she'rlarinig mavzusi xususida fikr bildiring.
9. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini izohlang.
10. «Na'masan» she'rini tahlil qiling.

11. U Eron shohlari, Buxoro amirlari va Xiva xonlari zulmi ostida, o'z vatanini chet el bosqinchilaridan ozod qilish haqida ko'p o'yladi. Qaysi ijodkor tarjimai holidan?

- A. Turkman shoiri Maxtumquli
- B. Turkman shoiri B.Kerboboyev
- S. Qozoq shoiri Abay
- D. Qozoq shoiri O'.Sulaymonov

12. Maxtumqulining mehnatkash ommaning zulm va zo'ravonlikka qarshi noroziligini ifodalovchi she'rlarini belgilang.

- A. «Chaqiriq», «Baxt qushi», «Axtaradi»
- B. «Zamonlar», «Axtaradi», «Ko'pning hayoti»
- S. «Bo'lmas, «Bo'larsan, «Go'zal»
- D. «Baxt qushi», «Axtaradi»«, Go'zal»

13. Davlatmamed Ozodiy taxallusi bilan ijod qilgan Turkman shoirini belgilang.

- A. Maxtumquli
- B. B.Kerboboyev
- S. Q.Qurbansoxatov
- D. Q.Quliyev

14. Qaysi Turkman she'riyatida pand-nasixat kuchli?

- A. B.Kerboboyev
- B. Q.Qurbansoxatov
- S. Q.Quliyev
- D. Maxtumquli

15. Avval qishloq maktabida. keyinchalik Buxoro, Xiva madrasalarida tahsil olgan Turkman shoirini belgilang.

- A. B.Kerboboyev
- B. B.Seyitakov
- S. X. Deryayev
- D. Maxtumquli



Mavzu: Berdi Kerbobjoyev

Reja:

1. Berdi Kerbobjoyev she'riyati.
2. Berdi Kerbobjoyev nasriy asarlari.

Mavzuga oid asosiy tayanch tushuncha va iboralar:

Ilm o'rganishi, faoliyati, she'riyati, dostonlari, nasriy asarlari, romanlari.

Dars maqsadi : Berdi Kerbobjoyev she'riyati haqida umumiy ma'lumot berib, nasr sohasidagi ijodi hamda she'rlaridan namunalar tahlil qilish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. B.Kerbobjoyevning ilk she'rlari hamda sobiq sovet davridagi she'rlari xususida mulohaza bildiradi.
2. Dostonlarini tahlil qiladi.
3. B.Kerbobjoyevning dastlabki hikoyalari haqida so'zlaydi.
4. Yozuvchining adabiy-tanqidiy maqolalari va tarjimonlik faoliyatini tahlil qiladi.
5. Adibning dramaturgiya janridagi ijodiga sharh beradi.
6. Yozuvchining qissa va roman janridagi ijodini baholaydi.

Berdi Kerbobjoyev 1894-yil Turkmanistonning Tejen tumanida tug'ildi. Oktabr to'ntarishidan ilgari ovul mакtabida, so'ng Buxoro madrasalaridan birida o'qidi, arab, fors tillarini o'rgandi, turkman, o'zbek va boshqa sharq xalqlari adabiyoti namunalarini mutolaa qildi.

Kerbobjoyev turli muassasalarda, respublika gazeta va jurnallari redaksiyalarida ishladi. Adib o'z adabiy faoliyatini 1923-yilda gazeta sahifalarida she'rlar e'lon qilishdan boshladi. Dastlabki paytlarida u shoir sifatida ko'ringan bo'lsa-da, 20-yillar oxirlaridan e'tiboran kichik-kichik hikoya va qissalar yoza boshladiki, bu bilan Kerbobjoyev turkman badiiy nasriga ham asos soldi.

U 1926-yilda «Giyohvand va tabib», «Yuksalishda» singari dramalar yozdi. Bu dramalarda adib giyohvandchlikning insoniyat uchun juda xavfli ekanligini o'sha davrdayoq aytgan edi. Ma'lumki, bu mavzu bugungi kunda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. 1925-yili «To'qmoq» nomli satirk jurnalga muharrir etib tayinlandi. Uning ijodi davr voqealari bilan hamohang tarzda rivojlandi.

1927-1928-yillarda Leningrad sharqshunoslik institutida tahsil oldi. Birinchi asari «Yana ich» nomi bilan bosilib chiqqan hajviy feleton edi. Keyin u «Inglizlar yotib otadi» nomli hajviy she'rini yozdi. Bunda ingliz imperialistlarining Turkmanistonda olib borgan siyosati tanqid qilingan.

B.Kerboboyevning 20-yillarda yaratilgan she'rlarida sobiq sovet mafkurasiga xos bo'lган fikr va g'oyalalar yetakchi xususiyatga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Masalan, shoirning «Sho'ro saylovi» (1926), «O'tibdi», «Hoy, qizlar» (1926), «O'kinmadim», «O'qisang», «Cho'llar», «Gulla, mening quvonchim» (1927), «Muallim» (1928), «Traktor yaxshi» (1929), «Boqiy yashil daraxt», «Paxta» (1930), «Otamga so'nggi xatim» kabi she'rlarida jamoalashtirish yillarining qarama-qarshiliklari o'z ifodasini topgan.

Shoir «Qizlar dunyosi», «Taqilma», («Beshkarti») «Yoz mavsumidagi bir go'zal» dostonlarida Turkman xotin-qizlarining o'tmishda boshdan kechirgan turmushlarini tasvirlaydi. «Amudaryo» dostoni esa Turkman xalqi asrlardan beri orzu qilgan masalaga - Amudaryo suvini Qoraqum sahrosiga oqizish, cho'lni gulistonga aylantirish muammosiga bag'ishlangan.

30-yillardan boshlab B.Kerboboyev Turkman davlat nashriyotining adabiy xodimi (1931-35) sifatida A.Gaydarning bir qancha hikoyalarini, L.Tolstoyning «Hojimurod» qissasini, M.Gorkiyning «Ona», M.Sholoxovning «Ochilgan qo'riq», Voynichning «So'na» romanlarini turkmanchaga tarjima qildi. Tarjimachilik yozuvchi ijodining yuqori bosqichga ko'tarilishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uning ikkinchi jahon urushi yillari yozilgan «Maxtumqli» dramasi o'zining badiiy yetukligi bilan nihoyatda mashhur bo'ldi. Bu drama hozirgacha turkman teatri repertuarlarining oldingi safida turadi.

Urush yillarida B.Kerboboyev boshqa yozuvchilar singari adabiy front saflarida xizmat qildi. Turkmaniston yozuvchilar uyushmasiga boshchilik qilish bilan birga ijodiy ishni ham tinmay davom ettirdi. Qahramonlik, vatanparvarlik tuyg'ularini vasf etuvchi, vatanga muhabbat, dushmanaga nafrat ruhida anchagina she'rlar yaratdi.

Yozuvchi turkman madaniyati va san'ati xodimlarining delegatsiyasi tarkibida frontda bo'ldi. Jang maydonlarida ko'rgan voqealari asosida xalqning front va front orqasida ko'rsatayotgan fidokorliklarini tasvirlovchi «Vatanga muhabbat», «Kim kimni sevadi?» (1942), «Birodarlar» pyesalarini, «Qurban Durdi» qissasini, «Vatan qizlariga» (1942) ocherklarini, «Oylar» dostonini yaratdi.

B. Kerboboyev turkman adabiyotining turli masalalari bo'yicha adabiy-tanqidiy maqolalar bilan ham ko'p chiqishlar qildi. U 1926-yili Maxtumquli she'rlarini birinchi marta bosmaga tayyorlab, alohida kitob shaklida nashr ettirdi. Yozuvchining «Turkman badiiy adabiyoti», »Mulla murt Xo'janiyoz o'g'li», «So'z va obraz», «Yosh yozuvchilarning ijodi haqida», «Maxtumquli va unga bo'lgan qarashlar», «Turkman adabiyotining yirik janrlari», «Zehn, yurak, o'quv va mehnat kerak» kabi maqolalari turkman adabiy tanqidchiligi taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

U ancha yillar sho'ro yozuvchilar uyushmasining kotibi, Turkmaniston Yozuvchilar uyushmasining boshlig'i, Turkmaniston Oliy Kenggashining deputati sifatida ulkan jamoatchilik ishlarini olib bordi. Tinchlik uchun kurashuvchi sifatida qator konferensiyalarda, xalqaro forumlarda qatnashdi. Shu tariqa turkman adabiyotini «Yo'l xotiralari» nomli yangi janr bilan boyitdi.

U tarjimon sifatida Pushkinning ko'pgina she'rlarini, «Evgeniy Onegin» romanidan parchani, M.Ibrohimovning «Shunday kun keladi», Oybekning «Navoiy» romanlarini, Musa Jalilning she'rlarini, Umar Xayyom ruboilarini turkman tiliga tarjima qilgan.

B.Kerboboyev dramaturgiya janrida ham qalam tebratib, turli yillarda «Yolg'onchi», «Bobolaqqi», «Hurliqo va Hamro», «Ona», «Birodarlar», «Xalq shoiri» singari sahna asarlari yaratdi.

Adibning ilk pyesasi «Taryoqqash va tabiblar» 1926-yilda yozilgan bo'lib, satirik ruhga ega. Unda o'tmishning zararli sarqiti - giyohvandlikka berilgan shaxslarning turmush fojiasi nashavand Xo'jaberdi, Geldi, Annajamol kabi timsollar orqali ochib beriladi. Adib 1942-yil vatan urushida turkman yigitlaridan Qurbon Durdiyevning qahramonliklarini tasvirlashga bag'ishlangan «Qurbon Durdi» qissasiini yozdi. Qissaning birinchi qismida Qurbonning jamoa dalasidagi fidokorona mehnati, armiya safidagi halol xizmati, urushning dastlabki kunlaridanoq jangga otlanganligi hikoya qilingan.

1936-yilda adib «Dadil qadam» romanini yozishga kirishdi va 1937- yilda uning birinchi kitobini tugalladi. B.Kerboboyev urush yillarida romanning ikkinchi va uchinchi kitoblari ustida ish olib bordi va 1944-yil uning ikkinchi kitobini yozib tamomladi.

B.Kerboboyev 1957-yili yozilgan «Nebitdog'» romanida Turkmaniston neftchilari hayoti va mehnatini tasvirlashga harakat qilgan. Asar ustida ishlar ekan muallif ikki yildan ko'proq bevosa Nebitdog'da yashab, bo'lg'usi roman qahramonlarining turmushi, mehnatini yaqindan kuzatgan.

30-yilarda turkman tuprog'ida neft qazib chiqarishga kirishildi. U paytlari sonoat qurilishida, neft qazib chiqarishda mahalliy millat vakillaridan ishchilar juda kam bo'lган. 50-yillarga kelib esa turkman millati vakillari ham neft qazib olish ishlariga faol ishtirok eta boshladи. Burg'ulash uchastkasining masteri Atabay va uning xotini Mamish orqali muallif turkman oilasi, urf-odatlarini aks ettirdi. Annatuvoq Chovdurov, Onul Sulaymonov, Safronovlar turli tabaqa vakillaridan bo'lган neftchi mehnatkashlardir. Bularning har biri o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, yozuvchi ushbu qahramonlarning ichki dunyosini berishda ma'lum yutuqlarga erishgan.

B.Korboboyev turkman romanchiligining shakllanishida bevosa A.Qodiriy romanlarining ta'siri nihoyatda katta ekanligini ta'kidlab yozgan edi.

Berdi Kerboboyevga «Turkmaniston xalq yozuvchisi», «Mehnat Qahramoni» unvonlari berilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Shoirning 20-yillardagi she'rlariga qanday baho berasiz?.
2. B.Kerboboyevning urush mavzusidagi she'rlarida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
3. Yozuvchining nasrdagi dastlabki ijodi xususida nima deya olasiz?.
4. B.Kerboboyev kimlarning qaysi asarlarini turkman tiliga tarjima qilgan?
5. Yozuvchining roman janridagi ijodini baholang.
6. B.Kerboboyev qissalarida qanday muammolar ko'tarilgan?
7. B. Kerboboyevni butunjahon kitobxonlarga tanitgan asari qaysi va asar qaysi mavzuda yozilgan?
8. Adibning tanqidiy maqolalariga munosabatingiz va ularda qanday muammolar ko'tarilgan?
9. **B.Kerboboyevning 1957 - yilda yozilgan Turkmaniston neftchilari hayoti va mehnatini tasvirlab yozgan asarini belgilang.**
 - A. «Nebitdog'» romani
 - B. «Yolg'onchi»
 - C. «Bobolaqqi»
 - D. «Hurliqo va Hamro»
10. **B.Kerboboyevning ilk pesasini belgilang.**
 - A. ««Yolg'onchi»
 - B. «Taryoqqash va tabiblar
 - C. «Bobolaqqi»
 - D. «Qurban Durdi»
11. **B.Kerboboyevning Turkman xotin-qizlarining o'tmishda boshdan kechirgan turmushlarini tasvirlab yozgan dostonlarini belgilang.**
 - A. «Qizlar dunyosi», «Taqilma», («Beshkarti») «Yoz mavsumidagi bir go'zal»
 - B. Amudaryo» dostoni, Sho'ro saylovi» (1926), «O'tibdi», »Hoy, qizlar»
 - C. «Boqiy yashil daraxt», «Paxta» (1930), «Otamga so'nggi xatim»
 - D. Gulla, mening quvonchim» (1927), «Muallim» (1928), «Traktor yaxshi» (1929)

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2013.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, keljakka e'tibor. -T.: «O'zbekiston», 2009.
3. Аҳмад Қабоқли. Турк адабиёти. Истанбул. 1997 й. 2-3 жилд.
4. Аҳмад Ҳамди Танпинар. 19-asр Турк адабиёти тарихи. Истанбул 1997.
5. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi. -T.: 2006.
6. Alimbekov A. XX asr turk nasri taraqqiyoti -T.: 2001.
7. Alkaeva L. Ocherki turetskoy literaturu.- Moskva, 1969.
8. Fozilov N. Muxtor og'a. «Jahon adabiyoti» jurnali. 2001. 6-son
9. Гарбузова В.С. Поэты Турции XIX века. Л.1970.
10. Hozirgi zamon turk she'riyati. -T.: 1980.
11. Inog'omov R. Adabiy qardoshlik taronalari.-T.: 1972.
12. Каратаев М. Казахская литература на современном этапе.- Алма-ата, 1979.
13. Кор-Оглу Х. Туркменская литература.—Москва, 1982.
14. Mallaev N. Nizomiy Ganjaviy. -T.: 1966. («O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida)
15. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. -T.: 1976.
16. «Manas» dostoni. –T.: 1980.
17. Seydanov Q. M. Avezov va qardosh xalqlar adabiyoti -T.: Fan.1977.
18. Turk xalqining buyuk farzandi Otaturk. Tarixiy- biografik ocherk -T.: 1998.
19. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi. O'UM, O'zMU. 2011.
20. Tohirov Q. O'zbek-turkman adabiy aloqalari. -T.: 1979.
21. Утургаури. С.Н. Турецкая проза. Москва-1982.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Absamiyev H. Turkiy xalqlar adabiyoti. -Samarqand, 2006
2. Abay. She'rilar. –T.: 1960
3. Avezov M. «Abay yo'li» -T.: 1978.
4. Avezov M «Qarash-qarash» voqeasi qissasi -T.: 1962.
5. Aytmatov Ch. «Qiyomat», «Asrga tatigulik kun». Romanlar. -T.: 1989.

6. Aytmatov Ch. Oxir zamon nishonalari. -T.: «Sharq», 2001.
7. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. 2 tomlik, -T.: -1978.
8. Aytmatov Ch. Kassandra tamg'asi. –T.: 2003.
9. Aziz Nesin. G'aroyib bolalar. Roman va hikoyalar. –T.: 1988.
10. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –T.: 1991.
11. Deryayev X. «Qismat». -T.: 1970.
12. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. –T.: 2005.
13. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur. -T.:2013.
14. Kamina. Tanlangan asarlar. -T.: 1957.
15. Kerboboyev B «Dadil qadam». T.: 1960.
16. Maxtumquli. She'rler. -T.: 1976.
17. Mukanov S. «Qozoq soldati» qissa. -T.: 1968.
18. M.Shayxzoda. O'zbek va Ozarbayjon adabiy aloqalari. III tom. -T.: 1978.
19. M.V.Oxundov. Tanlangan asarlar. -T.: 1976.
20. Qo'nonboyev Abay. O'lanlar. -T.: 1960.
21. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy-biografik roman. –T.: 1986.
22. Rashod Nuri Guntekin. Choliquushi. –T.: 2002.
23. S.Sayfullin. Mashaqqatli yo'l. -T.: 1984.
24. S.Vurg'un. Tanlangan asarlar. -T.: 1965.
25. Turkman shoirlari. -T.: 1963.
26. To'qomboyev A. Tong oldida. She'riy roman. -T.: 1985.
27. Voqif. Tanlangan asarlar. –T.: 1978.
28. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.
29. Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti. –Samarqand, 1989.
30. www.britannica.com/art/Kyrgyz-literature.
- 31 www.wikipedia.org/.../Turkish.
32. www.azerbaijan.az.
33. www.britannica.com/art/Turkmen-literature.
34. www.britannica.com/art/Kazakh -literature.
35. www.google.co.uz

Мундарижа

1. Kirish.....	3
2. «Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanining maqsadi va vazifalari.....	4
3. Turk adabiyoti tarixi.....	10
4. Jaloliddin Rumiy.....	17
5. Yunus Emro.....	23
6. Aziz Nesin.....	31
7. Ozarbayjon adabiyoti	37
8. Nizomiy Ganjaviy	45
9. Fuzuliy.....	53
10. Mirzo Fatali Oxundov	58
11. Qozoq adabiyoti	61
12. Abay Qo'nonboyev.....	70
13. Muxtor Avezov	81
14. Qirg'iz adabiyoti	87
15. To'xtag'ul Sotilg'anov	94
16. Chingiz Aytmatov	98
17. Turkman adabiyoti	104
18. Maxtumquli she'riyati	111
19. Berdi Kerboboyev	119
20. Foydalaniladigan adabiyotlar.....	124

Содержание

1. Введение.....	3
2. Цел и задачи предмета «Тюркоязычная литература».....	4
3. История тюркоязычной литературы.....	10
4. Джалалиддин Руми.....	17
5. Юнус Эмро.....	23
6. Азиз Несин.....	31
7. Азербайджанская литература	37
8. Низами Ганджави	45
9. Фузули.....	53
10. Мирзо Фатали Ахундов	58
11. Казахская литература	61
12. Абай Кунанбаев.....	70
13. Мухтар Аvezov	81
14. Киргизская литература	87
15. Тухтагул Сатилганов	94
16. Чингиз Айтматов	98
17. Туркменская литература	104
18. Махтумкули	111
19. Берди Кербабаев	119
20. Использованная литература.....	124

Contents

1. Introduction.....	3
2. Aims and Tasks of the subject of «History of Turkic Literature».....	4
3. History of Turkic Literature	10
4. Djaloliddin Rumiy.....	17
5. Yunus Emro.....	23
6. Aziz Nesin.....	31
7. Azerbaijan Literature	37
8. Nizomi Ganjaviy	45
9. Fuzuliy.....	53
10. Mirzo Fatali Okhundov	58
11. Kazakh Literature	61
12. Abay Qunonboev.....	70
13. Mukhtor Avezov	81
14. Kirgiz literature	87
15. Tuxtaghul Sotilghanov.....	94
16. Chingiz Aitmatov	98
17. Turkmen literature	104
8.Makhtumkuli.....	111
19. Berdi Kerboboев	119
20. Use literature.....	124

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi

(o'quv qo'llanma)

Maqsuda Sariboyeva

Dizayner:

Texnik muharrir:

Kompyuterda

tayyorlovchi: F.Xojimurodov

7007012. Guliston sh. 4-mavze,
Guliston davlat universiteti

Guliston-2016